

B.MUSTAFOYEV

# ESTETIK TARBIYA METODIKASI

O'quv qo'llanma

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,  
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**B.MUSTAFOYEV**

**ESTETIK TARBIYA METODIKASI**

(60111300 - Musiqa ta'lifi yo'nalishi talabalari uchun o'quv  
qo'llanma)

**"Durdona" nashriyoti  
Buxoro – 2023**

**UO'K 37.015.31:78(075.8)**

**KBK 74.200.25+85.3ya73**

**M 90**

Mustafoyev, B. Estetik tarbiya metodikasi [Matn] : o'quv qo'llanma / B. Mustafoyev. - Buxoro: Sadreddin Salim Buxoriy, 2023.-116 b.

**KBK 74.200.25+85.3ya73**

**Taqrizchilar:**

**Ro'ziyev D. Y.**, Buxoro davlat universiteti professori.

**Yarashev J. T.**, Buxoro davlat pedagogika instituti dotsenti,  
p.f.f.d.(PhD).

**O'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va  
innovatsiyalar vazirining 2023 –yil 17-iyuldaggi 314-sonli  
buyrug‘iga asosan nashr etishga ruxsat berilgan. 314-320**

**ISBN 978-9910-9800-4-6**

Ma'naviy barkamol inson tarbiyasi barcha davrlarda ham ahamiyatga molik bo'lgan masalalardan biridir. Jamiyatda san'at va madaniyatning rivojlanishi shu sohadagi ta'lim-tarbiya ishlarining qay darajada olib borilishidan bog'liq bo'ladi.

Yosh avlodni yetuk shaxs sifatida davr talabi asosida yuksak ma'naviyatli, jismoniy sog'lom, ona-yurtiga sadoqat ruhida tarbiyalash – jamiyatimiz oldidagi vazifalardan biridir.

Yoshlarni ma'naviy kamol topishida musiqiy-ma'rifiy bilimlarning o'rni alohida. Zero, san'at va unga bog'liq bilimlar yoshlarning hayot va uning voqeа-hodisalariga nisbatan daxldorlik tuyg'ularini shakllantirishga va rivojlantirishga xizmat qiladi. Musiqa san'ati va fani jamiyatda musiqiy-estetik madaniyat asoslarini o'zlashtirib borilishi jarayonida muhim omil sifatida ham talqin etilishi mumkin.

Mazkur o'quv qo'llanma musiqa pedagogikasi yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, musiqiy-estetik tarbiya va uning asosiy muammolari, musiqiy-estetik bilimlarning yosh avlod ma'naviy kamolotidagi ahamiyati va o'rni, jamiyat ma'naviy taraqqiyotidagi o'ziga xos jihatlari юзасидан fikr-mulohazalar bayon etilgan. O'quv qo'llanmasida ma'ruza matnlari, seminar mashg'ulotlarining taxminiy mavzulari, mustaqil ta'lim uchun topshiriqlar, adabiyotlar ro'yxati, va testlar tavsiya etiladi.

## KIRISH

Mamlakatimizda mustaqillik sharoitida milliy-ma'naviy qadriyatlarimizga bo'lgan munosabat o'zgardi. Jamiatning istiqbolli rivojlanishi – shaxsga nisbatan yanada yuksak talablarni qo'yadi, uning har tomonlama rivojlanishi, kamol topishi uchun ijodiy faollikni talab etadi. Shu munosabat bilan estetik tarbiyaning roli yanada oshdi. ijtimoiy va amaliy fanlar, jumladan musiqa madaniyati fani, san'ati va ta'limining rivojlanishi imkoniyatini yaratdi. Tarbiya tizimi, uning turlari, jumladan musiqiy-estetik tarbiya sohasiga e'tibor yanada oshdi.

Davlatimiz rahbarining 2022-yil 20-dekabr kuni Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida barcha sohalar qatori o'quv-tarbiya ishlari istiqboli belgilanib, yoshlarning san'at va madaniyat sohalariga jodiy fikrlash, jamoa bilan muloqot ko'nikmalarini tarkib toptirish muhimligi xususida fikrlar bildirildi.

Darhaqiqat, jamiatda madaniyat va san'at sohalarini yanada rivojlantirish, yoshlarni san'at, madaniyatga qiziqishini o'stirish, уларнинг estetik tarbiya hamda badiiy ta'limning pedagogik mohiyatini янада oshirish mazkur yo'nalish bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan olimlar, илғор о'qituvchi-pedagoglar hamda bo'lajak тайёрланаётган кадрларнинг компетентлик дарајаси ва kasbiy сифати билан белгиланади.

"Estetik tarbiya" тушунчаси кенг маънога эга bo'lib, olyi musiqiy-pedagogik ta'lim tizimida alohida o'rinnegallaydi. Musiqa ta'limi bakalavri o'quv, дастур rejasida "Estetik tarbiya metodikasi" tanlov fani sifatida jami 120 soat, shundan 6 soat-ma'ruza, 6 soat-amaliy, 6-soat laboratoriya va 104 soat esa mustaqil ta'lim uchun ajratilgan.

Mazkur o'quv qo'llanmada yaqindagina tashkil etilgan respublika pedagogika institutlari musiqa ta'limi yo'nalishining bo'lajak bakalavrularining estetik tarbiya metodikasi asoslarini o'rganishlariga doir masalalar tahlil etilib, bayon qilingan. Shuning uchun musiqa ta'limida estetik tarbiya metodikasini nazariy

jihatdan o'rganish maqsad sifatida belgilanib, uni amalga oshirish uchun o'quv qo'llanmada quyidagi asosiy vazifalarga e'tibor qaratildi:

- mamlakatimizda amalga oshirilib kelinayotgan ta'lismilari islohotlarini inobatga olgan holda oliy musiqa pedagogikasi ta'limida mutaxassislar tayyorlash ishlarini takomillashtirish uchun, eng avvalo qabul qilinayotgan me'yoriy, o'quv-uslubiy hujjatlar mazmun - mohiyatini tushuntirib berish;
- musiqa ta'limi sohasidagi islohotlarda estetik tarbiya masalalarining ustuvorlik mohiyatini talabalar ongiga singdirish;
- o'quvchilar musiqiy - ma'naviy rivojlanishining muhim omili sifatida estetik tarbiya tizimining ahamiyati, mazmuni va vazifalarini qayd etish;
- bo'lajak musiqa ta'limi bakalavrularini musiqa madaniyati darslari, sinfdan va maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida o'quvchilarni estetik tarbiyalash metodikasi va usullari haqida tavsiya etish.

### **Estetik tarbiya metodikasi fanining soatlar bo'yicha taqsimoti**

Nº t/r	Mavzular	ma'ruza	Semi- nar	Labora- toriya	mustaqil ta'lismi
<b>1</b>	Musiqa ta'limi sohasi islohotlarida estetik tarbiya masalalarining ustuvorligi	2	2		10
<b>2</b>	Estetik tarbiya o'quvchilar ma'naviy rivojlanishining muhim omili sifatida	2	2	2	12
<b>3</b>	Musiqa darslarida o'quvchilarni estetik tarbiyalash metodikasi va usullari	2	2	2	12
	<b>Jami</b>	<b>6</b>	<b>6</b>	<b>4</b>	<b>34</b>

## I MAVZU. MUSIQA TA'LIMI SOHASI ISLOHOTLARIDA ESTETIK TARBIYA MASALALARINING USTUVORLIGI

**Tayanch tushunchalar:** *ta'lim islohotlari, me'yoriy, o'quv-uslubiy hujjatlar, axloqiy-estetik kamolot, ta'lim-tarbiya jarayoni, ta'lim mazmuni*

### Reja:

- 1.1.Musiqiy-эстетик ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirishda me'yoriy va o'quv-uslubiy hujjatlarning ahamiyati.
- 1.2.Musiqa санъати ва фани - o'quvchilarni ақлий hamda ma'naviy rivojlanishning omili sifatida.
- 1.3.Oilada musiqiy-estetik va badiiy tarbiya
- 1.4.Estetik tarbiya masalalarini hal etishda musiqa ta'limi tizimiga oid hujjatlarning ahamiyati va o'rni.

### **1.1. Musiqiy-эстетик ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirishda me'yoriy va o'quv-uslubiy hujjatlarning ahamiyati**

Mamlakatimiz ta'lim tizimida bo'layotgan islohotlarda musiqa san'ati asarlari vositasida yoshlarni milliy va umumbashariy qadriyatlar bilan yaqindan tanishtirish, go'zallik hamda ezgulikni qadrlashni o'rgatish orqali musiqiy-estetik tarbiyalash samaradorligini takomillashtirish masalasi muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'quvchi-yoshlarning musiqiy qobiliyatlarini o'stirish, ijodiylik va va tashabbuskorlik ko'nikmalarini rivojlantirib, samarali texnologiyalarini amaliyotga tatbiq etish, musiqiy-estetik hamda axloqiy jihatdan tarbiyalash vazifasi qo'yilgan. Zero, "Jamiyat madaniyatsiz yashay olmaydi, shunday ekan, farzandlarimizni yuksak darajada axloqiy-estetik tafakkurli insonlar qilib tarbiyalash barchamizning burchimizdir"<sup>1</sup>

Мусиқа санъати эстетик тарбиянинг муҳим воситаларидан biri bo'lib, u inson ma'naviy dunyosiga emotsional ta'sir ko'rsatuvchi ulkan kuchdir.

Mustaqillik yillarida pedagogik fikr rivoji, ta'lim-tarbiya yangicha mazmun va shakl kashf etgani, bu sohada erishilgan

yutuqlar xizmat qilayotgan olim pedagoglar ilmiy pedagogik faoliyatida o'z aksini topdi. Hozirgi zamon musiqa pedagogikasi fani oldida turgan muhim muammolardan biri-ta'lim-tarbiya jarayoni sifatini oshirish hisoblanadi. Zero, musiqa ta'lim-tarbiyasi inson ma'naviy kamolotini ta'minlovchi omillardan biri bo'lib, inson tuygulariga ta'sir etish bilan kishini ma'naviy jihatdan tarbiyalaydi.

Ёш avlodni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashning tarkibiy qismiga jisman sog'lom, ma'naviy jihatdan kamol toptirish masalalarini hal qilishda musiqa madaniyati fani o'qituvchisining zimmasiga katta mas'uliyat yuklanadi. Bu esa musiqa san'ati, ta'limi va madaniyatining mamlakatimiz ravnaqi, millatimiz taraqqiyoti yo'lidagi xizmati ulkan ekanligidan dalolat beradi.

Musiqa - ijtimoiy-madaniy hayotimizda o'ziga xos o'ringa ega san'at turi sifatida inson shaxsining rivojlanishida muhim ahamiyatga egadir. Musiqa tarbiyasi-nafosat tarbiyasining asosiy qirralaridan biri bo'lib, borliq, atrofdagi go'zallikni hissiy idrok etishga, uni anglash, tushunish va munosib baholash, qadrlashga undaydi. Muhimi esa kishi ma'naviy dunyoqarashini rivojlantiradi.

Musiqa san'atining yana bir jihat uning ijtimoiy xususiyat kasb etishidir. Musiqa san'atining rivojlanish tarixini kuzatsak, azaldan musiqiy qadriyatlarimizda, kuy-qo'shiqlarda xalqning orzu-istiklari, armonlari o'z ifodasini topganligini, ijodiy san'at namunalari xalqimizning ma'naviyati, ma'rifati va manfaati uchun muhim vosita sifatida xizmat qilishini anglashimiz mumkin.

Musiqa san'ati musiqiy estetik va estetik tarbiyda vosita sifatida amaliyotda sinovdan o'tgan. Musiqaning bolalar hayotidagi o'rni va ahamiyati shundaki, ularni musiqiy-estetik va axloqiy ma'naviy jihatdan tarbiyalaydi, mustaqil ijodiy fikrlashga qobiliyatli shaxsning kamol topishi uchun, ma'naviy asos yaratadi, psihologik rivojlanishi uchun juda zarur bo'lgan, bilishning faol emotSIONAL-ijodiy shaklini egallahsga katta yordam beradi. Bolalarning musiqiy tarbiyasini amalga oshirish uchun ularga

nazariy ma'lumot va bilimlar berish bilan boshlanib, keyin ijrochilik, musiqiy ijodkorlik faoliyatları orqali tajriba orttirilib, rivojlantirib boriladi. Bu borada talay ishlar qilingan va amalga oshirib borilmoqda. Ammo, yosh avlodni san'at vositasida estetik tarbiyalash doimiy e'tibordagi eng muhim masalalaridan biri bo'lib qolmoqda.

Jamiyatimizning ma'naviy taraqqiyotida yoshlарimizning estetik madaniyat sohibi, nozik tabiat, yuksak did va pokiza axloqqa ega bo'lgan insonlar sifatida kamol topishlarini taqozo etadi. Buning uchun ko'lamli ta'lim islohotlari yoshlарimizni xorijdagi tengdoshlari bilan ilm-fan, madaniyat, tadbirkorlik, sport va boshqa sohalarga faol muloqotda bo'lishi, ularning o'z salohiyatini dunyo miqyosida namoyon etish uchun katta imkoniyat yaratilmoqda. Ayniqsa, milliy musiqa san'ati, ta'limi va ijrochiligini yanada rivojlantirish, musiqa madaniyati fanidan bakalavrlar, magistrlar tayyorlash, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy va shaxsiy sifatlarini tarbiyalash maqsadida muhim qarorlar qabul qilindi. Jumladan, 2017yil 17-noyabrdagi milliy maqom san'atini yanada rivojlantirishga doir PQ-3391-sonli qarorda1 o'zbek milliy maqom san'ati markazining asosiy vazifalari etib xalqimiz, xususan, yosh avlodni milliy maqom san'ati bilan keng tanishtirish orqali ularda o'zlikni anglash tuyg'usi, yuksak badiiy-estetik did va tafakkurni kamol toptirish, "Ustoz-shogird" maktabi an'analarini yanada rivojlantirish vazifasi qo'yildi<sup>1</sup>. Qarorga binoan Shaxrisabz shahrida 2018 yilning 6-10-sentabr kunlari o'tkazilgan Xalqaro maqom san'ati anjumanida Prezidentimiz so'zlagan nutqida milliy maqom ohanglari, falsafasi har bir yeishi qalbidan, ayniqsa o'sib kelayotgan yosh avlod yuragidan munosib o'rin olishi zarurligini ta'kidlab, asl, haqiqiy san'atni o'rganish uchun mumtoz maqom san'atini, uni tinglash

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17 noyabrdagi "O'zbekiston milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora- tadbirlari to'g'risida" PQ - 3391-sonli qarori // "Xalq so'zi" gazetasi. 2017. - 18-noyabr

madaniyatini o'rganish lozimligi, san'at, madaniyat targ'ibotini kuchaytirish lozimligi e'tirof etildi<sup>1</sup>.

2020-yil 27-fevraldagi pedagogik ta'lif sohasini yanada rivojlantirishga bag'ishlangan PQ-4623-sonli qarori asosida oliy pedagogik ta'lif tizimida mutaxassis-o'qituvchilar tayyorlash ishi yanada takomillashtirildi. Amaliy fanlarni o'qitish bu yo'nalishda bo'lajak mutaxassislarini tayyorlash borasida oliy ta'lif muassasalarida aloqasi bo'limgan fanlar 2 baravarga qisqartirilib, musiqiy ta'lif tasviriy san'at va texnologiya ta'limi, jismoniy madaniyat, chaqiriqqacha harbiy ta'lif hamda maktabgacha va boshlang'ich ta'lifda jismoniy tarbiya va sport yo'nalishlari bo'yicha 3 yillik bakalavrlik ta'limi joriy etildi.

Maktabda amaliy fanlar o'qitilishiga e'tibor kuchaytirilib, musiqa ta'limi, tasviriy san'at, texnologiya, jismoniy madaniyat, boshlang'ich harbiy ta'lif, maktabgacha va boshlang'ich ta'lif tizimi uchun jismoniy tarbiya bakalavrlarini tayyorlash ishlariga faol kirishildi.

Zamonaviy ta'lif sohasida pedagogik va axborot texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalarini o'zlashtirgan ega, mamlakatimizda ijtimoiy- madaniy rivojlantirishda munosib hissa qo'sha oladigan oliy malakali mutaxassislar, pedagog kadrlar tayyorlash ishiga e'tibor va talab yanada kuchaytirilgi. Oliy ta'lif tizimida keng qo'llanilayotgan o'quv-modul tizimi, reyting asosida baholash, talabalarning mustaqil ta'lif olishlari uchun keng imkoniyat yaratib berilgan.

Ta'lif-tarbiya sohasini kirib kelayotgan yangilanishlar, uning tuzilishi, mazmuni, tuzilishi, usullarini ko'rib chiqish, amaliyatga faol singdirish ehtiyojini bildirmoqda. Islohotlar mazmun-mohiyatida "...o'quv dasturlari shaxsni har tomonlama kamol toptirishda, ta'lif oluvchilarda bilim, malaka, ko'nikmalarni, saviyani shakllantirishda va ularning qobiliyatini

---

<sup>1</sup> Prezident Shavkat Mirziyoyevning "Xalqaro maqom san'ati anjumani" ning ochilish marosimidagi nutqi". "Xalq so'zi". 2018 yil. 7-sentabr.

rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi kerak"<sup>1</sup>ligi alohida ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentinin 2022-yil 2-fevral PQ-112-sonli Qarorida 2022-2023 o'quv yilidan boshlab ta'lif muassasalarida o'quvchi va talabalar nnig ongi va qalbida milliy madaniyatimizga bo'lgan

mehrni oshirish, yosh iste'dod sohiblarini tanlash, san'atini qadrlash, ularni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish belgilandi. Xususan, o'rta ta'lif muassasalarida o'quvchilarni milliy sozlarga qiziqtirish, kamida bittasida chalish ko'nikmalarini shakllantirish va bu haqda shahodatnomaga tegishli qayd kiritilishi, shuningdek, fakultativ mashg'ulotlar o'tkazilishi belgilandi. Mazkur qarorga asosan musiqa o'qituvchilari uchun kasbiy mahoratini oshirish maqsadida 2023-2024 o'quv yilidan boshlab esa kamida uchtasida milliy sozda ijro malakalarini o'zlashtirish vazifa qilib qo'yildi.

Qarorda shuningdek, milliy musiqa cholg'ularini chalishda mahoratga ega bo'lgan o'qituvchilar moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlashga, o'rindosh asosida qo'shimcha pedagogik ish bilan ta'minlashi belgilab qo'yildi. Shuningdek, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va oliy ta'lif tashkilotlari bilan hamkorlikda lektoriy konsertlarni o'tkazish, Davlat mukofotlari bilan taqdirlangan ijodkorlar rahbarligida "mahorat maktablari" tashkil etish ishlari rejalashtirildi. Umumiyl o'rta ta'lif muassasalari, bolalar musiqa va san'at maktablari, madaniyat markazlarini milliy musiqa cholg'ulari to'plamlari bilan ta'minlanishi, har yili o'quvchilar va talabalar o'rtasida madaniyat, san'at sohasidagi respublika ko'rik-tanlovlari tashkil etilishi yo'lga qo'yildi.

---

<sup>1</sup> Ta'lif to'g'risidagi qonun. Toshkent. 2020. -B. 20.

## **1.2. Musiqa san'atu-o'quvchilarni intellektual hamda ma'naviy jihatdan rivojlantirishning omili sifatida.**

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining "Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar" deb nomlangan IX - bob 41 – moddasida "Har kim bilim olish huquqiga ega", 42- moddasida esa "Har kimga ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi"- deb yozilgan.

Yosh avlodni milliy va umumbashariy musiqiy qadriyatlar, jahon madaniyati yutuqlari bilan tanishtirish, ularda san'at go'zalligiga munosabat tuyg'usini shakllantirish, estetik ehtiyoj va didni rivojlantirish, takomillashtirishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Xalq ta'limi sohasida o'qitish sifat-samaradorligini rivojlantirish, zamonaviy muqobil yondashuvlarni doir amaliy xususiyatlarga doir ilmiy izlanishlarni takomillashtirish, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishga e'tiborni kuchaytirish kabi vazifalar<sup>1</sup> belgilab qo'yilgan. Bu esa, musiqa madaniyati va boshqa san'at darslarida san'at pedagogikasi texnologiyalarni tatbiq etishning o'ziga xos jihatlari mohiyatini chuqur idrok etish,o'quvchilarni san'at vositasida aqliy hamda ma'naviy jihatdan rivojlantirish imkoniyatlari hamda pedagogik shart-sharoitlaridan samarali foydalanishga erishishda musiqa madaniyati o'qituvchisiga muhim omil sifatida xizmat qiladi.<sup>1</sup>

Shuning uchun ham bolalarni yoshligidanoq milliy xalq cholg'u asboblari bilan tanishtirish, ularning tarixi bilan bog'liq qiziqarli, mazmunli ma'lumotlarni berish, mahalliy ijrochilik uslublari, musiqa san'atining folklor, maqom, mumtoz kuy-qo'shiqlaridan namunalarni tinglash va kuylashga o'rgatish orqali, ularning intellektual-ijodiy iste'dodini, musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadida ta'lim sifatini yanada takomillashtirish,

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi «O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-5712-sonli Farmoni. – Qonun hujatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 06/19/5712/3034-son, 29.04.2019 y.

umuminsoniy-milliy qadriyatlar asosida musiqiy-estetik tarbiyalash dolzARB masalalaridan biri bo'lib qolmoqda.

Jahon musiqa pedagogikasi tajribasida musiqa va san'at bilan shug'ullanish bolalarni intellektual hamda ma'naviy rivojlantirishning eng muhim va hal qiluvchi yo'naliшlaridan biri ekanligi asoslangan. Bunda ayniqsa bolalar musiqa va san'at maktablari o'quvchilarining faoliyati yetakchi ahamiyatga ega. O'quvchilarining ijrochilik malakalarini, musiqiy qobiliyatini keng targ'ib qilish va munosib rag'batlantirish maqsadida "Ona yurt ohanglari", "Yagonasan, muqaddas Vatan", "Akademik va estrada ijrochiligi", "San'at g'unchalari" kabi ko'rik-tanlovlari, "Kamalak yulduzлari" bolalar ijodiyoti festivali, "Navro'z sadolari" milliy cholg'u ansamblari va orkestrlar festivallarining muntazam ravishda o'tkazilayotganligi yosh iste'dod egalarining kamol topishi va elga tanilishiga xizmat qilmoqda.

Bolalar musiqa va san'at maktablarida bilim berish bilan pedagogik jarayon chegaralanib qolmay, balki ularning ruhiy, ma'naviy-axloqiy va musiqiy-estetik tarbiya asoslaridan bahramand qilish nazarda tutilgan. Binobarin, yoshlarning musiqiy-estetik jihatdan kamol topishida shonli tariximiz, maorif, madaniyatimiz, musiqiy meros va qadriyatlarimiz, mohiyatini yanada teran mushohada, tahlil, xulosalar qilib, hayotda tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Umumiy o'rta ta'lIM muassasalarida musiqa madaniyati fanini o'qitishning oldiga esa - musiqa madaniyati o'quv fani bo'yicha egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini amaliyotda qo'llash orqali ularda kuzatuvchanlikni, musiqiy xotirani, obrazli tasavvur qilishni, ijodkorlikni, tashabbuskorlikni, badiiy - musiqiy didni rivojlantirish hamda fikr doirasini kengaytirish, o'zbek va jahon kompozitorlari asarlarini va turli musiqiy janrlarni bir-biridan farqlay olish, tayanch va umumiy kompetensiyalarini shakllantirish hamda rivojlantirish kabi vazifalar qo'yildi.

Yosh avlod aqliy va ma'naviy rivojlanishlarida, umumiy o'rta ta'lIM muassasalari musiqa ta'limi mazmun-ahamiyatini

oshirish samaradorligini ta'minlashda davlat ta'lim standartining ahamiyati katta. "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlashga doir 2017-yil 6-aprelda qabul qilingan 187-sonli qarori<sup>1</sup>da mактабда boshlang'ich ta'limning muhim jihatlaridan biri - o'quvchilarda musiqiy savodxonlik malakalarini shakllantirishdan iboratligi e'tirof etildi. Mактаб musiqa madaniyati ta'limiga taalluqli musiqa savodi malakalari mustahkam darajada ta'minlanishi lozimki, o'quvchilar ongi va shuurida uzoq vaqt saqlanib qolsin, ular mavjud musiqiy bilim, malaka va ko'nikmalardan kundalik faoliyatda qo'llay olishsin. Musiqiy qobiliyat deganda, musiqiy tuyg'uga ega bo'lib, musiqa asarlari obrazlarini tasavvuriga his etish, ijro faoliyati yordamida badiiy ifodalay olish ko'nikmasidir. Shuni ta'kidlash o'rинлики, o'quvchilardagi musiqa qobiliyatlarning rivojlanishiga istalgan badiiy faoliyat ta'sir ko'rsata olishi muhim. O'quvchilar bilan o'zaro muloqotda bo'ladigan, o'qituvchi o'quvchini bilish borasidagi faoliyatida psixik xususiyatlarni inobatga olib pedagogik vositalar bilan faollashtira borishi, musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam berishi lozim.

Davlat ta'lim standartiga fanga oid kompetensiyalar bilan birga kommunikativ, axborot bilan ishslash, o'z-o'zini rivojlantirish, ijtimoiy faolfuqarolik, milliy va umummadaniy, qadriyatlarni anglash kabi tayanch kompetensiyalar elementlari ham kiritildi. Endilikda kompetentlikka yo'naltirilgan darslarni tashkil etish va uning texnologik xaritasini tuzish o'qituvchidan kasbiy mahoratni talab etadi. O'quvchilar layoqatini rivojlantirish esa o'qituvchidan dars va sinfdan tashqari musiqiy faoliyatlarni mazmunli tashkil etish jarayoni pedagogik boshqara olish mahoratini talab qo'yiladi. Musiqa ta'limi sohasida o'z echimini kutayotgan muammolarni o'rganib, taxlil etish, ta'lim istiqbolini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

---

<sup>1</sup> "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida" gi 187-sonli qarori. (Musiqa madaniyati fanidan Davlat ta'lim standarti). 2017 y. 6-aprel.

Ta'kidlash joizki, o'quvchi-yoshlar musiqiy-estetik tarbiyasining yana bir shakli - bu sinfdan va mакtabdan tashqari ishlar bo'lib, o'quvchilarning musiqiy san'at bilan yanada kengroq tanishishlari uchun shart-sharoit va imkoniyat beriladi. Ayniqsa, ta'limni isloh qilishni takomillashtirishda maxsus bolalar musiqa va san'at maktablari o'quvchilarining ma'naviyatini, mustaqil, erkin fikrlash ko'nikmasini rivojlantirish, dolzarb pedagogik muammosi sifatida namoyon bo'lmoqda.

Maktabdan tashqari ushu ta'lim muassasalarida o'quvchilar maxsus musiqa ta'limini olishadi. Ularga milliy va Evropa musiqa asboblarini chalish o'rgatiladi, musiqani his etish, tinglash qobiliyati, estetik didi rivojlantirib boriladi. Musiqa San'atmga doir nazariy bilim, amaliy malaka va ko'nikmalar shakllantiriladi. Musiqa san'ati sohasida mutaxassis bo'lmoqchi bo'lgan yoshlar esa keyingi bosqich o'rta-maxsus va oliy musiqa ta'limi muassasalariga kirib saboq olishlari o'z badiiy iste'dodini rivojlantirishlari uchun sa'y-harakatlar amalga oshirishadi. Bugungi kunda yoshlar umumta'lim maktablaridagi musiqa madaniyati darslari barobarida bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish maqsadida "Barkamol avlod bolalar maktablarida, musiqa to'garaklarida, studiyalarda, madaniyat uylari, badiiy havaskorlik to'garaklarida ham musiqiy- estetik va axloqiy tarbiya olmoqdalar.

Musiqa va san'at maktabi o'quvchilarining musiqaga iqtidori, san'atga moyilligi, o'ta ta'sirlanuvchanligi sezilib, turadi. Bolalarning musiqiy tarbiyasi, ularning tug'ma iste'dodining rivojlanishi, musiqiy-estetik, axloqiy jihatdan rivojlanishi ularning iste'dodini rivojlantirishning samarali vositasi, o'zligini namoyon qilishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Ko'rinish turibdiki, maktabdan tashqari ta'lim tizimida musiqa va san'at bilan shug'ullanish yosh avlodni intellektual hamda ma'naviy rivojlantirishning eng muhim va hal qiluvchi yo'naliishlaridan biri hisoblanadi. Axloqiy-estetik tarbiya tizimida ommaviy bo'g'in bo'lgan musiqa va san'at maktablarida musiqa ta'limining tutgan o'rni katta bo'lib, ularda ta'lim olayotgan

o'quvchilar cholg'u asboblarini chalish, ashula aytish, xor va ansambllarda jamoa bo'lib ashula aytish, rasm chizish ko'nikmalarini egallaydilar, mumtoz musiqa namunalari bilan tanishadilar, san'atdagi haqiqiy go'zallikni sevish, tushunish va qadrlashni o'rganadigan, fikrlash darajalarini kengaytiradilar. Musiqa san'ati yosh avlodning yuksak ma'naviy kamol topishiga kuchli vosita sifatidagi ta'sirining e'tirofi beziz emas.

Maktabdan tashqari ta'lim tizimidagi "Barkamol avlod bolalar ijodiyot maktablari ham o'quvchi-yoshlarni musiqiy-estetik tarbiyasini amalga oshirishda ta'lim-tarbiya bo'g'ini sifatida alohida o'rinni tutadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-sentabrdagi PQ-4467 sonli "Xalq ta'limi tizimidagi maktabdan tashqari ta'lim samaradorligini tubdan oshirish chora tadbirlariga doir qabul qilinishi nihoyatda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Qarorga binoan "Barkamol bolalar" bolalar markazlari negizida "Barkamol avlod" bolalar maktabi tashkil etildi.

O'quvchilarning maktabdan va sinfdan tashqari ishlarda jalg' qilinishi, ularning qiziqishlarini rivojlantirib, ma'naviy ehtiyojga aylanishiga imkoniyat yaratadi. Pedagoglar va jamoat tashkilotlari o'quvchilar bilan shug'ullana turib, ularni bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishda musiqaga ko'proq yaqinlashtirish, musiqiy va ijodiy faoliyotni shakllantirish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Bunda sinfdan va maktabdan tashqari marifiy-ma'naviy tadbir (mashhur san'atkorlar, sozanda va xonandalar bilan uchrashuvlar, konsert va hokazo) larning barchasi o'quvchilarni estetik tarbiyalashga, ularning musiqiy qiziqish, did va ehtiyojlarini shakllantirishga imkon beradi.

O'quvchi-yoshlar badiiy iste'dodini o'stirish va madaniy darajasini oshirish, ularning musiqiy-estetik madaniyati asoslarini tarkib toptirishda maktabdan tashqari badiiy ta'lim muassasalarining o'rni alohida. Ayniqsa, mazkur tizimga oid 2008-yil 8-iyulda qabul qilingan PQ-910-tonli "Bolalar musika va san'at maktablarining faoliyatini yanada yaxshilashga doir qaror mohiyati-e'tibori bilan mamlakatimizda boshlang'ich maxsus musiqiy ta'lim tizimini tubdan takomillashtirishni nazarda tutgan

bo'lib, Respublikada 136 ta yangi bolalar musiqa va san'at mifikalarini qurish, 142 ta musiqa maktabini esa mukammal ta'mirlash lozimligi belgilandi. Maktablarni bugungi kun talablaridan kelib chiqqan holda musiqa cholg'ulari, o'kuv va musiqa uskunalarini bilan jihozlashga alohida e'tibor berildi.

Muhimi Dasturda hozirgi vaqtida bolalarni musiqiy ta'lif va san'atga jalb etish majburiy emasligidan kelib chiqilgan holda, o'quv jarayonlari orqali ularning umumiyligi madaniyati va intellektual saviyasi va estetik tuyg'ularini rivojlantirish masalasi muhimligi o'z ifodasini topdi.

Jahon tajribasi shundan dalolat beradiki, musiqa va san'at bilan shug'ullanish bolalarni intellektual hamda ma'naviy rivojlantirishning eng muhim va hal qiluvchi yo'nalishlaridan biri hisoblanib, istiqlolimizning ilk yillaridan ushbu masalaga g'oyat jiddiy e'tibor berib kelinmoqda. Buni Dasturda belgilangan tadbirlarni amalga oshirish uchun ko'zda tutilgan katta miqdordagi mablag'lar uning ko'lami nechog'lik kengligidan ham bilish mumkin. Qaror ijrosini ta'minlash maqsadida 2009-2014-yillar mobaynida 355 milliard so'mdan ortiq, jumladan musiqa va san'at maktablarini qurish va kapital rekonstruksiya qilish uchun 240 milliard, ularni musiqa asboblari, uskunalarini va inventarlar bilan ta'minlash uchun esa 115 milliard so'm yo'naltirildi. Musiqa va san'at maktablarini nafaqat viloyatlar markazlarida, balki eng avvalo qishloqlarda bolalarning yashash joylariga imkon qadar yaqin bo'lishiga aloxida e'tibor qaratildi.

O'ziga xos xususiyatlarini, ta'lif oladigan o'quvchilar kontingenti asosida maktablar 200 va 150 nafar bolaga mo'ljallandi. Namunaviy loyihalarda musiqa va xonandalik bilan yakka tartibda hamda guruh bo'lib shug'ullanish uchun ixtisoslashgan sinflar xoreografiya, milliy raqs, rassomlik, haykaltaroshlik sinflari, kompyuter grafikasi kabi zamonaviy san'at turlari bilan shug'ullanish uchun o'quv xonalari, ganch va yog'och o'ymakorligi, kandakorlik, zardo'zlik makrame tayyorlash bo'yicha kuplab milliy amaliy san'at ustaxonalarini qurib foydalanishga topshirildi.

Bundan tashqari musiqa va san'at mакtablarida yosh avlodni barkamol rivojlantirish maqsadida axborot-resurs markazlari, nazariy mashg'ulotlar sinflari, ma'naviyat va ma'rifat xonalari ham bunyod etildi.

Tabiiyki, zamonaviy jihozlangan maktablarni yuksak malakali pedagog kadrlar va mutaxassislar bilan ta'minlash muhim masala. Shu bois, mutaxassislarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish chora-tadbirlar ham amalga oshirildi. Dasturda ko'rsatilgan muhim jihatlar amalga oshirildi. Ushbu qaror yosh avlod iste'dodi va qobiyatini rivojlantirish, ularda milliy va jahon musiqa hamda tasviriy san'at asarlari bilan tanishish orqali o'zbek san'atini va ijrochilik madaniyatini dunyoga olib chiqishga xizmat qilmoqda.

2015-yilning 20-noyabrida yana bir hujjat qabul qilindi. Unda bolalar musiqa va san'at maktablari faoliyatini yanada takomillashtirish ga doir 2016- 2020 yillarga mo'ljallangan Davlat dasturini amalga oshirish masalasiga bag'ishlandi. Mazkur hujjat bu boradagi ishlar ko'lamini yanada kengaytirish va yangi bosqichda davom ettirishda muhim omil bo'ldi. Dasturga muvofiq 2016-2020-yillarda 14 ming 700 o'rinni 98 ta maxsus musiqa maktabini barpo etish belgilandi. Qarorga asosan, musiqa va san'at mакtabiga to'lanadigan badal puli birmuncha arzonlashtirildi. Mamlakat va xalqaro tanlovlardan g'oliblari bepul o'qitilishi belgilandi. Bularning barchasi kelajagimiz egalarini har jihatdan etuk insonlar etib tarbiyalashga qaratilgan ezgu sa'y-harakatlardir.

Yosh avlodning musiqiy iste'dodi va madaniyatini yuksaltirish, ularda musiqiy-estetik va axloqiy sifatlarni tarbiyalash maqsadida mamlakatimizning har bir shahar va tumanida faoliyat ko'rsatayotgan musiqa va san'at mакtablarida shart-sharoit hamda imkoniyatlarning yaratilishi birinchidan, bolalarda kuy-qo'shiqqa, san'atga muhabbat uyg'otib, ularda cholg'uchilik, ijrochilik kabi bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirsa, ikkinchidan, musiqa san'ati asosida o'quvchi shaxsining musiqiy-estetik madaniyati asoslarini tarkib toptirish,

axloqiy sifatlarini tarbiyalashga, ularda vatanparvarlik tuyg'ularini rivojlantirishga qaratilgandir.

Zamonaviy musiqa va san'at mакtablarida o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish va pedagogik boshqarishni shunday yo'lga qo'yish kerakki, bolalar mazkur ta'lim maskaniga ishtyoq qiziqish va zavq-shavq bilan kelib-ketishsin.. Tartib-odobda o'rnak bo'lib, maxsus musiqiy fanlarni a'lo baholarga o'zlashtirishsin. Cholg'u asboblarida ijro mahorati asoslari egallab, ma'nан va jismonan yetuk, mustaqil, ijodiy fikrlovchi, xohish-istagiga ko'ra san'at sohasiga o'qishini davom ettiradigan, kasbiga ishtyoqi baland mutaxassis bo'lib yetishishsin.

Musiqa va san'at mакtablarida o'quv-tarbiya jarayonidagi muhim jihat- umumta'lim maktablari o'quvchilarini iste'dod-qobiliyati, xoxish-istiklari, qiziqish va musiqiy ehtiyojini hisobga olgan holda, musiqa va san'at maktablari faoliyatiga jalb qilishdan iboratdir.

Musiqa va san'at mакtablarida o'quvchilarining musiqiy-estetik va axloqiy jihatdan tarbiyalanishiga, musiqiy didi, umumiy musiqiy saviyasining shakllanishiga imkon beradigan maxsus fanlardan saboq oladilar.

Musiqa va san'at maktablari o'quvchilarining axloqiy-estetik shakllantirishda musiqa nihoyatda katta o'rin tutishi, shubhasiz. Zero, musiqa bolaning ruhiy olamiga eng kuchli ta'sir ko'rsatuvchi san'at turlaridan biridir. Musiqa - bolalar his-tuyg'u va ruhiy holatlarining eng nozik jihatlarini o'zida ifoda etadi va shu orqali bolaning ichki olamiga chuqur ta'sir ko'rsatadi.

Musiqa va san'at maktablari o'qituvchisining vazifalaridan biri yoshlarda axloqiy-estetik his-tuyg'ular tarkib toptirishdan iborat. Bu vazifa musiqiy asarlarni o'rganish jarayonida amalga oshiriladi. Musiqiy asarlar bolalarga hayot haqida o'ylashga va uni chuqurroq tushunishga yordam beradi. O'quvchilar tomonidan musiqiy asarni ongli- emotsiyonal darajada o'zlashtirish bosqichidan keyingi jarayonlarda ham ahamiyatga molik bo'ladi.

Musiqa va san'at maktablari o'quvchilarining axloqiy va musiqiy-estetik his-tuyg'ularni milliy-musiqiy ohanglar va kuylari

orqali yanada mukammalroq singdirib borish imkoniyatiga ega. Chunki musiqa ta’limini amalga oshiruvchi maxsus musiqa va san’at maktabi‘quvchilarning ichki va tashqi olami go‘zal bo‘lishi, milliy musiqiy ta’lim-tarbiya ishlarining qay darajada to‘g‘ri hal etilayotganligiga bog‘likdir.

Bolalarning musiqa san’atiga bo‘lgan istedodi, qobiliyatlari darajasida o‘rganilayotganda pedagogik-psihologik xususiyatlari bilan birga biologik, jismoniy rivojlanish imkoniyatlari rivojlantirish imkoniyatliri va qonuniyatlari kabi eng muhim nazariy masalalarни ham e’tibordan chetda qoldirmaslik lozim.

Xullas, umumiy o‘rta ta’lim va maktabdan tashqari ta’lim muassasalari, jumladan “Bolalar musiqa va san’at maktablari”da o‘quvchilarning musiqa va san’at, badiiy ijodiyot bilan shug‘ullanishlari ularni aqliy hamda ma’naviy-axloqiy jihatdan kamol topishlari uchun muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Bu esa mamlakatimizda musiqa ta’limi, san’at rivoji alohida e’tiborda ekanligidan dalolat beradi.

### **1.3. Oilada musiqiy-estetik va badiiy tarbiya**

Yosh avlodni jamiyatning yuksak darajada axloqli, ma’lumotli, madaniyatli kishilari bo‘lib etishishida oila tarbiyasi ham o‘z o‘rniga ega. Oila ijtimoiy tarbiya o‘chogi sifatida o‘z a’zolari, jumladan unda tarbiyalanayotgan bolaning ruhiyati va ma’naviyatiga ta’sir etadi. Insoniylikka oid ilk sabog'lardan bola oilasi muhitida bahramand bo‘ladi, o‘rganib boradi.

Zero, bola tarbiyasining dastlab oilada, o‘z ota-onasining bag‘rida shakllanib borishi ko‘p jihatdan oiladagi muhitga, kattalarning bolani tarbiysiga bo‘lgan e’tibor va munosabati, ota-onaning tarbiyachilik mas’uliyatini yanada oshiradi.

Oilada farzand tarbiyasiga jiddiy e’tibor beruvchi ota-ona bolasining aql-idrokli, did-farosatli, ziyrak, nafosatni, san’atni tushunadigan, madaniyatli inson bo‘lib voyaga etishini istaydi. Bola shaxsini tarkib toptirish esa, albatta oiladan boshlanadi. Bolada fe'l- atvor, xulq-odob, iroda, atrof-muhitga munosabat, e’tiqod va qarashlar vujudga keladi.

Bola tarbiyasida uning oiladagi vaqtini taqsimlash muhim rol o'ynaydi. Oilada o'yin, mehnat va o'qish faoliyatları bilan birga bolaning ma'naviy jihatdan rivojlanishi uchun musiqiy va badiiy manbalarni o'rgatilishiga ham alohida e'tibor qaratish muhimdir. Binobarin, jismoniy, aqliy, axloqiy, estetik tarbiya asosida shakllanadi, dunyoqarashini boyitib, san'atni idrok etish va munosib baholay olish, undan zavqlanish sifatlarini rivojlantirib borish maqsadga muvofiqdir.

Oilada bolalarni musiqiy tarbiyalashda tabiat muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Bolalarning jonli tabiat, uning go'zalliklari bilan aloqasi ularda tabiatning o'ziga xos ohangi borligi, undan ta'sirlanish esa go'zallik tuyg'usini rivojlantiradi. Bolalar va o'smirlar tabiat bilan asta-sekin tanisha borib ayni vaqtda uning musiqiy ekanligini ham biladilar. Jonli tabiat tabiiy ohanglari - o'ziga xos ohang bo'lib, u kushlar sayrashi, shamol esishi, barglar shivirlashi, daryo to'lqinlarining qirg'oqqa urilishidan dunyoga keladi

Badiiy ma'lumot ta'llim- tarbiya bola shaxsini shakllanishida, uning estetik qarashlarida va san'at olamini his qilishida muhim rol o'ynaydi. Go'zallikni his qilish badiiy did orqali amalga oshadi. Badiiy tarbiya vositasida bolada musiqa san'ati asarlariga nisbatan kuchli qiziqishlarni vujudga keltirish mumkin. Shuni ham ta'kidlash o'rinniki, qiziqish ehtiyoj bilan chambarchas uzviy bog'langan. Bilimga bo'lgan ehtiyojni qiziqishdan boshlanadi. Bola san'at asarini qanchalik chuqur anglab, o'zlashtirishga qiziqishi oshsa ehtiyojlik darajasi shunchalar yuqori bo'ladi.

Badiiy qiziqish va ehtiyojning bunday aloqadorligi bolada yuksak emotsiyonal munosabalarni shakllantiradi. Xususan, san'atga nisbatan badiiy ehtiyoji tarkib toptirmasdan to'laqonli badiiy tarbiyani amalga oshirish qiyin. Chunki, bolada san'at asarini to'g'ri idrok etishga uning emotsiyonal munosabati yordam beradi.

Badiiy tarbiya berish vazifasi faqat maktab uchun emas, balki oilada ham birdek zarurdir. Oilaviy munosabatlarda aliiy tarbiya jarayoniga oila boshliqlari, ota-onaning ma'lumoti, kasb- hunari,

bilim saviyasi, badiiy dunyoqarashi, ma'naviy olami muhim rol o'ynaydi.

Ruhshunos olimlar oilada bola shaxsini shakllantirish ma'naviy olamini boyitish jarayoni - bu oiladagi o'zaro hurmat va e'tibor, hamjihatlik hamda ota-onaning bolalariga bo'lgan g'amxo'rligi va talabchanligining samarasi, - deb qayd etishadi.

Oila davrasida bolalarga ularning yoshiga mos shoirlarimiz she'rlaridan, yozuvchilarimiz asarlaridan, ertak va dostonlardan o'qib berib badiiy adabiyotga, musiqa san'atiga e'tibor-ixlosi baland, milliy va zamonaviy qo'shiqlarqa havasmand bo'lsa, farzandlari ham qiziqish uyg'otishi mumkin. Ota-onalar farzandlarini murg'ak kalbini musiqaning sehrli olami bilan oshno qilishsa bu sa'y-harakat albatta kelajakda o'z samarasini beradi.

Badiiy ijod, san'atni qadrlagan ma'rifatli oilada voyaga etgan farzandlar, albatta o'zi tanlagan sohada qobiliyatli, yetuk mutaxassis bo'lib yetishishi kuzatilgan. Bu oiladagi bola kamolotida badiiy tarbiyaning o'rni muhimligini tasdiqlaydi.

Badiiy tarbiya san'at asarining mohiyatini to'g'ri anglab etishdan boshlanadi. Shunga ko'ra bolaga she'riyatning, musiqaning, ayniqsa milliy qo'shiqlarning mazmun-mohiyatini tushuntira olish, undagi o'ziga xos tomonlarni bola ko'z o'ngida gavdalantira bilish lozim. Bolaga badiiy tarbiya berishda quyidagilarga ahamiyat berish maqsadga muvofiq:

1. Bolani badiiy ijod namunalari-she'riyat, musiqa san'atiga qiziqtirish
2. Musiqiy asarlarni tinglash, idrok etish jarayonlarida bolaning qobiliyati va badiiy qiziqishlarini o'stirish
3. Qo'shiq tinglashda uning mazmuni, g'oyasi, badiiy so'z va musiqaning o'zaro bog'liqligiga e'tibor berish.
4. Bola tomonidan musiqani, qo'shmjni o'rganish jarayoniga musiqiy-ijodiy faoliyat sifatida qarash.

Shuni ta'kidlash joizki, bolalarda badiiy bilimlarni egallashda ota-onalarning samarali ishtirok etishlari oilada badiiy tarbiya

ishini samarali amalga oshirishning zarur sharti sifatida ham muhimdir. Oilada bolani yoshligidan milliy qadriyatlarimiz, musiqiy, she'riy asarlar, tasviriy san'at haqida tushuntirib borilsa, maktab yoshiga kelib ancha ma'lumotlarga ega bo'ladi. Bolaga ovqatlanish, o'ynash mahalida milliy musiqa asarlari eshittirilib borish maqsadga muvofiq. Hatto mumtoz shoirlarimiz ishlatgan so'zlardan ayrimlarini o'rgatib borish ham foydadan xoli emas. Bolalar oilada badiiy ijodiyot namunalarini sevib tinglaydigan hamda ularning ma'nosidan bahramand bo'lib tarbiyalanadilar.

Bola ulg'aygan sari oilasida turli urf-odat, marosim, an'ana, tuy-xasham, tantanalarda xizmat qiladigan xonanda-sozandalar san'ati uning musikiy taassuroti hamda idrokini rivojlantirib boradi. Bola uyda estetik jihatdan tug'ri tarbiyalansa, uning badiiy ijodga kobiliyatini erta aniklash va yanada rivojlantirish mumkin buladi. San'atdan bahramand bo'lish, undan zavq olish, samimiylilik sifatlari-xushfe'llik, odamlarga nisbatan e'tibor, mehribonlikni tarbiyalasa, qo'pollikka, razillikka murosasizlik tuyg'ularini uyg'otadi. Musikaga oshno o'sgan bola qalbida ijodkorlik, atrof-muhit odamlarga nisbatan hurmat xislatlari anchayin ijobiy rivojlanishi ruxshunos olimlarning tadqiqotlarida isbotlangan.

Bolaning har kunlik tarbiyasida musiqaga qanchalik ko'p o'rin ajratilsa. uning zerikmasligi hamda faol bo'lishi tajribada kuzatilgan. Musiqa bolaning tinglash hamda san'atdagi go'zallikni his qilish qobiliyatlarini o'stirib nafislikka, poklikka, nazokatga o'rgatadi. Unga qiziqqan bolada ijodkorlik, bunyodkorlik, tashabbuskorlik sifatlari rivojlanadi. Shuni aytish lozimki, keyingi paytlarda ayrim oilalarda to'y marosimlarda musiqiy saviyasi turli darajadagi san'atkirlarni xizmatga taklif etib, ular ijo san'ati video tasmalar, disklarga yozdirib olinib, tomosha qilishni odat qilishgan. Tuy-tomoshalarda ishlatilayotgan elektron cholg'ular tovushiga berilib qolib, milliy cholg'u, an'anaviy ijrochilik hamda xalq san'atiga bepisand nazar bilan qarayotgan ayrim yoshlarni tarbiyalanayotganini ko'rish mumkin.

Musiqa san'atining vazifasi - bolalar va o'smirlarning ma'naviy dunyosini shakllantirish hamda rivojlantirish, shaxsning ijtimoiy axloqiy-madaniy negizlarini faollashtirishi kerak. Buning uchun ota-onalar va maktab, jamoatchilik yoshlar orasiga g'oyasizlik, befarqlik, bema'nilik, didsizlik, xudbinlikka undovchi musiqalarni kirib qolishiga yo'l qo'ymasliklari kerak. Bular yoshlarning ruhiy-ma'naviy dunyosini buzadi. Afsuski, hozirgi vaktda ayrim ota-onalar bolalari qanday musiqa tinglayotganligi bilan qiziqishmaydi, ularga e'tibor berishmaydi. Bu esa tabiiyki bolalarning musiqiy tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Oilada musiqiy jihatdan to'g'ri tarbiyalangan bolaning badiiy ijodga qobiliyatini erta aniqlash va uni yanada rivojlantirish mumkin bo'ladi. Har bir ota-ona bola tarbiyasida musiqaning tutgan o'rni va ahamiyatini his etgan holda ish tutmog'i maqsadga muvofiqdir. Bunda albatta oilaga hamkor bo'lgan maktabgacha ta'lim tashkilotining o'rni salmoqli.

Albatta, estetik tarbiya tizimi oila, ta'lim-tarbiya va madaniy muassasalari, ommaviy axborot vositalari kabi bo'g'inalarning yaxlit holda ta'lim muassasasi bilan o'zaro hamkorligida yaxshi natijalar keltiradi. Umumiy o'rta ta'lim tizimida esa estetik tarbiya maqsadi, vazifalaridan kelib chiqib tizimli ravishda moddiy-texnika ta'minoti, ilmiy-metodik manbalar, dars va snfdan tashqari musiqiy-ma'rifiy ishlarning mazmun-mohiyatining uyg'unligida amalga oshirilishi talab etiladi.

Xullas, musiqiy-estetik tarbiya yoshlar ma'naviy rivojlanishining muhim omili sifatida kelajakda qaysi kasb egasi bo'lishidan qat'iy nazar har bir bolada musiqani tinglash, anglash, idrok etishga o'rgatish, musiqiy faoliyatning biror turi bilan baholi kudrat shug'ullanishlariga e'tibor kuchaytirilsa uning ma'naviy kamolotiga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

#### **1.4. Estetik tarbiya masalalarini hal etishda musiqa ta'limi tizimiga doir hujjatlarning ahamiyati va o'rni**

Umumumiy o'rta ta'lim tizimida tayanch o'quv reja, o'quv dasturi, malaka talablari, baholash tizimi kabi hujjatlar muhim

ahamiyatga ega. O'quv dasturida o'quvchilarda ma'naviy, badiiy, axloqiy madaniyatini shakllantirish, ularda milliy g'urur, vatanparvarlik tuyg'ularini rivojlantirish, musiqiy- badiiy didni o'stirish, o'zbek hamda jahon kompozitor-bastakorlari asarlarini tinglab idrok etishga o'rgatish – musiqa madaniyati fanining maqsadi qilib belgilangan.

Musiqa madaniyati o'quv fani bo'yicha nafaqat nazariy bilim, ma'lumot va tushunchalarni egallash, balki ko'nikma va malakalarni amaliyotda tatbiq etish orqali ularda kuzatuvchanlik, musiqiy xotira, obrazli tasavvur kabi psixologik ko'nikma yordamida badiiy-musiqiy didni rivojlantirish hamda fikrlash doirasini kengaytirish, milliy va umumbashariy musiqa namunalarini tushunish, anglash hamda qadrlashga erishish fanning vazifalari qilib qo'yildi.

O'quvchilarga musiqa madaniyati bo'yicha fanga oid musiqa madaniyati ta'limidan musiqa tinglash qobiliyatini, jamoa bo'lib kuylash hamda musiqiy savodxonlik layoqatini tarkib toptirish nazarda tutilgan.

Musiqa madaniyati fani bo'yicha bitiruvchilariga malaka talablari belgilanib, umumiyo'rta ta'limning boshlang'ich 4- sinf bitiruvchilari uchun musiqa madaniyati fanini o'rganishning boshlang'ich darajasi, umumiyo'ta'lim matabining 7- sinf bitiruvchilari esa musiqa madaniyati fanini o'rganishning tayanch darajasi, deb belgilandi.

1. Musiqiy savodxonlik kompetensiyasi (A1) darajasida ega bo'lish uchun o'quvchi musiqani san'at turi ekanligini bilishi, milliy musiqa merosi ma'lumoti haqida, oddiy musiqaga oid atamalarni bir-biridan ajrata olishi, savodxonlikka oid o'lchov-usullar, dinamik belgilar, repriza va boshqalar xususida tushunchalardan xabardor bo'lishi talab etiladi.

A2 darajasi talabiga javob beradigan o'quvchi musiqa san'atning qadimiyo'rta ekanligi, o'zbek xalq musiqasi asrlar davomida sayqal topib, rivojlanganligi, u xalqimizning boy madaniyati, milliy qadriyatlarini o'zida aks ettirishi va umumbashariy jahon musiqa madaniyatining ajralmas bir bo'lagi

ekanligini tasavvur qila olishi, shuningdek, O'zbekiston hududida mumtoz musiqaning mahalliy an'analarning umumiy xususiyatlari hamda o'ziga xosligini ajrata olishi, ijrochilik uslublari va cholg'u asboblarini bilish milliy maqom, doston, katta ashula, folklor musiqasi va ularning mashhur ijrochilari haqida ma'lumotlarga ega bo'lishi, o'zbek musiqasida sahnaviy musiqa asarlari, estrada janri, kino musiqasi va ularning o'ziga xos xususiyatlarini bir-biridan farqlay olishi, orkestr, ansambl va xorga oid oddiy musiqiy atamalarni farqlay olish malakasiga ega bo'lishi lozim.

2. Jamoa bo'lib kuylash kompetensiyasida o'quvchi jamoa bo'lib o'r ganilgan qo'shiqlarni yakkaxon sifatida kuylay olishi, asarda uchraydigan dinamik belgilarni tushunishi va kuylashda ovozni to'g'ri yo'naltira olish malakasiga ega bo'lishiga e'tibor qaratiladi. O'quvchi kuylashda dinamik belgilarga amal qiladi, o'zi va o'rtoqlari ijro etgan qo'shiqlarning ijrochilik saviyasi va badiiy jihatdan baholay olishi, o'r ganilgan qo'shiqlarni toza talaffuz va ohangda kuylay olishi, sinf xor jamoasida kuylash madaniyatiga va mahoratiga ega bo'la olishi, xorda kuylay olish malakalari bilan sifatlanadi.

3. Musiqa tinglash va tahlil qilish layoqatiga mansub o'quvchi kuyni tinglab, musiqaning tovush tusidan qaysi cholg'uda (zarbli, chertma, damli) ijro etilganligini topa olish qobiliyatini shakllantirish rejalashtirilgan.

A2 darajasida esa o'quvchi musiqiy janr va turlarning nomlarini bilishi, tinglaganda ularni farqlay olishi, xalq ommaviy va professional janrlarining mahalliy uslubdagi sodda variantlarini tinglab ajrata olish malakalariga ega bo'lishi belgilab berilgan.

Mamlakatimizning etakchi olimlari, metodistlar va amaliyotchi o'qituvchilari ijodiy guruhlari tomonidan musiqa madaniyati fanidan kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan o'quv dasturlari loyihalari ham ishlab chiqildi. Zamonaviy musiqa madaniyati fani o'qituvchisi o'ziga qo'yilgan kasbiy talablarni teran anglab, ta'lim-tarbiya, o'quv jarayonida ilg'or pedagogik va

axborot texnologiyalarni samarali tatbiq etib, pedagogik maqsadga erishishi lozim.

Bugungi kunda musiqiy pedagogik ta'lim jarayonlarini va zamonaviy yoshdashuvlar asosida boshqarish va amalga oshirishga e'tibor kuchaytirildi. Shu bilan birga bugungi umumta'lim tizimida fanlar asosida olib boriluvchi tarbiya jarayoni ham samarali amalga oshirilib kelinmoqda. Binobarin, "Odobnama", "Tasviriy san'at", "Vatan tuyg'usi", "Musiqa" fanlari asosida estetik tarbiya mazmunini yanada boyitishga e'tibor qaratilmoqda. Yosh avlodning chinakam barkamol, etuk va muvaffaqiyatli inson bo'lib etishishlari uchun ularning bo'sh vaqtini mazmunli o'tishini ta'minlash muhim ahamiyatga molik masalalardan. Zero, yoshlar qanchalik ma'naviy barkamol bo'lsa, turli yot illatlarga qarshi immuniteti ham shunchalik kuchli bo'ladi.

Bolalarning musiqiy-estetik sohadagi bilimini oshirish borish,, ijrochilik mahorati asoslarini egallashga ko'maklashish, rivojlantirish, iste'dodini qo'llab-quvvatlash, rag'batlantirish va ularning ijodi, badiiy iqtidorini targ'ibot qilish maqsadida bolalar musiqa va san'at maktablari o'rtasida "Ona yurt ohanglari", "Yagonasan, muqaddas Vatan","Akademik va etrada ijrochiligi","San'at g'unchalari" kabi ko'rik-tanlovlar, "Kamalak yulduzlari" bolalar ijodiyoti festivali, "Navro'z sadolari" milliy cholg'u ansamblari va orkestrlar festivallari muntazam ravishda o'tkazilib kelinmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoev rahbarligida 2019-yil 19-martdagi "Yoshlar bilan ishslashni samarali tashkil etishda madaniyat, san'at, sport, axborot texnologiyalari, kitob o'qishga qiziqishini oshirish bo'yicha 5 ta muhim tashabbusni amalga oshirish<sup>1</sup> maqsadida ularni madaniyat va san'atga jalb etish, sportga qiziqtirish, kitob o'qishga chorlash, axborot texnologiyalariga o'qitish va xotin-

---

<sup>1</sup> Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha muhim vazifalar" // "O'zbekiston ovozi." 2019 y. 20-mart.

qizlarga ishchi o'rinalar yaratish bo'yicha muhim vazifalar belgilab berildi.

Albatta, 5 ta tashabbus mazmun va g'oya jihatidan bir-biri bilan uzviy bog'liqlikda amalga oshirilmoqda. Birinchi tashabbus-yoshlarning musiqa, tasviriylar san'at, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga yo'naltirilgan. Amaliyotni kuzatadigan bo'lsak, ayrim maktablarda aniq va tabiiy fanlarning o'qitilishiga alohida e'tibor qaratilgan holda musiqa, texnologiya (mehnat ta'limi), tasviriylar san'atni o'qitishda ikkinchi darajali fan sifatida qarashlar ham mavjud yondashiladi. Vaholanki, bu amaliy fanlar o'quvchi faoliyatida nihoyatda ahamiyatli bo'lib, uning kelajak hayotida kerak bo'ladigan bilim va ko'nikmalarni shakllantiradi. Shu nuqtai-nazardan ham maktabda amaliy fanlarning mazmun-mohiyatini yanada oshirishda ham ushbu dasturning ahamiyati kattadir.

Yana bir muhim jihat dasturda har bir tashabbusning maqsadi aniq belgilangan bo'lib, yosh avlodni ma'naviy jihatdan kamol toptirish, ularning bo'sh vaqtida madaniyat va sport, kompyuter savodxonligi asoslarini o'zlashtirib olishga da'vat etadi.

Ushbu ibratli dastur amaliyotga keng va samarali tatbiq etilib, uning ta'limiy-tarbiyaviy imkoniyatlaridan mohirona foydalanib kelinmoqda. Buning natijasida o'quvchi-yoshlarda badiiy ijodkorlik, aqliy salohiyati oshib, qiziqishi, ma'naviy ehtiyoji asosida musiqiy va badiiy ta'lim, estetik tarbiya samaradorligiga erishilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-sentabrda qabul qilgan PQ-4467 "Xalq ta'limi tizimidagi maktabdan tashqari ta'lim samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarorning qabul qilinishi nihoyatda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Qarorga binoan "Barkamol avlod" bolalar maktabini tashkil etildi. 2024-yilga qadar 50 foiz oliy ma'lumotli mutaxassislar bilan ta'minlash ko'zda tutilgan. O'quvchilarini "Barkamol avlod" bolalar maktablariga qamrab olish darajasini 10,5 foizga etkazish (jami to'garaklar soniga

nisbatan) "Bolalar kutubxonalari" va maktab kutubxonalari uchun milliy hamda jahon adabiyoti durdonalariga kiruvchi asarlarning audiokitob shaklini yaratish tadbirlari belgilanganligi yosh avlod ma'naviy olamini yanada kengaytirishga va boyitishga, ularni estetik tarbiyasiga samarali yordam bermoqda..

O'quvchi-yoshlarning musiqa ta'limi va estetik tarbiyasida umumiy o'rta ta'limning milliy o'quv dasturining ishlab chiqilishi va bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etilishi muhim ahamiyatga molik masalalardan biri bo'ldi. Unda musiqa madaniyati fanini o'qitishning konsepsiysi ikkinchi bobida - O'zbekistonda san'at, ma'naviy, estetik va badiiy an'analarni avloddan-avlodga etkazish, san'at asarlarini idrok etishda o'rgatish orqali badiiy madaniyatni rivojlanishni, ma'naviy-intellektual salomatligini asrash, o'quvchilarda sog'lom dunyoqarashni shakllantirish asosiy vazifa ekanligi qayd etilgan.

Uchinchi bobda esa musiqa madaniyati fanining maqsadi - o'quvchilarga san'at, badiiy-estetik va ijtimoiy-emotsional ko'nikmalar, milliy, umummadaniy qadriyatlarga asoslangan shaxsiy fazilatlar, amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishdir, deb belgilangan hamda musiqa madaniyati fanining vazifalari yoritilgan. Musiqa ta'limini rivojlantirishning yangi bosqichida umumiy musiqa ta'limi tizimini isloh qilishga qaratilgan va amalga oshirilgan ishlar ko'lami kelgusida mazkur sohaning sifat-samaradorligini yanada takomillashtirishga xizmat qilishi, shubhasizdir.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlari musiqa ta'lim-tarbiyasining istiqboli belgilanganligi musiqa ta'limi sohasida islohotlarda estetik tarbiya masalasining ustuvor mohiyat kasb etishidan dalolat beradi. Milliy mustaqillik sharoitida ma'naviy madaniyatning barcha unsurlari kabi musiqiy-estetik tarbiyaning ham ahamiyati oshib borishi, tabiiy. Zero, inson ma'naviy hayotida musiqiy-estetik tarbiyaning ahamiyati katta bo'lib, ayniqsa bugungi kunda ta'lim-tarbiya jarayonida o'zining dolzarbligini namoyon etmoqda.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. *Musiqa ta'limi sohasidagi islohotlarning ijtimoiy-madaniy ahamiyati nimalardan iborat?*
2. *Ta'limda estetik tarbiya masalalarining dolzarbligini izohlang.*
3. *Musiqa ta'limi vositasida o'quvchi-yoshlarning estetik tarbiyalash masalalarining ustuvorlik xususiyatini qanday tushunish mumkin?*

### **Mustaqil ta'lim uchun topshiriqlar:**

- 1 Hukumat tomonidan qabul qilingan me'yoriy-huquqiy va uslubiy hujjatlar kartotekasini tuzing va ularni o'rganib chiqing.
2. Musiqa ta'limi sohasida olib borilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyatini anglab, o'rganib oling.
- 3.Ta'lim islohotlarida estetik tarbiya masalasining ustuvorlik xususiyatini o'rganing.
4. Musiqa san'ati vositasida estetik tarbiyani shakllantirish va rivojlantirish masalalarining mazmun-mohiyatini o'zlashtirib oling.

## **II MAVZU. ESTETIK TARBIYA - O'QUVCHI MA'NAVIY RIVOJLANISHINING MUHIM OMILI SIFATIDA**

**Tayanch tushunchalar:** estetik idrok, nafosatshunoslik, badiiy ta'lif, estetik, musiqiy-estetik faoliyat, badiiy qiziqish, ongли-emotsional munosabat

### **Reja:**

- 2.1. Estetik tarbiya tushunchasi xususida.
- 2.2. Sharq donishmandlarining musiqiy-estetik tarbiya masalalariga oid qarashlari.
- 2.3. Jadid ma'rifikatparvarlarining badiiy-estetik g'oyalari
- 2.4. Pedagogika va psixologiya fanlarida estetik tarbiya muammolari.
- 2.5. Maktabda musiqa vositasida estetik tarbiya va badiiy ta'lifning maqsadi hamda vazifalari

### **2.1. Estetik tarbiya tushunchasi xususida**

Zamonaviy musiqa pedagogikasida o'quvchi-yoshlarni musiqiy-estetik tarbiyalash samaradorligini takomillashtirish orqali ularda estetik ong va dunyoqarashini shakllantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Zero, estetik tarbiya jarayonlariga kreativ yondashuv orqali pedagogik tizimini yanada takomillashtirishga erishish mumkin.

Pedagog-psixolog olimlar o'quvchi-yoshlarda axloqiy-estetik tarbiyalash samaradorligini takomillashtirish, tarbiyada musiqa, tasviriy hamda san'atning boshqa turlarining pedagogik imkoniyatlaridan samarali foydalanish, musiqiy pedagogika va psixologiya vositasida ta'lif oluvchilarning estetik madaniyati asoslarini rivojlantirishga bag'ishlangan keng miqyosdagi ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ayniqsa, respublikamizda yosh avlodni milliy va umumbashariy qadriyatlar, jahon madaniyati yutuqlari bilan tanishtirish, ularda go'zallik tuyg'usini, estetik did va ehtiyojni rivojlantirish kabi estetik tarbiya masalalari yo'nalishlariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

“Estetik tarbiya” tushunchasi ancha keng qamrovli tushuncha bo‘lib, shaxsning tabiat va jamiyatdagi go‘zalliklarni teran idrok etib his qilishga o‘rgatadi. Falsafa faniga oid adabiyotlarda ta’riflanishicha, - “Estetika” (yunoncha –his qiluvchi, hissiy tarbiyaga doir) – inson bilan olam o‘rtasidagi qadriyat munosabatining o‘ziga xosligini hamda insonning badiiy faoliyati sohasi masalalarini o‘rganuvchi fan. “Estetika” atamasini nemis faylasufi A. Baumgarten (1714-62) ilmiy muomalaga kiritgan. Estetikaning sinomimi sifatida go‘zallik falsafasi, san’at falsafasi, badiiy ijod falsafasi iboralari ham qo‘llanib keltingan.

Kishi qanday ish va yumush bilan mashg‘ul bo‘lmisin, uning har qanday faoliyatida estetik manba mavjud bo‘lib, u o‘z faoliyati davomida moddiyat bilan birga ma’naviy-ruhiy holatlar, ya’ni quvonch, orzu-niyat, hurlik va erkinlik tuyg‘ulari qurshovida yashaydi. Boshidan kechiradigan voqeа hamda hodisalarni ijtimoiy baholashga harakat qiladi. Agar inson o‘zining bu xususiyatini yo‘qotib qo‘ysa, uning faoliyatining mohiyati ham o‘zgaradi.

Kishining borliq va uning voqealariga bo‘lgan munosabati rang-barang va ko‘p ko‘rinishga ega. Bunda voqeа-hodisalarning serqirra, ko‘p sifatliligi hamda faoliyat jarayonida insonda shakllanadigan ehtiyoj hamda manfaatlardan kelib chiqadi. Musiqiy, ma’naviy-ma’rifiy sohasidagi ishlarni bajarish esa bevosita boshqaruv asosida amalga oshiriladi. Masalan, san’at va madaniyat maskanlari bo‘lmish teatrлar, kinoteatrlar, kutubxonalar, muzeylar, konsert zallari, madaniyat uylari va saroylari kabi ma’rifiy-madaniy muassasalarda olib boriladigan ishlar eng avvalo, kishilar madaniy va estetik qarashlarining shakllantirish hamda rivojlantirish bilan bog‘liqdir.

Ma’naviyat va estetik madaniyat o‘zaro uzviy bog‘liqligida insoniy sifat va fazilatlarning yaxlit tizimini ko‘rsatish mumkin. Joylardagi estetik madaniyatlilik holati va darajasi, taqdiri mahalliy boshqaruv tizimi faoliyati, rahbarlarning shaxsiy ma’naviy-axloqiy, madaniy-ma’rifiy qarashlari bilan bog‘liq bo‘ladi. Axloqiy go‘zallik asosida ma’naviy barkamollik turadi. Ular

bir-biri bilan o'zaro uzviy aloqadorlikda va bog'liqlikda bo'ladi. Zero, estetik ehtiyoj zaminida ma'naviy madaniyat rivoj topadi. San'at va madaniyat kishilarda go'zal axloqiy sifatlarni tarbiyalashga yordam beruvchi asosiy vosita hisoblanadi.

Ma'naviyatning rivojlanishi jamiyatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy islohotlar o'rtasida chuqur aloqadorlik va bog'liqlikni ta'minlaydi. Zero, xalqning moddiy turmush darajasi va ma'naviyati bir-biri bilan o'zaro uzviy bog'liqlikdadir.

Estetik tafakkur, estetik baho va estetik did tushunchalari mazmun-mohiyatini anglash - estetik madaniyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Estetik tafakkurga millatning axloq-odob psixologiyasi, tarixiy an'analar, hayot, mehnat faoliyatining xususiyati va yo'nalishlari bevosita ta'sir etadi.

Estetik tafakkur estetik ongning aqliy faoliyat, amaliyot borasida namoyon bo'lishidir. Estetik baho esa-bu bizning voqelikka, jumladan istalgan bir muayyan predmetga bo'lgan munosabatimizning ajralmas bir qismidir.

Estetik did bilan estetik baholash tushunchalari o'rtasida farqli va umumiy jihatlar mavjud. Estetik baholash - didning fikr-mulohazalari, og'zaki ifodasidir. Uning fikr-mulohazalarida aqliy jihat ko'proq o'rin egallaydi. Binobarin, estetik baho tabiat va jamiyat hodisalari, inson mehnati, san'at asarlarining mahsuli haqida asosli estetik muhokamaning natijasidir.

Estetika fanining tadqiqot ob'ektlari ichida san'at o'ziga xos o'rin egallaydi. Zero, u qadimdan to hozirgi kungacha eng ko'p tadqiq etilgan estetik soha hisoblanadi. Shunisi ahamiyatli, estetika o'z ob'ektiga falsafiy-nazariy nuqtai-nazardan yondashadi. Estetika fanidagi o'ziga xos xususiyat u san'at sohasini o'rganishda uch qirraga - ya'ni san'atkor, san'at asari hamda san'at asarini idrok etuvchi shaxsdan iborat yaxlit tizim asosida tadqiq etadi. San'at turlari uchun xos va muhim bo'lgan umumiy qonun-qoidalarni ishlab chiqadi. Jumladan, san'atning tabiatini, uning ijodiylik xususiyati, badiiy

yo'nalishlar, ijodiy uslublarning mohiyatini o'rganadi. San'atda – go'zallikni anglash maqsad bo'lsa, badiiy madaniyat estetik madaniyatning negizi sifatida e'tirof etiladi. Estetik madaniyat mazmunida estetik tarbiya tushunchasi asos bo'lib turadi.

San'at estetikasida quyidagi masalalar muhim hisoblanadi, jumladan:

1.Bilish nazariyasi asosida san'at va badiiy-estetik faoliyatning mohiyati va o'ziga xosligini bilish;

2.San'at asari badiiy obrazining shakl va mazmuni, san'at turlari xususiyati, badiiylik muammolari;

3.San'atning nafosat tarbiyasi vositasi sifatidagi xususiyatlarini ilmiy-falsafiy asoslash

Estetika bilan sanatshunoslik fanlari o'rtasida o'zaro uzviy aloqadorlik mavjud bo'lib, estetika sanatshunoslik fanlari tajriba va hodisalarga suyanadi, nazariy-metodologik xulosalar chiqaradi. Shu bilan birga estetika o'z navbatida ular uchun nazariy metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Estetika falsafiy ilm sifatida ko'plab ijtimoiy va tabiiy fanlar bilan aloqadordir. Ayniqsa uning etika, axloq bilan aloqasi alohida ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, musiqiy faoliyatlar orqali ta'lim metodikasi takomillashtiradi.

O'quvchilar axloqiy- estetik tuyg'ularining rivojlanishiga sharoit yaratadi. Shuni ham ta'kidlash kerakki, axloqiy tarbiya bilan estetik tarbiya o'rtasidagi chegara shunchalik shartliki, ba'zida ularni bir-biridan ajratish qiyin bo'lib qoladi. O'quvchi shaxsini estetik jihatdan tarbiyalay turib, uning axloqiy sifatlarini ham takomillashtirish maqsadga muvofiq. Bu borada albatta musiqa fani katta ahamiyatga ega. Bu ikkala fanning o'zaro yaqinligi, avvalo, inson hatti-harakatlarida uchraydigan ham axloqiylik, ham go'zallik sifatlarining o'zaro uyg'unligidan iborat bo'lishidadir. Bundan tashqari, san'at estetikasi mohiyatan ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi kurashning badiiy in'ikosi sifatida doimo dolzarb axloqiy muammolarni ko'tarib chiqadi.

Estetikaning ba'zi tushunchalari etika uchun ham birdek taaluqli. Ikkala fanning ham o'ziga xos jihat bo'lib, estetika har bir

o'rganiladigan ob'ektga aniq, muayyan yondashuvni talab qilsa, etika esa barcha uchun umumiyligi bo'lgan qonun-qoidalarni ishlab chiqadi. Nafosatshunos olimlarning e'tirof etishicha, estetikaning psixologiya bilan aloqasi mazmun-mohiyatida ikkala fanning ham ruhiy holatlarni o'rganishi o'z ifodasini topadi. Har ikkala fan uchun umumiyligi bo'lgan san'at psixologiyasi va badiiy ijod psixologiyasi deb ataluvchi maxsus yo'naliishlar mavjud.

Estetikaning pedagogika bilan bog'liqligi estetik tarbiya masalalariga borib taqaladi. Pedagogika fani ham estetik tarbiya bilan shug'ullanadi, biroq, u alohida-alohida, maxsus belgilangan tarbiya tarzida olib boriladi. Masalan, maktabgacha tarbiya, maktab o'quvchilari tarbiyasi, musiqiy tarbiya, jismoniy tarbiya va h.k. Pedagogika, jumladan musiqa pedagogikasi estetik tarbiya bilan shug'ullanadi. Estetika fani esa nafosat tarbiyasining umumiyligi qonun-qoidalarni ishlab chiqadi.

Estetik tarbiya tushunchasi mazmunida insonning borliqqa nisbatan mavjud bo'lgan muayyan estetik munosabatini shakllantiriladi. Estetik tarbiyada hissiy idrok etish qobiliyatlarini shakllanadi va rivojlanadi, uning estetik didi, qiziqish hamda ehtiyojlari go'zallik qonuniyati asosida ijodkorlik sifatlari rivojlanib boradi.

Estetik tarbiydayi - kishilarda san'at asarlari, badiiy ijod namunalarini faol o'zlashtirishni ta'minlash vazifalari bilan birga asar mohiyatini anglash va uni munosib baholay olish qobiliyatini rivojlantirishdan ham iborat.

Estetik tarbiya - go'zallik mohiyati, estetik va axloqiy hissiyotlarning uzviyligi, san'atning xalqchilligi, ommaviyligi, hayotni aks ettirishi haqidagi ta'limotga asoslanib, o'quvchi-yoshlarning borliq, voqelik to'g'risidagi bilimlari doirasini o'stiradi hamda dunyoqarashini kengaytiradi. Estetik tarbiy bu shaxsning borliqqa nisbatan estetik munosabatini rivojlantirishga yo'naltirilgan tarbiyaviy faoliyat shaklidir. Ayrim shart-sharoitlarda tarbiyaning omillari estetik tarbiyaning vositalari vazifasini o'tashi yoxud aksincha holatni guvohi bo'lish mumkin.

O'tmish ajdodlarimizning pedagogik-psihologik qarashlarida,

shuningdek, pedagogika va psixologiya faniga oid adabiyotlarning mazmun-mohiyatida, ilmiy-tadqiqot ishlarida yoshlarni musiqa san'ati vositasida musiqiy-estetik tarbiyalashda milliy musiqa san'atining nihoyatda ulkan mohiyati e'tirof etiladi.

## **2.2. Sharq donishmandlarining musiqiy-estetik tarbiya masalalariga oid qarashlari**

Qadimiy va boy tarixga ega o'zbek milliy musiqa madaniyati targ'ibotini amalga oshirish ushbu soha ta'lif-tarbiyasi bilan maxsus shug'ullanish maqsadida asrlar davomida mukammal musiqa maktablari shakllangan hamda rivoj topib kelgan. Bu maktablarda musiqa ta'lif tarbiyasi bevosita va bilvosita amalga oshirib borilar ekan, ularning faoliyat mazmunida musiqa haqiqiy ma'nodagi tarbiya vositasi ekanligi o'z ifodasini topgan.

Kishilik jamiyatining rivojlanishi tarixida pedagogika, jumladan musiqa pedagogikasi eng qadimiy ham ilm ham san'at ta'lif-tarbiyasidir. Zero, musiqa pedagogikasi tarixi boy ilmiy-nazariy merosga ega.

Musiqa madaniyatining qadimiy ildizlari yozma ma'rifiy yodgorlik "Avesto" va zardo'shtiylik dini an'analari bilan bog'lanib ketadi. "Avesto"da tarbiya-hayotning eng muhim tayanchi, deb hisoblanishi ta'kidlangan. Insonlar paydo bo'lganidan buyon uning tarixi doimiy ravishda tarbiya muammosini hal qilish bilan bog'liq ekaniga guvohlik beradi. Cunki inson hayoti va turmush tarzi, xalq farovonligi, yurt ravnaqi, jamiyat taraqqiyotining asosida tarbiya turadi.

Sharq, jumladan Markaziy Osiyo musiqasi, uning an'analari qadimiy tarixga ega. Sharq xalqlari an'anaviy-kasbiy musiqasi asoschisi sifatida ulug'langan musikashunos, bastakor, xofiz va shoir Borbad U-UP asrlarda o'zining musiqa maktabini yaratdi. Eron shohi Xusrav Parviz saroyida xizmat qilgan Borbad xalq kuylarini mahorat bilan ijro etish, hofizlik qilish bilan birga yosh musiqachilarining ta'lif-tarbiyasi bilan ham jiddiy shug'ullangan. Borbad xalq kuylari asosida kasbiy musiqachilik an'anasini

boshlab bergen, ijrochilik mahoratida yuksak saloxiyatga erishgan san'atkor edi.

Bu haqda tarixchi olimlarning yozma manbalariga asoslangan holda fikr yuritsa, jumladan, VI-VII asrlarda yashab ijod etgan ilk kasbiy musiqashunoslardan biri O'rta-Osiyolik Faxlobod Borbad xaqida ma'lumotlarda uni musiqa san'atining asoschilaridan bo'lib, bastakorlik, shoirlik, sozandalik va hofizlik borasida tengi yo'q mashhur san'atkor bo'lganligi ta'riflanadi. Borbad Marvaziy (yoki Faxlobod) qator madhiya va tarixiy qo'shiqlar, harbiy mavzudagi taronalar ijod va ijro etgan.

Musiqa vositasida estetik tarbiya jarayonlarini amalga oshirishda tarixiy-musiqiy va ma'rifiy- didaktik manbalarning ham ahamiyati nihoyatda katta. Donishmandlarning falsafiy estetik qarashlari hamda ta'limotlari islom estetikasining mazmun-mohiyatini tashkil etadi. Musiqiy - estetik tarbiya masalalariga oid ayrim tarixiy-pedagogik adabiyotlar jumladan, donishmandlar musikiy-pedagogik qarashlari, shuningdek, Kaykovusning "Qobusnomा" asari mazmun-mohiyatida Sharq musiqa nazariyasi, tarixi, amaliyoti, xalq musiqa pedagogikasi, kasbiy ta'limi uslubiyoti xususiyatlari o'z aksini topgan. Munosabat bayon etgan: - "Bilgilki, xalqning rasmi, odati shunday yugurib-elib, qidirib-axtarib dunyodan biror narsa hosil qiladi va bu topgan narsasini o'zining eng yaxshi ko'rgan kishisiga qoldirib ketadi. Men dunyoda mana shu so'zlarni hosil qildim, sen esa men uchun eng qimmat baholisan".

Go'zallik, nafosat tuyg'usini idrok etish, borliqqa estetik munosabatda bo'lish kishining axloqiy fazilatlari orqali namoyon bo'lishi haqida "Qobusnomা" da estetik qadriyatlarga o'rab ifoda etilgan. Asarda xulq-odobidan tortib, hunar egallash, suxandonlik, qarilik va yigitlik fasli bayoni, mehmonnavozlik, mehr-muhabbat, mol, boylik to'plash, uylanish va farzand ta'lim-tarbiyasi, savdo va tijorat, shoirlik, hofiz-sozandachilik va boshqa ilm, kasb-hunarlarini o'rganish va yuritishda insonning go'zal fe'l-atvoru, sifatlari haqida fikr-mulohazalar yuritilgan.

Asarda cholg'ularda kuy ijro etish, tabiat manzaralariga moslab hamohanglikda amalga oshirilsa, u yanada yoqimli va go'zal bo'lishi ta'kidlanadi. Fasllarga qarama-qarshi kuylamaslikka da'vat etiladi: "Har vaqtning o'ziga munosib g'azallarni o'qig'il: bahorda xazonga munosib, xazonda bahorga munosib, qishda yozga munosib va yozda qishga munosib g'azallarni o'qimag'il".

Shu jihatni ahamiyatliki, donishmandning pandu-nasihatlari mazmunida go'zal xulq, fe'l-atvorli komil insonga qaratilgan bo'lib, ilohiy va dunyoviy go'zalliklarni anglash hamda qadrlashga oid ezgu-da'vatlar bilan yo'g'rilgan. Ayniqsa, Kaykovusning soz chalishda odamlarning fe'l-atvor, ta'bi va ruhiyatini e'tiborga olish lozimligi haqidagi qarashlari diqqatga sazavordir. Davrada soz chalish, hofizlik qilishning o'ziga xos qoida-tartibi mavjudligini. O'tirgan kishilarning chehrasi, fe'l-atvori, hatto jismoniy holati oriq yoki semizligi, rang-ro'yiga razm solgan holda cholg'u torlarini chertilishi tartibini tasniflab bergan.<sup>1</sup>

Qomusiy olim Abu Nasr Forobiy (872-950) o'zining ilmiy, tabiiy-falsafiy, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy masalalari bilan birga musiqa nazariyasiga oid asarlarning ham muallifi bo'lgan. Abu Nasr Forobiy buyuk mutafakkir va musiqashunos olim sifatida "Kitob al musiqiy-al kabir" (Katta musiqa kitobi), (Kitob fi-ixos al iyo) "Maqomlar tasnifi haqida kitob", (Kitob fi- ixso al-ulum va at-tarif) "Fan tasnifi haqida kitob va uning tavsifi" kabi ilmiy asarlar yaratgan. U musiqaning axloqiy-estetik tarbiyatadagi ahamiyatini ta'kidlab shunday deydi - "Bu ilm shu ma'noda foydaliki, u o'z muvozanatini yo'qotgan odamlar xulqini tartibga keltiradi, mukammalikka etmagan xulqni mukammal qiladi va muvozanatda bo'lgan odamlar xulqining muvozanatini saqlab turadi. Bu ilm tananing salomatligi uchun ham foydalidur"<sup>1</sup>.

Uning "Baxt-saodatga erishuv haqida" gi risolasida inson go'zallikni samarali idrok etishi uchun unda nozik tabiat, aqliy mukammallik zamini bo'lishi kerakligini, hissiy va aqliy qobiliyatga ega bo'lgan kishigina dunyoning siru-asrorlarini bila

---

<sup>1</sup> Qobusnoma. 176-bet, T. Meros-1992 y.

olishi mumkinligini ta'kidlagan. Shuningdek, insonga baxt va saodat bilim vositasida kelishini, go'zallik hamda mukammallik sifatlari ilm orqali kashf etilishini, san'at bilan mashg'ul bo'lish go'zallik mohiyatini anglashga yordam berishini qayd etib o'tgan.

Abu Nasr Forobiy musiqa san'atiga munosabat masalasida o'zlarida ma'lum bo'lgan musiqiy san'atlardan to'g'ri foydalanishga odatlangan odamlar tahsinga sazovorligi, ularning ma'nosini o'zgartirib, o'rinsiz va mavridsiz foydalanuvchilar yomonlashga va qoralashga loyiqligini ta'kidlab o'tgan.

Forobiy insonning tarbiyasida, uning estetik rivojlanishida musiqa san'ati va ilmining o'rnini alohida e'tirof etadi. Uning fikricha, san'atning barcha turlari bir-biridan o'ziga xosligi bilan farq qiladi. Jumladan, nazm san'ati badiiy so'z yordamida, tasviriy san'at rang ifodasida, musiqa san'ati esa kuy, ohang vositasida inson ruhiyatiga ta'sir qilishini ta'kidlaydi. Uning fikricha, musiqa san'atining inson tuyg'usiga ta'siri, ayniqsa katta. Bu san'at va ilm shu ma'noda foydaliki, u o'z muvozanatini yo'qotgan odam xulqini tartibga keltiradi, noqis xulqni makammal qiladi va muvozanatda bo'lgan odamlar xulqining muvozanatini saqlab turadi".<sup>1</sup>

Uning "Musiqa haqida katta kitob" ida musiqa nazariyasi va tarixiga doir ma'lumotlar bilan birga Sharqda ma'lum hamda manzur bo'lgan rubob, tanbur, nog'ora, ud, qonun, nay singari milliy musiqa sozlarida kuy ijro etish qoida-tartibi bayon etilgan.

Forobiy musiqaning nafaqat nazariyasi, tarixi, balki amaliyoti bilan ham mashg'ul bo'lib, mohir sozanda, bastakor, musiqa sozlari ixtirochisi sifatida ham shuhrat qozongan.

Tarixiy manbalar ma'lumotlariga ko'ra buyuk qomusiy olim, cholg'u ijro san'atiga ham mahoratga ega bo'lib, kishilarni turli ruhiy holatga tushira olgan. Musiqani ham fan, ham san'at turi sifatida insonda axloqiy fazilatlarni tarbiyalash, uning salomatligini mustahkamlovchi vosita, deb ta'riflagan.

Forobiyning ayniqsa, she'riyat va musiqa nazariyasi masalalariga doir asarlari musiqiy estetik ta'limotlar tarixida

---

<sup>1</sup> "Ixso-al-ulum" 1963 y. 235-bet,

o'ziga xos o'ringa ega. Donishmand-olimning "Baxt-saodatga erishuvi haqida" risolasida san'atning ulkan ta'sir kuchi haqida fikr-mulohazalarni bayon qilgan. San'at-insonda go'zal estetik sifatlarni shakllantirishga qodir ekanligini, axloqiy fazilatlarni hamda san'at sohasini egallashi uchun sa'y-harakatlarda sobit bo'lish tarbiyachining mas'ul vazifasi ekanligini ta'kidlagan.

Buyuk donishmand Abu Rayxon Beruniy ilm. san'at tufayli yovuzlikdan xolos bo'lish mumkinligiga ishonch bildirib turli ilmlar qatori musiqani paydo bo'lishi, tinglash odobi, uning ta'limiyy-tarbiyaviy ahamiyatini quyidagicha ifodalagan: "Nozik tabiatlik kishilar musiqa tinglab rohatlanadilar. Tartibga solingan ohanglar kishiga kuchliroq ta'sir qiladi. Kishi tartibni yoqtiradi. Tartibli she'rlar diqqatni jalb etadi. She'r qatorlari ohanglar uyg'unligi bilan qorishib ketganida kishiga yanada maqbulroq bo'ladi. Shundan musiqa ilmi kelib chiqqan".<sup>1</sup>

Abu Rayhon Beruniy estetik qarashlarida nafosatning tabiiy asosi sifatida amal qiladigan hamohanglik insonga xos bo'lgan kamolot etuklik sifati darajasida baholangan Olimning inson turmushiga xos xulq-odob qoidalari haqidagi fikrlari pedagogik mohiyati jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Inson ham ichki, ham tashqi tomondan go'zal bo'lsa-gina haqiqiy kamolotga erishishi mumkin, deydi. U ozodalik va orastalikni oljanoblik bilan tenglashtiradi. Inson doimo bularga rioya etishi zarurligini ta'kidlaydi. Inson o'zini boshqara olishga qodir bo'lishi, har bir etuk inson uchun zarur bo'lgan xislatlarni tarkib toptirishda kuch va irodaga ega bo'lishi kerakligi uqtiriladi. "Mineralogiya" asarida tarbiya masalasiga doir qarashlarini bayon etib, kishi o'zining histuyg'ulari, ehtiroslarini o'zlashtirishga qodir bo'lib, axloqini illatlardan xoli qilish imkoniyatlariga ega ekanligini ta'kidlaydi.<sup>2</sup>

Abu Ali ibn Sinoning musiqashunoslik ilmiga doir "Kitobu-sh shifa" ("Shifo kitobi"), "Donishnama" ("Bilimlar kitobi"), "Risolatun fi-ilmil musiqi" ("Musiqiy ilmi haqida risola"), "Kitobun-najot" ("Najot kitobi") va boshqa asarlari bilan katta

<sup>1</sup> Qayumov A. Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino. -Toshkent. -1987. -B.29.

<sup>2</sup> Hoshimov K. va boshq. Pedagogika tarixi. T. "O'qituvchi", 1996. B -86

ma'naviy meros qoldirdi. Ibn Sinoning musiqa san'ati va tarbiyasiga oid asarlarini Sharq musiqa madaniyatining qay darajada bo'lganligini ko'rsatib turuvchi bir mezon, estetik tafakkurning naqadar yuksak taraqqiy etganligidan dalolat beruvchi tarixiy-badiiy manba sifatida baholash mumkin.

Go'zallik olamini, musiqaning mohiyatini teran anglagan alloma go'zallikni inson sezgi vositalari: ko'rish, eshitish, hidlash, ta'm bilish ushlab ko'rishi orqali bilib olishi, go'zallikni sezishi va undan lazzatlanishi, zavqlanishini ta'kidlaydi. Agar inson go'zallikni aql va farosat bilan ko'ra olsa, uni sevsasi - bu insoniylikning yuqori darajasidir. Ana shunday odamni mard, dono va estetik didi yuksak darajada, deb aytish mumkinligini uqtirib o'tgan.

Abu Ali ibn Sinoning "Kitob ush-shifa" qomusiy to'plamiga uchta musiqiy risolasi kiritilgan. Uning fikricha, "Musiqa insonda hayotbaxsh, oliyjanob axloqiy xususiyatlarni rivojlantiradi, u insonga xizmat qiladi, uning aqliy va axloqiy qiyofasini shakllantiradi". Donishmand musiqiy-pedagogik qarashlarida musiqa insonning go'dakligidan to umrining oxirigacha zaruriy ma'naviy ehtiyoj sifatidagi badiiy-estetik va tarbiyaviy qadriyat sifatida baholaydi. Uning o'zi ham musiqa bilan shug'ullangan, hatto surnayning yaratilishini unga nisbat beradilar.<sup>1</sup>

Abu Ali ibn Sino yaxshi axloqli bo'lish tarbiyaning samarasidir, chunki tarbiya orqali yoshlarga halqparvarlik, haqiqiy do'stlik, kelajakka qat'iy ishonch, mustahkam iroda, insonparvarlik, mehnatsevarlik, yurtga sadoqat singari insoniy fazilatlar tarbiyalanishini e'tirof etadi. Aqliy tarbiya, jismoniy tarbiya, estetik tarbiya, mehnat tarbiyasi kabi tarbiya tizimini tavsiya etib, mazmun-mohiyatini ochib beradi.

Abdurahmon Jomiy ham inson ma'naviy estetik kamolotida musiqaning o'z o'rni borligini alohida e'tirof etadi. Alloma o'zining "Risolayi musiqiy" ("Musiqa haqida risola") asarida o'z

<sup>1</sup> Choriyev T.R., Xudoyev G.M. Sadriddin Ayniy ijodida musiqa san'ati va musiqashunoslik // San'at yo'nalishlarida yoshlarni ma'naviy-axloqiy arbiyalash: izlanish, yechim va istiqbollar. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. Buxoro. 2013. -B. 15-16.

o'tmishdoshlarining musiqiy tarbiya haqidagi qarashlarini yanada rivojlantiradi. Ushbu asarida olim avvalo, an'anaga ko'ra musiqaning kelib chiqishi, ohanglar haqida qimmatli fikrlar bildiradi, maqomlarga tavsif beradi, musiqa asboblari haqida qiziqarli ma'lumotlar keltiradi

Cholg'u sozlari xususida keng mushohada yuritib, har qaysi ohang, kuy, navoning inson ruhiyatiga turlicha ta'sir etishini ta'kidlaydi. Kishiga quvvat, shijoat uyg'otadigan "Ushshoq", "Navo" va "Buslik" kuylarini misol keltirib, "Rost", "Iroq" hamda "Isfaxon" lar esa xursandchilik, zavq-shavq paydo qilish xususiyatiga ega ekanligini uqtirib o'tadi.<sup>1</sup>

Abdurahmon Jomiy "Musiqiy risola" sining xotima qismida lad ohanglarining tinglovchilarga ruhiy ta'sirini shijoat va jasurlik uyg'otuvchi ohanglar; xursandlik va quvonch uyg'otuvchi ohanglar; qayg'u va mung uyg'otuvchi ohanglar hamda g'am, mayuslik aralashgan shodlik, zavq uyg'otuvchi ohanglar kabi 4 guruhga bo'lib ko'rsatgan. Abdurahmon Jomiy ohanglarni hissiy ta'sir etishiga ko'ra 12 maqom, 6 ovoz hamda 24 sho"badan tashkil topgan umumiy 42 ohangdan 38 tasini qayd etadi.

Alisher Navoiy ijodi - badiiy tarixiy, ilmiy-falsafiy asarlarida insonning axloqiy-estetik jihatlariga jiddiy e'tibor qaratgan. Mutafakkir olimning falsafiy, adabiy-estetik qarashlarining asosida komil inson tarbiyasi, uning go'zallik olami bilan munosabati masalasi turadi. Uning fikricha, shaxs xulq-atvorining axloqiy xususiyatlari va o'ziga xosligi tarbiya va ta'limning natijasidir.

Alisher Navoiy o'zining musiqiy pedagogik qarashlarida musiqachi-mutribilar, sozandalar, musiqa asboblari yoki hofizlar san'ati ulkan hissiy va axloqiy-estetik tarbiyaviy kuchga ega ekanligini takror-takror qayd etilib, go'zallik, nafis san'at insonni ma'naviy olami, kamoloti uchun muhim manba ekanligini bayon qiladi.

---

<sup>1</sup> Irzayev B. O'zbek musiqa madaniyati tarixi sahifalaridan. -Toshkent. "Akademnashr". - 2017.-B. 10

Hazrat Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub", "Majolis un - nafois", "Mezon ul -avzon" asarlari, XV-XVI- asrlarda qator tazkiralari va musiqa nazariyasiga doir risolalarida nazariy, musiqiy-estetik ta'limotlarida ijrochilik san'ati tajribasi asosida shakllangan bo'lib, musiqaning jamiyatda tutgan o'rni, mohiyati va axloqiy-estetik ahamiyati xususida to'laqonli ifodasini topgan.

Alisher Navoiy badiiy so'z san'atining tarbiyaviy xususiyati, uning qudratini, shoiru san'atkori xulq-odobiga alohida e'tibor qaratgan. Chunki insonning hayoti va faoliyati odob-axloq qoidalari mezoni bilan o'lchanib baholanadi. Shu tariqa hazrat Navoiy badiiy so'z va mutriblarning bilimdonlik, kamtarlik, xushmuomalalik, saxovatpeshalik kabi fazilatlarini ulug'lagan. Ijodda yaratgan qarhamonlarining quvonch-tashvishi, ishq-muxabbi, ayrilik, hijron va armonlarini cholg'u sozlaridan taraladigan kuy hamda ohanglar vositasida badiiy ifodalagan. Shogirdlarini ham shunga da'vat etib, she'riyatning musiqa ilmi bilan o'zaro bog'likligi qonuniyatini chuqur o'zlashtirishini talab qilgan. Musiqaning nazariy asoslarini bilmay turib, yaxshi shoir bo'lish mumkin emasligini shogirdlariga takror-takror uqtirgan.

Xullas, Alisher Navoiy o'zbek adabiyotini yuksak pog'onaga olib chiqqani kabi musiqa san'ati, uning axloqiy-estetik mohiyatini targ'ib etgan hamda rivojlanib, takomillashuviga jiddiy e'tibor bergen. Insonning eng go'zal fazilatlari asosida aqliy, axloqiy va nafosat tarbiyasi turishini bayon etgan. Axloqiy-estetik ta'lim-tarbiya berishning ahamiyatini ta'kidlab, tarbiyachi tarbiya jarayonining sabr-qunt bilan yondashishi lozimligini, bolani go'zallik olami bilan oshno etish, yuksak axloq sohibi, fazilatli qilib kamolga yetkazish g'oyasini ilgari surgan. Buning uning uchun vaqtini ham, kuchni ham ayamaslikka da'vat etgan.

### **2.3. Jadid ma'rifatparvarlarining musiqiy-estetik g'oyalari**

19-asrning oxiri va XX asr boshlarida ma'rifatchi jadid ziylolarining estetik g'oyalari badiiy adabiyot, musiqa va teatr san'ati yetakchi o'rin egalladi Ma'rifatparvarlarning milliy san'at haqidagi qarashlari va badiiy-estetik ijodiyoti Abdurauf Fitrat,

Mahmudxo'ja Behbudi, Abdulhamid Cho'lpon va boshqalar tomonidan rivojlantirildi. Jadid ma'rifatparvar ziyolilari ilmiy-ijodiy va amaliy faoliyatida millatni uyg'otishda estetik tarbiyani muhim vosita sifatida talqin etishgan. Ommaviylik xususiyatiga ega bo'lgan – badiiy adabiyot, musiqa, teatr kabi san'at sohalarida ijod qilishgan hamda ommaviy targ'ibot ishlarini olib borishgan.

Ma'rifatparvarlarning san'at va san'at ta'lim- tarbiyasi haqidagi qarashlari hamda badiiy-estetik ijodiyoti Abdurauf Fitrat, Mahmudxo'ja Behbudi, Abdulhamid Cho'lpon va boshqalar tomonidan rivojlantirildi. O'sha davrning ilg'or estetik g'oyalari mohiyatini mushohada qilsak, shubhasiz ma'rifatparvar jadidlarning estetik qarashlari nechog'lik katta o'rin tutganini anglashimiz mumkin.

Milliy ozodlik harakatlari ta'siri xalqimizning asl, ilg'or ma'rifatparvar ziyoli farzandlari Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho'lponlarning ijodiga o'z ifodasini topdi. Bu haqda ancha ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan va tadqiqot ishlarida bayon etilgan. Jumladan, tadqiqotchi O.O'roqovaning ilmiy ishida Cho'lpon badiiy ijodiyotidagi uning estetikasiga doir tasavvur va tafakkur qirralari, jumladan: ruhiy, ma'naviy tarbiya vositasi; Estetik tuyg'ularni shakllantirishning jozibali omili; Ma'naviyatga yo'naltiruvchi go'zallik manbai; Ijodiy mehnatga yo'naltiruvchi muhabbat nuri; Inson zohiriylari va botiniy madaniyati, tarbiya saviyasining mezoni; Uning nazariy-g'oyaviy saviyasi va mafkurasini o'zgartiruvchi omil sifatida talqin etadi.<sup>1</sup>

Ma'rifatparvarlik madaniyati alohida ijtimoiy estetik tushuncha sifatida namoyon bo'ldi. Mahmudxo'ja Behbudi, Abduqodir SHakuriy, Abdulla Avloniy kabi namoyondalar esa o'z hisoblaridan yangi usul maktablari, kutubxonalar ochdilar, gazeta va jurnallarni chop ettirdilar.

O'zlarini sahna asarlari yozib, o'zlarini aktyorlik qildilar. Ularning barcha sa'y-harakatlari o'z xalqini ma'rifatli qilishga qaratilgan edi.

<sup>1</sup> O'roqova O.J. "Cho'lpon badiiy ijodining konseptual-estetik asoslari". Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (Ph.D) dissertatsiya avtoreferati. -Toshkent.-2018 y.- B.11-12.

Millatning maorif fidoyilar A.Fitrat, G'Zafariy, A. SHakuriy, M.Bexbudiy, CHo'lpon, A. Avloniyalar tomonidan musika tarixi, uning tarakkiyoti masalalari, milliy musiqiy ta'lim-tarbiyaning ayrim jihatlari, o'zbek musiqa san'ati va madaniyati tarixi sahifalari yoritildi. Musiqa, badiiy so'z san'ati vositasida estetik tarbiyaning imkoniyatlari oydinlashtirildi.

O'zbek musiqa san'ati va madaniyatining rivojlanish tarixida o'zining zaxmatli mehnatlari, jasorati, mardligi, qalbidagi millat tuyg'usining yuksakligi, o'z xalqiga bo'lgan cheksiz mehr-muhabbatning samarasi natijasi o'laroq, halqimizning sodiq farzandi Abdurauf Fitrat (1886-1938 y) yorqin iz qoldirdi.

A.Fitrat musiqani qalban sevgan, ardoqlagan, e'zozlagan, ashulani, qo'shiqni va musiqani g'oyat chuqur, nozik his qilgan, kuylardagi har bir zARBning o'rINli yoki o'rINSIZLIGINI tez payqaydigan inson bo'lgan. Maqom va maqom yo'lidagi asarlarni ta'lim tizimiga kiritish masalasi jadidlarning ham diqqat markazida bo'ldi. YOshlarga milliy musiqa tarbiyasi berish masalasi ham Fitratning o'z halqiga bo'lgan cheksiz-muhabbatining ramzidir.

Musiqiy-ma'rifiy faoliyatning namunasi sifatida Abdurauf Fitrat 1921 yil 10 avgustda Buxoro hukumati farmoni bilan 1-SHark musika maktabini tashkil etdi. Унда bolalarга мусиқа сабоқлари устоз-шогирд анъанаси асосида olib borilar, талабаларнинг мусиқий-estetik didi va ehtiyoji tarbiyalanar edi.

Musiqa maktabida Ota Jalol, Ota G'iyos, Domla Halim Ibodov, Usto SHodi, Hoji Abdurahmon kabi ustozlar maqom va maqom yo'lidagi kuy-ashulalarni, ularning usullarini yosh talabalarga o'rgatishar edi. Mashhur hofiz-sozandalar maktabda murabbiy sifatida faoliyat ko'rsatib o'zlarining ijrochilik faoliyatlarini musiqiy pedagogik ishlari bilan uyg'un holda amalga oshirishgan.

Abdurauf Fitrat milliy musiqadan insonlar ma'naviy kuch-quvvat olishini teran anglagan. Milliy musiqa va madaniyati orqali axloqiy bilimlarni ongli ravishda o'zlashtirib, his-tuyg'ularni shakllantirish, yurtga sadoqat, milliy qadriyatlariga hurmat kabi

sifatlarni singdirish maqsadga muvofiq ekanligini targ'ib etib, bunda milliy musiqa imkoniyatlarini samarali foydalanish lozimligini ta'kidlaganlar.

A.Fitrat 1926-yillarning boshida atoqli etnograf-musiqashunos Viktor Uspenskiyni taklif etib, Buxoro "Shashmaqom" ining mashhur bilimdonlari va ijrochilari Ota G'iyos mashg'ulot yo'lini, Ota Jaloldan esa nasr yo'lini yozdirib oladi. Abdurauf Fitratning "O'zbek klassik musikasi va uning tarixi» kitobi, "O'zbek musikasi to'g'risida" makolalarini kelajak va hozirgi avlodlar uchun katta ma'naviy boylik holida saqlanib qoldi.

O'sha davrlarda A.Fitratning uyida musiqiy- ma'rifiy kechalar bo'lib turgan. Unda shoirlar, olimlar va musiqashunoslar Domla Halim Ibodov, Ota G'iyos, Ota Jalol, Abduqodir Ismoilov, Abdurahmon Umarov kabi usta san'atkorlar ishtirok etganlar. Bahs-munozaralarda Sharq musiqasining xususiyatlarini, usullari va nozik jihatlari to'g'risida qimmatli fikr va mulohazalar bildirilgan.

Ulug' ma'rifikatparvar Abdulla Avloniy (1879-1934yy) ijodi va faoliyatida ham yoshlarga axloqiy va musiqiy - estetik tarbiyasiga alohida e'tibor qilishga da'vat etgan. Abdulla Avloniy 1908-yilda Toshkentning Mirobod mahallasida yangi usuldag'i maktab ochib darslarda musiqa va ashuladan samarali foydalangan. Musiqa tarbiyasi vositasida axloqning go'zal va chiroyli bo'lishini ta'kidlagan: Bolaning salomatligi va saodatli kamolotini ta'minlash uchun yaxshi tarbiyalash, go'zal xulqlarni o'rgatmish lozimligi, yomon xulqlardan asrab o'sirmaqdur. Axloqimiz binosining chiroyli va go'zal bo'lishiga tarbiyani zo'r ta'siri bordur. Har bir millatning saodati, davlatning tinch roxati, yoshlarning yaxshi tarbiyasiga bog'liqdur".<sup>1</sup>

Abdulla Avloniy musiqa san'atini qanchalik chuqur idrok etganligini o'zining ko'pgina she'rlarini ommabop xalq qo'shiqlariga, maqom yo'llaridagi kuylarga moslab yozganligidan bilish mumkin. Abdulla Avloniy o'zbek teatr san'atining asosi

---

<sup>1</sup> Turkiy Guliston yoki axloq 16-bet Toshkent 1992 y.

bo'lgan Yevropa tipidagi "Turon" truppasini tashkil topganidan boshlab, unga atab ma'lum va taniqli kuylarga moslab ko'pgina she'rlar yozgan, ashulalarga kuy tanlagan. Sahna san'atining tarbiyaviy ahamiyati, imkoniyatlarini ta'riflab, teatr san'ati har bir millatning yomon urf-odatlarini yo'q qilish uchun, ahvolini tuzatish uchun oyna bo'lib xizmat qiladi,- deb ta'rif etadi.<sup>1</sup>

G'ulom Zafariy ham o'zining ijodida milliy musika tarixi, uning rivoji, o'ziga xos xususiyatlari masalalarini tadqiq etdi. Unafaqat musiqa haqidagi risola, maqolalari bilan balki Turkiston Respublikasi maorif Xalk Komissarligi San'at bo'limi qoshida musiqa-etnografik komissiyasining a'zosi sifatida o'zbek musiqa folklorshunosligiga, xalq musiqasini to'plash, tiklash hamda xalqni milliy musiqa ruhida estetik tarbiyalash sohasida ham xayrli ishlarni amalga oshirgan.

Milliy musiqa san'ati, uning ta'lim va tarbiyasi masalalari haqida o'sha davr matbuotida, keng yig'inlarda har xil munosabatlarini bayon etdi. G'ulom Zafariy "Musiqa muammosi", "Sharq kuylari va cholg'ulari", "O'zbek musiqasi to'g'risida" kabi mavzulardagi makolalarida milliy musiqamiz tarixini yoritgan, "Farg'ona-Toshkent" maqom yo'llarini tavsiflagan, mumtoz kuy-qo'shiqlarning o'ziga xos xususiyatlari, ijro uslublarini ta'riflagan.

O'zbekiston san'ati tarixi sahifalarida aks ettirilishicha, XX asr 30-yillarining oxirigacha milliy musiqa san'ati estetikasi e'tiborda bo'lgan. Bu, albatta musiqa maorifiga xam ijobiy ta'sir etgan. Ilk milliy badiiy havaskorlik to'garaklari, maktablar, maktab-internatlar, texnikumlarda tashkil etilib, ularda xalqning mashhur hofiz-sozandalari rahbarlik qilishgan.

"O'zbekiston maktablarida badiiy tarbiya berish to'g'risida"gi (1937 y.) Maorif Xalq Komissarligining qarorida quyidagi vazifalarga alohida e'tibor qaratgan. Jumladan,

- maktablarda bolalar uchun drama, musiqa, xor, rasm, badiiy havaskorlik va boshqa to'garaklarni tashkil etish, to'garaklar maktab dasturi asosida, maktab rejimini buzmagan holda ishlashlarini ta'minlash

---

<sup>1</sup> Avloniy A. Tanlangan asarlar. 2 jildlik. 2- jild.-T., "Ma'naviyat". 1998 . 221-bet.

- tuman va shaharlarda kattalar kuchi bilan badiiy havaskorlikning barcha turlari bo'yicha bolalarga xizmat ko'rsatuvchi muassasalar tashkil etish;

- badiiy havaskorlikning barcha turlari bo'yicha bolalar badiiy ko'rige tashkil etish;

Bu vazifalarni amalga oshirida musiqa maorifi madaniyati targ'ibotini yoshlar ta'lim-tarbiyasiga tatbiq etish, albatta mutaxassis kadrlar tayyorlash, ularning malakasini muntazam oshirib borishni taqozo etar edi. Buning uchun musiqa darslarini muntazam ta'minlash muhim omil edi. O'sha davr metodikasida darsda asosiy faoliyat sifatida xor bo'lib kuylash mashg'ulotiga e'tibor qaratilardi. Biroq, musiqa vositasida musiqiy- badiiy tarbiya berishda bolalar vokal-xor malakalarini rivojlantirish borasida o'sha davr amaliyotida kuzatilgan chinqirib kuylash, o'kuvchilar yoshi, qiziqishiga mos repertuar tanlashdagi kamchilik, bolalar ovozi bilan ishlash va uning tarbiyasi muammolariga ham tez-tez duch kelinardi.

Musiqa mashg'ulotlari asosan o'sha davrning namuna-tajriba maktablarida, maktab internatlarida yaxshi yo'lga qo'yilgan. O'qituvchilar doimiy ravishda ko'pincha sinfdan tashqari mashg'ulotlar o'tkazib, yaxshi tarbiyaviy natijalarga erishish uchun harakat qilganlar. maktab jamoasi hayotiga axloqiy-estetik me'yorlar va qoidalarni ko'proq olib kirishga intilganlar.

1938-yil 20-mayda "O'zbekistonda san'atni keyingi rivojlantirish tadbirlari to'g'risida"gi maxsus Qarori Xalq maorifining rivojiga, maxsus musiqa ta'limi muassasalarining ochilishiga va kadrlar tayyorlash ishida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Unda o'sha davrda to'plangan ijobiy tajribalar ta'kidlandi. Musiqa o'quv yurtlarini mutaxassis kadrlar bilan ta'minlashga e'tibor kuchaytirish zarurligi ma'lum bo'ldi. Musiqaga birmuncha iqtidorli bolalar uchun maxsus musiqa internatlari tashkil etildi. Musiqa san'ati - bolalar va yoshlar hayotida muhim tarbiya vositasi, ularning ma'naviy rivojlanishidida muhim omil sifatidagi ahamiyati oshib bordi.

## **2.4. Pedagogika va psixologiya fanlarida estetik tarbiya muammolari**

Estetik tarbiyaning nazariy jihatlarini nafosatshunoslik ilmining etakchi olimlari, pedagoglar, psixologlar, san'atshunoslar o'zlarining tadqiqot ishlarida talqin etishgan. Rus olimlari tomonidan pedagogika va psixologiya fanlarida estetik tarbiya muammolari va uning echimlari ancha keng o'r ganilgan. Jumladan, A.I.Burov, M.S.Kagan, V.A.Razumniy, N.I.Kiyashenko va boshqa tadqiqotchilar tomonidan estetik tarbiyaning umumiylarini, mohiyati va vazifalari tadqiq etilgan bo'lsa, L.I.Bojovich, V.S.Ilin, I.F.Goncharov, D.B. Kabalevskiy, E.V.Kvyatkovskiy, B.M.Nemenskiy. N. A. Kushaev, B.T.Lixachev, S.T.Shatskiy va boshqa olimlar tadqiqotlarida estetik tarbiya qirralari, estetik, badiiy faoliyat turlari va ularning mazmun-mohiyati o'z aksini topgan. Shuningdek, F.G. Nikitina, K.B.Semyonova, K. I. Buzarova, G. N.Volkova, I.A.Sharova kabilarning ilmiy ishlarida estetik va badiiy tarbiya tizimini yanada rivojlantirish, mutaxassis kadrlarni tayyorlashni yanada takomillashtirish masalalari tadqiq etilgan.

Xorijiy mamlakatlarda musiqiy-estetik ta'lif-tarbiyaga oid konsepsiylar mualliflari: D.B.Kabalevskiy (Rossiya), Z.Koday (Vengriya), K.Orf (Germaniya), Per van Xauve (Gollandiya), Boris Trichkov (Bolgariya) va boshqalar o'zlarining musika tarbiyasi Konsepsiya (sistema) larida o'kuvchi-yoshlarini ommaviy tarzda musika san'atiga jalb etish metodlari tatbiq etilgan. musika vositasida estetik tarbiyalash masalalariga jiddiy yondashilganlar.

Musiqiy-badiiy ijod bilan shug'ullanish, estetik tarbiya nazariyasi kabilar yosh avlod estetik tarbiyasining omillari hisoblanadi. O'zbekistonda XX-asrning 80-90 yillari davomida maktab o'quvchi- yoshlarining badiiy ta'lif va estetik tarbiyasi muammolar va ularning echimiga doir pedagogika, estetika sohasi olimlaridan S.Fayzulina S.K.Annamuratova, O.Musurmonova, H.Nurmatov, R.Xasanov tadkikotlarida ta'lif-tarbiyaning ilmiy-pedagogik xamda estetik mohiyati ochilgan. Jumladan, professor

S.X.Fayzulinaning “O‘zbekiston o‘quvchilari estetik tarbiyasi tizimining tarkib topishi va rivojlanishi (1987-1980yy), S.X.Yuldoshevning “O‘zbekistonda musika tarbiyasi va ta’limining rivojlanishi” (1985y.), A.SH. Hasanovning “O‘quvchi-yoshlar axloqiy- estetik tarbiyasida xalq musiqasi” (1985y.), S.X.Annamuratovaning “O‘kuvchilar estetik tarbiyasida o‘zbek teatrining milliy an’analari”(1990y), H.Nurmatovning “O‘zbekiston maktablari boshlangich sinf o‘kuvchilarida musiqiy-estetik madaniyatni shakllantirishning pedagogik asoslari” (1994), B. Madrimovning “Xorazm musiqa folklori vositasida o‘quvchilarni estetik tarbiyalashning pedagogik asoslari” mavzusida bag‘ishlangan talay ilmiy izlanishlar amalga oshirildi.

O‘quvchi, talaba-yoshlar estetik tarbiyasi, muammolariga bag‘ishlangan (F.Xalilov, F.To‘rayev, T.Tursunov, A.Qo’shaev, B.Karomatova), musiqiy-estetik tarbiya sohasi bo‘yicha (F. Jo‘rayev, Q.Mamirov, M.Nabiyeva, D.Ro‘ziyev, R.Qodirov) ilmiy - tadqiqot ishlarida o‘z ifodasini topgan.

Oliy ta’lim tizimi talabalarining estetik ta’lim-tarbiyasi muhim ahamiyatga molik masalalardan bo‘lib, bu yo‘nalishda yaratilgan darslik, o‘quv qo’llanmalar<sup>1</sup> ita’lim amaliyotida qo’llanilib kelinmoqda. Jumladan, muallif Abdulla Sher tomonidan “Estetika” darsligi<sup>2</sup> (T., 2007 y.) oliy ta’lim muassasalari bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari uchun tayyorlangan bo‘lib, XIII bobdan iboratdir. “Estetikaning predmeti, tadqiqot doirasi, ahamiyati va vazifalari”, “Qadimgi dunyo xalqlarining estetik qarashlari”, “O‘rta asrlar Sharq mutafakkirlarining estetik ta’limotlari”, “Yangi davr estetikasi”, “Eng yangi davr mutafakkirlarining estetik qarashlari” kabi boblaridan iborat.

---

<sup>1</sup> Э.Умаров, И. Пал. Эстетика (Ўқув қўлланма).-Тошкент.”Ўқитувчи”,-1990 й.

Л.А.Мухамеджанова. Этика ва эстетика фанларини ўқитиш методикаси (Ўқув қўлланма).-Тошкент.-2017.

Г.Носирхўжаева. Этика. Эстетика. (Ўқув қўлланма).-Тошкент.-2006.

Шер Абдулла. Эстетика. Дарслик. Тошкент. 2007 й. -Б. 4-5.

Ғайбуллаев О.М. Эстетик маданият. Монография. –Тошкент. “Наврўз”. -2020

<sup>2</sup> Шер Абдулла. Эстетика. Дарслик. Тошкент.

Darslikning So‘zboshida ta’kidlanganidek, mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan keyin estetika faniga e’tibor kuchaydi, uning ijtimoiy-iqtisodiy hayotdagi o‘rniga, ma’naviy tarbiya borasidagi roliga katta ahamiyat berila boshlandi.

Darslikda estetik tafakkur tarixi, estetikaning umumnazariy masalalari, san’at va uning turlari, badiiy asarni estetik idrok etish bilan birgalikda ilk marotaba o‘zbek estetikasida san’atkor shaxsi va badiiy ijod jarayoniga alohida to‘xtalib o‘tildi”

Estetik tarbiya oldida estetik ongni shakllantirish dolzarb vazifa sifatida jamiyat a’zolarining madaniyatini yanada yuksaltirishga, estetik talab ehtiyojlar va qadriyatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Ma’lumki, san’at kishining his-tuyg‘ulariga badiiy obraz orqali ta’sir ko’rsatib, unda yorqin kechinmalar uyg‘otadi va turli xil tuyg‘ularning shakllanishiga yordam beradi.

Estetik tarbiyada tuyg‘ularning ahamiyati nihoyatda muhim sanaladi. Go‘zallikni chinakamiga tushunish, idrok etish uchun borliq, tevarak-atrofga nisbatan hissiy munosabatda bo‘lish lozim. His-tuyg‘uni esa kichik yoshdan shakllantiriladi. Zero, kichik yoshdagi o‘quvchilarda go‘zallikni his etish va undan zavq olish qobiliyati yaqqol ifodalangan bo‘ladi. Shu bois, “...o‘quvchilar bilan ishlashda bolalarga hayotdagi go‘zallikni ochib berish, ularning ma’naviy qiyofasini boyitish, ularda aktiv ijtimoiy faoliyatga, hayotda eng yaxshi insoniy ideallarning qaror topishi uchun san’atbilan shug‘ullanishning har qanday imkoniyatlaridan foydalanish zarur”.<sup>1</sup>

Musiqiy-estetik ta’lim samaradorligini ta’minlashda, o‘quvchilarning musiqa darsiga bo‘lgan qiziqishini o‘stirishda, albatta o‘qituvchi etakchi hisoblanadi. Shuning uchun uning zimmasiga eng avvalo o‘quvchilarda musiqa san’atiga bo‘lgan qiziqishni va mehr-muhabbatni oshirish, shuningdek, musiqiy faoliyat jarayonida badiiy ijodkorlik va his-tuyg‘ularni rivojlantirish, asarlarning badiiy-g‘oyaviy mazmuni vositasida o‘quvchilarni axloqiy-estetik tarbiyalash vazifalari yuklangan.

---

<sup>1</sup> Savin N.V. Pedagogika. (o‘quv qo’llanma). –Toshkent, 1983. – B. 285..

Ushbu maqsadlarni amalga oshirish uchun o'qituvchi o'zining kasbiy mahorati hamda shaxsiy axloqiy-estetik sifatlariga tayanadi. Musiqa o'qituvchisi o'z kasbi va bolalarga mehr qo'ygan yuksak madaniyatli, pedagogik qobiliyat sohibi, cholg'uni mahorat bilan ijro eta oladigan kasbiy kompetensiyaga ega pedagogik mahorat egasi mutaxassis bo'lmos'i talab etiladi.

O'quvchi-yoshlarni musiqiy-estetik tarbiyalash uchun o'qituvchi pedagogika, psixologiya fanlarini chuqur egallagan musiqa o'qitish metodikasidan keng bilimlarga ega bo'lishi lozim.

## **2.5. Maktabda musiqa vositasida estetik tarbiya va badiiy ta'limning maqsadi hamda vazifalari**

Pedagogikada estetik tarbiya va badiiy tarbiya tushunchalari mavjud. Aslida, estetik tarbiya-bu ancha keng qamrovli tushuncha bo'lib, mehnat va madaniy turmush, kishilarning hatti-harakati hamda o'zaro munosabati, tabiat vositasida tarbiyalanadigan go'zallik tuyg'ularini o'z ichiga oladi. Ta'lim-tarbiya inson shaxsini shakllantiruvchi etakchi omillardan sanalsa, musiqa tarbiyasi, badiiy tarbiya estetik tarbiyaning tarkibiy qismlari hisoblanadi.

Badiiy tarbiya- estetik tarbiyaning asosiy mazmun va maqsadini san'at vositalari yordamida shakllantirishdir. Badiiy tarbiyada adabiyot, musiqa, ashula, tasviriy va san'atning boshqa turlari vositasida shakllantiriladigan tarbiya tushuniladi. San'at sohasida eng sara asarlar hayotni real ifoda ettirib, voqeahodisalarni kishilarning tafakkuri, tuyg'usi hamda xayolot olamiga ta'sir qiladi. Shug'ullanadigan faoliyatiga yangilik, ilg'orlikka hamisha da'vat etib turadi.

Estetik tarbiyaning ham badiiy tarbiyaning ham o'z xususiyatlari mavjud bo'lib, ularni bir-biriga tenglashtirish ham yoki qarama-qarshi qo'yish ham kerak emas. Shuni nazarda tutish lozimki, estetik tarbiya keng qamrovli tushuncha bo'lib, san'at bilan chegaralanib qolmaydi, balki uning asosiy mazmuni insonning voqelikka estetik munosabatini faollashtirish va rivojlantirishdan iboratdir.

San'at vositalari yordamida munosabatlarni shakllantirish - badiiy tarbiyaning asosiy maqsadidir. Estetik va badiiy tarbiyaning umumiylig jihatiga kishining ma'naviy hayotida, mehnati jarayonida tabiat va san'atga bo'lgan muloqotida estetik voqealar bilan doimiy o'zaro munosabatda bo'ladi. Xuddi shu jarayonda ularning go'zalligi va xunukligi, foziali va kulgili jihatlari namoyon bo'lib boradi. Zero, estetik savodxonlik darajasi estetik rivojlanish badiiy ta'lim shaxsning har tomonlama yetuk darajada rivojlanishi omilidir.

Estetik didni shakllanishiga katta ta'sir o'tkazadi. Inson o'zligini o'zining estetik didi orqali namoyon qiladi. Did insonning samarali faoliyati vositasida ham shakllanadi. Estetik did - inson aqliy va ruhiy olami, orzu-umidi, murod-maqsadi, talab, ehtiyoj, manfaatlarining ruyobga chiqishini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Estetik tarbiyada ehtiyojlarni shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Zero, inson talab-ehtiyojlari estetik tarbiyada o'rni alohida. Chunki insonning talab-ehtiyojlari madaniyatida muayyan mezon tuyg'usi ham mavjud bo'lishini, bu mezon tuyg'usi esa shaxsiy ehtiyojni jamiyat ehtiyoji bilan uyg'un tarzda qo'shib olib borishni talab etadi. Mazkur mezon tuyg'usiga kamolotga erishish estetik tarbiyaning eng muhim vazifalaridan biridir.

Estetik ehtiyojlarni shakllantirish- estetik tarbiyada muhim ahamiyatga egadir. Zero, estetik tarbiyaning inson talab-ehtiyojlari madaniyatini shakllantirishdagi o'rni ham beqiyos. Chunki insonning talab-ehtiyojlari madaniyatida muayyan mezon tuyg'usi ham mavjud bo'lishini, bu mezon tuyg'usi esa shaxsiy ehtiyojni jamiyat ehtiyoji bilan uyg'un tarzda qo'shib olib borishni talab etadi. Mazkur mezon tuyg'usida kamolotga erishish estetik tarbiyaning eng muhim vazifalaridan biridir.

Estetik ehtiyoj faqat moddiy va ma'naviy go'zalliklarndan bahramand bo'lish va zavqlanishgina emas, balki uning yaratuvchanlik xususiyatiga rioya qilishini ham bildiradi. Shu bois, estetik tarbiya- hayotda faoliyat turlari-o'qish, mehnat qilish, turli

darajadagi tadqiq etish, izlanishlari, jamoviy faoliyat jarayonlarida tatbiq etilishi lozim bo'ladi.

O'smir yoshdagi o'quvchilarning musiqiy- estetik tarbiyasi va rivojlantirishi muayyan tizimi yordamida amalga oshadi. Estetik tarbiyani tashkil etish tizimida esa qator tamoyillar yotadi. Estetik tarbiyani amalga oshirish tizimi yana barcha tarbiyaviy ishlarga yaxlit yondashuv tamoyiliga asoslanadi. O'quvchilarning estetik tarbiyasida san'at barcha turlarining o'zaro harakati-badiiy asarlar, tasviriy san'at, musiqiy savodxonlikni oshirishda o'zaro bog'liqlik asosida amalga oshadi. Bundan tashqari estetik tarbiya fan, mehnat jismoniy madaniyat, estetik munosabat, hayot va turmush go'zalliklarini idrok etish hisobiga ham amalga oshadi.

O'quvchilarning butun badiiy-estetik faoliyatini hayot, jamiyatning amaliy taraqqiyotida muhim bo'lgan ikki jihatga, ya'ni dunyoqarash va axloqiylikni shakllantirish jarayoni bilan o'zaro aloqadorlik tamoyiliga tayanadi.

O'quvchilarning his tuyg'ularini tarbiyalab, ongli-emotsional munosabat bildirish va asar badiyligini munosib baholash kabi estetik tajribasini boyitish, ularda musiqiy tafakkurni rivojlantirish, musiqiy-badiiy ijodiyotga qobiliyatini rivojlantirish - mактабда мусиқа вositasida estetik tarbiya va badiiy ta'limning asosiy maqsadi iborat. Bunda 3 yo'nalish muhim:

- O'quvchilarda musiqa asarlariga nisbatan estetik munosabatni rivojlantirish.
- O'quvchilar his-tuyg'ularini boyitish.
- Musiqa asarlarini tinglash, hissiy idrok etish va uni tahlil qilish.

Maktab o'quvchilari ta'lim jarayonida musiqa san'atining turlari, janrlari, milliy merosimiz, umumbashariy musiqa namunalari bilan tanishadilar. Musiqiy-estetik faoliyat turlari va ularning o'zaro bog'liqligi asosida amalga oshiriladi.

Bular:

- 1.Musiqa tinglash va uni tahlil qilish.
- 2.Jamoaviy aytim.

### 3.Musiqqa savodxonligi

4.Bolalar musiqqa cholg'ularida jo'r bo'lish.

5.Musiqiy ritmik harakatlar.

6.Musiqqa ijodkorligi

Musiqiy - estetik faoliyatining turli ko'rinishlaridan keng foydalanish o'quvchilarning musiqiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga, ularda badiiy qiziqishlarni uyg'otishda muhim ahamiyatga ega. O'quvchilar musiqiy-estetik faoliyatining muvaffaqiyati asosan o'quvchilarning san'at turlarini o'rganishga ehtiyoj, musiqiy hamda ijodiy faoliyatdan qoniqish hosil qilganlarida namoyon bo'ladi.

Estetik tarbiyaning zamonaviy tizimi falsafiy, pedagogik-psixologik, san'atshunoslikka oid tadqiqotlarva ularning natijalariga asoslanadi va shaxsning ma'naviy kamoloti va hayotdagi va san'atdagi go'zallikni idrok etishga bo'lgan ijobiy munosabat, ijodiy yaratuvchanlik sifatlarini ham takomillashtiradi.

Estetik tarbiya boshqariladigan pedagogik jarayon sifatida muayyan maqsadga qaratilgan, shaxsning estetik did, qiziqish va ma'naviy ehtiyojlarini tarkib toptiradi. Estetik tarbiyaning vazifasi – borliqqa, voqelikka nisbatan estetik munosabatni shakllantirish va nafosat qonuniyatlari asosida ijodiy faoliyatni aktivlashtirishda amalga oshiriladi. Bolani borliqdagi barcha go'zalliklarni faqat tuyg'ular vositasida idrok qilishga o'rgatish bilan birga, ana shu go'zalliklarni o'zlarining haётida qo'llashga o'rgatish ham muhim vazifadir. Demak, go'zalliklarni his qilishgina emas, ularni o'z tasavvurlarida boyitish, hamda takomillashtirib borish o'quvchilarni estetik tarbiyalashda amaliy ahamiyatga ega.

Estetik tarbiya asosi sifatida Hissiy idrok etish ehtiyoji va qobiliyatini shakllantirishdir. Estetik tarbiya oldiga talaygina ulug'ver vazifalarni qo'yadi. Ulardan eng muhimi kishilarda san'at asarlari, badiiy ijod namunalarini nafaqat faol o'zlashtirish balki, ularning estetik mohiyatini anglash va baxolash qobiliyatini takomillashtirish, jamiyat a'zolarining ijodiy imkoniyatlarini

namoyon qildirish hamda ulardan foydalana bilishga ishonch tuyg'usini uyg'otishdir.

Estetik his-tuyg'u-insonning voqelikka, kishilarga, o'z faoliyatiga nisbatan bildiradigan munosabatidir. Bu tuyg'u bizni o'rab turgan borliqni estetik jihatdan hal eta olish qobiliyati, uning go'zalligi, nafisligi, uyg'unligini sezishdir.

Kishining o'z faoliyatiga nisbatan bildiradigan munosabatida his-tuyg'u nihoyatda muhimdir. Bu tuyg'u bizni borliq va san'atdagi go'zalligi, nafisligi, uyg'unligini sezishdir. Estetik tuyg'u ijtimoiy va tabiat hodisalarining go'zalligidan, inson nafosati, mehnati, ijtimoiy faoliyat va san'atdagi go'zallikdan zavq olish holatlarida namoyon bo'ladi.

O'z ishining ustasi, fidoiy, insonda mehnatidan faxrlanish, hayotidan mammunlik tuyg'usi ustuvor bo'ladi. Insonga estetik zavq-shavq ham shu tuyg'u asosida uyg'onadi.

Inson barcha turdag'i faoliyatida estetik tuyg'u hamda estetik didning ustuvor bo'lishini ta'minlash estetik tarbiya vazifasidir. Shuning uchun ham estetik tarbiya insoniy munosabatlarga, uning imkoniyatlariga uyg'un singib ketishi bilan o'z vazifasini to'laqonli ravishda bajargan bo'ladi. Zero, jamiyatimizda bugungi kunda inson o'z faoliyatini samarali tashkil etishiga ehtiyoj ortib borayotganligi bilan izohlanadi.

Estetik tarbiya deganda, biz voqelikdagi, san'atdagi go'zallikni to'g'ri anglash, idrok etish qobiliyatini tarbiyalash, go'zallikka mehr tuyg'usini hamda go'zallikni ijodiy ravishda haётga tatbiq etish qobiliyatini tarbiyalash, - deb tushunishimiz kerak.

Shunday qilib, estetik tarbiya - bu estetik jihatdan rivojlangan va ijodiy faol bo'lgan inson shaxsini shakllantirish demakdir. Estetik tarbiya insonparvarlik xususiyatiga borliqni nafosat qonunlari asosida idrok etish, munosib baxolash va shaxsini shakllantirishga mo'ljallangan ta'lim-tarbiya sohasidir.

Xullas, estetik jihatdan rivojlangan va ijodiy faol bo'lgan inson shaxsini shakllantirish estetik tarbiya demakdir.

### ***Nazorat uchun savollar:***

- 1. Estetik tarbiya tushunchasini qanday izohlaysiz?*
- 2. Sharq donishmandlarining musiqiy-estetik tarbiya xususidagi qarashlarini bayon qiling.*
- 3. Pedagogika va psixologiya fanida estetik tarbiya va badiiy ta'lim sohasi olimlaridan kimlarni bilasiz?*
- 4. Maktabda musiqa vositasida estetik tarbiya va badiiy ta'limning maqsadi nimadan iborat?*
- 5. Musiqa madaniyati darslarida foydalaniladigan musiqiy-estetik faoliyatlarni izohlang.*

### ***Mustaqil ta'lim uchun topshiriqlar:***

- 1. Estetik tarbiya va badiiy tarbiya tushunchalarining umumiy xususiyati hamda o'ziga xos jihatlarini o'rganing*
- 2. Estetik tarbiya va badiiy ta'lim sohasi olimlarining ilmiytadqiqot ishlari haqida ma'lumotlarni o'rganing.*
- 3. Milliy o'quv dasturida o'quvchilarda estetik tarbiya va badiiy ta'lim masalalarining mazmun-mohiyatini o'zlashtiring.*
- 4. Maktabda o'quvchilarning musiqiy-estetik faoliyati bilan tanishing.*

### **III MAVZU. MUSIQA DARSLARIDA O'QUVCHILARNI ESTETIK TARBIYALASH METODIKASI VA USULLARI**

**Tayanch tushunchalar:** estetik talab va ehtiyoj, voqelik va san'at, estetik mohiyat, badiiy-estetik ko'nikma, estetik munosabat, musiqa ta'limi konsepsiyasi, musiqiy-badiiy vositalar, musiqiy qadriyatlar, individual xususiyatlar.

#### ***Reja:***

- 3.1. Maktabda estetik tarbiya muammosi
- 3.2. Musiqa o'quvchi salomatligini mustahkamlash vositasi
- 3.3. Musiqa madaniyati darsi- estetik tarbiyaning asosi sifatida
- 3.4. Darsda o'quvchilarni musiqiy-estetik tarbiyalash usullari.

#### **3.1. Maktabda estetik tarbiya muammosi**

Har bir tarbiya turining o'ziga xos metodikasi mavjud. Metodika - aniq faoliyat turidir. U metodologik tamoyillardan farq qilsa-da, ularga asoslanadi. Musiqa madaniyati darslarida o'quvchilarning estetik tarbiyasini amalga oshirish o'qituvchi pedagogik faoliyatining asosidir. Estetik tarbiya-bu, eng avvalo, tabiat, jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarda namoyon bo'ladigan go'zallikni estetik jihatdan idrok etish va baholashga qodir.

Estetik tarbiyada borliqdagi go'zallik san'atda go'zallik manbai ekanligini, estetik munosabat esa go'zallik qonuniyatları asosida ijod qilishga intilish ekanligini anglatadi. Ilmiy-metodik jihatdan, maqsadga yo'naltirilgan estetik tarbiya o'quvchining eng avvalo o'zligini anglashi, erkin rivojlanishi va kamol topishi uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Estetik tarbiya qoidasi xususida juda ko'p ta'riflar mavjud bo'lib, uning asl mohiyati haqida qoidalarni ajratib ko'rsatish mumkin bo'ladi:

1. Estetik tarbiya, eng avvalo maqsadga yo'naltirilgan ta'sir jarayonidir.

2.San'at, jumladan musiqa san'ati va hayotning go'zalligini hissiy idrok etish, unga munosib baho berish qobiliyatini shakllantirish,

3.Musiqiy-estetik did, qiziqish va ehtiyojni shakllantirishdir.

4.Mustaqil musiqiy-badiiy ijod qilish qobiliyatini rivojlantirish.

Shunday qilib, musiqiy-estetik tarbiya muammosining mohiyatini bunday tushunish uning maqsad va vazifalariga, ayniqsa, hozirgi davrda jiddiy e'tiborni talab qiluvchi turlil yondashuvlarni aks ettiradi. Uning mazmuniy asosida inson har tomonlama rivojlanishining muhim vositasi sifatida estetik tarbiyaning nazariyasi va amaliyoti muammolariga e'tibor kuchaydi.

Ayniqsa, musiqa madaniyati fanining milliy o'quv dasturida mактабда талаб- о'кувчи-юшларни эстетик тарбиялаш имконият ва педагогик шарт-шароитларидан кенг foydalanish talabi qo'yildi. Darhaqiqat, estetik tarbiyaning ilk asoslarini o'quvchi mактабда badiiy turkum fanlari mashg'ulotlaridan oladi. Butun hayoti uchun go'zallikni his etish, anglash, idrok etish tuyg'ulari shakllanadi, san'at asarlarini badiiy jihatdan munosib baholash, qadrlash, badiiy ijod bilan shug'ullanish kabi malaka va ko'nikmalari shakllanib, rivojlanib boradi. Zero, inson san'atdan zavq olishni o'rganishi va buning uchun muayyan tushuncha, ma'lumotlarga, tayyorgarlikka ega bo'lishi kerak, degan qoidaning keng tarqalganligi ham bejiz emas.

Musiqa madaniyati o'quv predmeti o'quvchilarning ma'naviy, badiiy va axloqiy madaniyatini shakllantirishga, milliy g'urur va vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishga mahorat, nafosat, badiiy didni o'stirishga, fikr doirasini kengaytirishga, mustaqillik va tashabbuskorlikni tarbiyalashga xizmat qiladi.Ushbu fan umumiyligi ta'lim maktablarida o'qitiladigan barcha o'quv predmetlari, ayniqsa amaliy fanlar adabiyot, tasviriy san'at, texnologiya (mehnat ta'limi) kabi fanlar bilan o'zaro uzviy bog'lanadi.

Darsni rejalashtirish, unga tayyorgarlik o'qituvchi pedagogik faoliyati, ish tajribasi, mahorati, kasbiy layoqatiga bog'liq. Bu esa musiqa materialining tarbiyaviy, ta'limiylar va rivojlantiruvchi imkoniyatlarini, shuningdek ularni tadbiq etish yo'llarini ta'minlaydi. Darhaqiqat, musiqiy tarbiya vazifalarini muvaffaqiyatli amalga oshirish- asarni chuqur o'ganishni talab etadi. Ularni tanlab olish esa o'quvchilar musiqiy tayyorgarligi hamda yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq sanaladi.

Maktabda estetik tarbiya muammosi eng avvalo, yoshlarning muammosidir. Estetik tarbiya-voqelik va san'atdagi mavjud go'zallikni teran his etish, qiziqish, did, qobiliyatlarni shakllantirish, qolaversa, san'at va hayotda go'zallikni yaratish jarayonida ishtirok etish ehtiyojini rivojlantiradi.

Inson estetik tuyg'ularining shakllanishi va rivoj topishida tabiat va unda sodir bo'ladigan turli voqealar ta'sir qiluvchi omillardir. Ushbu omillar his-tuyg'u ta'siri etishi natijasida ulkan estetik taassurotlar shakllanadi.

Maktabda o'quvchilarning estetik ehtiyojlarni rivojlantirish, avvalo ularga atrof-muhit, uning hodisalariga qiziqish uyg'otish va munosabatini tarbiyalashdan boshlanadi. Biroq, san'at, ayniqsa, musiqa vositasida estetik tarbiyalash zamonaviy ta'larning muhim va dolzarb pedagogik muammolaridan biridir. Zero, musiqa-san'atning ifodali turi tizimiga kiradi. U voqelikdagi inson ichki ma'naviy dunyosi, uning tuyg'ulari, kayfiyatini ifodalaydi.

Musiqa shaxs faoliyati davomida turlii sohalar bilan aloqaga kirishadi. Ta'lim va mehnat jarayonlari, turli urf-odat va marosim, tadbirlerda ishtirok etadi. Eng muhimi musiqa kishilarni muayyan bir maqsad sari undaydi, tarbiya vositasi sifatida esa insonda yuksak did, aql-zakovat, fahm-farosat, nozik did, teran fikr-tuyg'ularni shakllantirib, qobiliyatlarini rivojlantiradi. Ayniqsa, o'zbek milliy musiqasi, maqom san'atida xalqning tarixi, falsafasi, qayg'u-hasratlari, orzu-umidlari o'z ifodasini shu qadar teran topganligi bois, asrlar davomida o'lmas milliy- ma'naviy merosi sifatida qadrlanib kelinadi.

Musiqa san'atning raqs, qo'shiq turlari bilan uzviy qo'shib, ularga etakchilik qilsa, sahna, kino va televideenie musiqiy-badiiy asarlarni omma orasida targ'ibot ishlarini olib boradi hamda estetik tarbiya jarayonlarini yanada faollashtirishga xizmat qiladi.

Xullas, maktabda musiqiy-estetik tarbiya estetik his-tuyg'ular, estetik tasavvur, estetik idrok, estetik ko'nikma, malaka va odatlar tarbiyasini amalga oshiradi. Estetik tarbiyada bolalarning boshqalar hatti-harakati, xulq-atvori va o'zi faoliyatiga baho berish qobiliyatini o'stirish muhim rol o'ynaydi.

### **3.2. Musiqa - o'quvchi salomatligini mustahkamlash vositasi**

Shaxsni shakllantirishda musiqaning roli nihoyatda katta. O'quvchilarni ruhan tetik, jismonan sog'lom bo'lib tarbiyalanishida musiqaning o'rni alohida. Sog'lom bolada estetik tafakkur etishni o'stiradi. Shuning uchun o'quvchi-yoshlar o'zlarini hayotining hamma sohalarini estetik qonuniyatlar, qoidalar, talablar asosida tashkil etmoqlari talab etiladi.

Estetik tarbiyani amalga oshiruvchilarda olivjanoblik, yuksak pok qalb hamda tuyg'ularga ega bo'lishi talab etiladi. Shuni ham ta'kidlash joizki, estetik tarbiya axloqiy va aqliy tarbiyani amalga oshirishga nisbatan ancha qiyin. Buni estetik tarbiya inson ruhiyat va kayfiyati, sezgilari, tuyg'ulari bilan bevosita bog'liqligi orqali hamda odamning butun ma'naviy olamini to'la qamrab olishi bilan izohlash mumkin.

Ta'lim muassasalarida amalga oshiriladigan musiqa ta'limi mohiyatida milliy musiqa merosimiz va umumbashariy musiqa namunalarini egallab, musiqiy madaniyat asoslarini o'zlashtirayotganligini ko'rishimiz mumkin. Musiqaning nafaqat estetik tarbiya vositasi, balki salomatlikni tiklash va mustahkamlash vositasi sifatida ham talqin etiladi. Musiqiy ta'lim mashg'ulotlaridagi musiqa tinglash, ovoz sozlash, jamoaviy aytim, musiqiy ritmik harakatlар, musiqiy talaffuz mashqlarida bola sog'ligi uchun muhim muolajalar mavjud ekanligini e'tirof etish juda muhimdir. Jumladan, musiqa mashg'ulotlarining jamoaviy aytim, ya'ni birgalikda qo'shiq kuylash faoliyatida "R" tovushini

to'g'ri talaffuz kila olmaydigan, gapirishda qiyinchiliklarga uchraydigan ayrim bolalarning talaffuzi yaxshilanadi.

Garchand musiqa - insonning eshitish organi vositasida idrok etilsa-da, u organizm faoliyatining umumiy holati – qon aylanish tizimi, nafas olish jarayonlariga ham ta'sir qiladi. Qo'shiq kuylash esa ovoz apparatini rivojlantiradi, mustahkamlaydi, nutqni, talaffuzni yaxshilaydi. Jamoaviy aytim jarayonida qomatni to'g'ri tutib o'tirish ham nafas olish tizimi faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Musiqadagi barcha dinamik, ritmik va ijro sur'atiga daxldor ifoda vositalari bolalarni bir ruhiy holatdan boshqa holatga o'tishlariga, mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini o'stirish uchun muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Nafas yo'llari, umurtqa pog'onasi xastaliklari kuzatilgan ayrim bolalarda, stulda to'g'ri o'tirish musiqa cholg'ularini chalish holati, qo'llar harakatidagi joziba mashqlarini bajarish talab etadi.

Musiqiy ritmik harakatlar, raqs mashg'ulotlarida esa nafis harakatlar orqali bolalar umurtqa pog'onalarida uchrashi mumkin bo'lgan kasalliklar oldi olinadi. Raqs va ritmik harakatlar bilan muntazam shug'ullanish jismoniy tarbiyaga baravar ahamiyatga ega. Binobarin, bu mashg'ulotlar qiz bolalarning qomatini tik va go'zal qiladi, ortiqcha vaznni ketkizib, turli xastalik va kasalliklardan himoya etadi. Ritmik harakatlar, raks bolaning sog'ligi va tarbiyasi uchun nechog'lik muxim ekanligini inobatga oladigan bo'lsak, o'rta maktab ta'limi tizimiga ko'shimcha soatlar hisobidan raqs mashg'ulotlarini o'tkazishni yo'lga qo'yish, raqs to'garaklari faoliyatini yanada rivojlantirish mavridi allaqachon kelgan.

Ushbu chora-tadbirlarda, eng avvalo yosh avlodning sog'ligini mustahkamlash maqsadida amalga oshirilishi bolalarning ota-onalariga tushuntirilishi lozim. O'quvchilarning qalbi va ruhiyatini musiqaning sehrli olamiga oshno qilishimiz, musiqa ta'lim-tarbiyasidan bahramand etib, ayniqsa, sog'ligida muammosi bor o'quvchilarning salomatligini yanada mustahkamlash – muhim vazifalardan biridir.

Bugun repperlar deb nomlanuvchi alohida qo'shiqchilar toifasi ham shakllandi. Kutilmagan jihat shundaki, repga kattalardan ko'ra ko'proq ongi shakllanayotgan bolalarda, balog'atga etayotgan bolalarda moyillik kuchli. Afsuski, chetdan kelayotgan "ommaviy madaniyat" mentalitetimizga yot bulgan tushunarsiz harakatlardan xosil bo'lgan beo'xshov "raqs"lar va qo'shiqlar targ'iboti ayrim kliplarda uchrab turibdi. Bu esa inson vujudida asabiylik paydo etib, uni turli ruhiy holatga tushiradi.

Xulosa: musiqa-estetik tarbiyaning eng muhim vositasi sifatida nafaqat musiqiy-badiiy qadriyatlarni idrok qilish barobarida sog'lom estetik did, fahmu-farosat, musiqiy ehtiyojlarning rivojlanishiga, ijodkorlik qobiliyatlarni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirishga olib keladi.

### **3.3. Maktabda musiqa madaniyati darsi- estetik tarbiyaning asosi**

Estetik tarbiya metodikasida musiqiy qadriyatlarni idrok etishi, san'at asarlariga nisbatan ongli-emotsional munosabatda bo'lishi uchun ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda o'qituvchining o'quvchilar bilan hamkorlikdagi faoliyati muhim ahamiyatga ega. Bu ishning samarasi o'quvchining o'ziga xos individual xususiyatlari, musiqiy qiziqish va ehtiyoji, uning umumiy musiqiy qobiliyatining rivojlanish darajasining hisobga olinishi bilan belgilanadi.

Estetik tarbiyani amalga oshiruvchi o'qituvchi-pedagoglardan etarli estetik bilimlar barobaridaasezgirlik, kuzatuvchanlik, emotsiyonallik singari psixik sifatlari rivoj topgan nozik tabiat, saxiy qalb va tuyg'ular sohibi bo'lishi talab etiladi. Zero, estetik tarbiya ahloqiy va aqliy tarbiyani amalga oshirishga nisbatan ancha murakkab. Buni estetik tarbiyaning inson ruhiyati, kayfiyati, his -tuyg'ulari bilan bevosita bog'liqligi orqali hamda insonning butun ma'naviy olamini egallab olishi xususiyati bilan ham asoslash mumkin.

Estetik didi orqali kishi o'zligini, o'ziga xos xususiyatlarni namoyon qiladi. Estetik didda inson aqliy va tuyg'u dunyosi, orzu-

umidlari, talab-ehtiyojlari, umid-maqсадларини ro'yobga chiqishi aks etadi. Inson faoliyatining barcha sohalarida uning didi namoyon bo'lib turadi.

Bugungi kunda o'quvchi-yoshlarning ma'naviy omili sifatida badiiy jihatdan rivojlanishida estetik tarbiyaning ahamiyati va o'rni alohida. Zero, estetik tarbiyani insonda borliqqa nisbatan muayyan estetik munosabatni shakllantirishi bilan ahamiyatlidir.

Estetik tarbiya – insonni ijodkorlikning turli sohalarida muhim bo'lgan qobiliyatlarini rivojlantiradi. Ahamiyatli jihat, yuksak badiiy didni tarbiyalashda musiqa san'ati o'z xususiyati va imkoniyatiga ega. Maktabda estetik tarbiyani amalga oshirish o'quvchilarda yuksak estetik badiiy didni shakllantirish uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratib berish, o'quvchi-yoshlar qalbi va ongiga san'at asarlarining estetik mohiyatini singdirishning muhim omilidir. Shuni inobatga olib, maktabda musiqiy-estetik tarbiyasini amalga oshirishda o'quvchilarning musiqiy ma'lumotlariga alohida e'tibor berish, ularni o'quv dasturi talablariga muvofiq musiqiy nazariy bilim hamda amaliy ko'nikmalar bilan ta'minlash, fanga oid kompetensiyalarni shakllantirilishiga erishish eng muhim vazifalardandir.

Musiqa madaniyati darslari musiqiy-estetik tarbiyaning asosidir. Shuning uchun boshlang'ich sinflardan musiqa mashg'ulotlarini samarali o'tishini ta'minlashda o'quvchilarning mustahkam bilimi va tajribasi kerak bo'ladi. Musiqa madaniyati darsi barcha o'quvchilarni ommaviy jalb qilinishi musiqiy estetik - tarbiya tizimini rivojlantirishga yordam beradi. Bunda estetik turkumdag'i boshqa fanlar, jumladan adabiyot, tasviriy san'at, texnologiya ta'limi kabilar bilan o'zaro bog'liqlik xususiyatini namoyon etadi.

Maktabda musiqa madaniyati fanining o'quv fani sifatida tarbiyaviy vazifasi bir tomondan, maktab o'quvchilarining musiqiy bilim doirasini shakllantirib, rivojlantirishni nazarda tutadi. Shu bois, maktablarda musiqa ta'limi sifat-samaradorligini oshirish, musiqiy faoliyatlar mazmunini yanada takomillashtirish borasida jadal ishlar olib borilmoqda. Maqsad - o'quvchilarning milliy

musiqiy merosga qiziqishini oshirish, musiqiy dunyoqarashini kengaytirish, ularning musiqa san'ati asarlariga nisbatan estetik munosabatini tarbiyalashdir.

Musiqa san'atiga estetik munosabat mazmuni: "Musiqa madaniyati fanini o'rganishdan maqsad konsepsiyaning 3-bobida belgilanganidek,- "O'quvchilarda san'at, badiiy-estetik va ijtimoiy emotsional ko'nikmalar, milliy, umummadaniy qadriyatlarga asoslangan shaxsiy fazilatlar, amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishdir".<sup>1</sup>

Musiqa madaniyati o'quv predmetining asosiy vazifalari etib, musiqiy xotira, diqqat, tasavvur, harakatlar koordinatsiyasi kabi psixologik faoliyatlarni shakllantirish, badiiy va musiqiy didni rivojlantirish; shuningdek:

- o'zbek va jahon kompozitorlari asarlarini tinglab, idrok etishga o'rgatish;
- kuy ohangni ifoda vositalarini his qilish;
- musiqa savodiga oid nazariy bilim (kalit so'zlar) larni bilish va amalda qo'llash;
- kuy va qo'shiqlarni tinglash orqali tuzilishi, janr (ommaviy va professional) jihatlarini bir-biridan ajrata olish ko'nikmalarini shakllantirish;
- vokal-jamoa bo'lib kuylash malakalarini rivojlantirish;
- xalq og'zaki ijodining professional janri, milliy maqom, ijrochilik san'atining mahalliy uslublari xususida muayyan ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iboratligi qayd etilgan.

Amaliy fan sifatida musiqa madaniyati ta'limi o'quvchilda ma'naviy, axloqiy madaniyat asoslarini tarkib toptirish, milliy g'urur, vatanparvarlik tuyg'ularini tarbiyalashda, shuningdek, ijodiy qobiliyat, nafosat, badiiy didni oshirishga keng imkoniyatlarga ega ekanligi uqtiriladi. Shuningdek, o'zbek klassik va zamonaviy san'at haqidagi boshlang'ich bilimlarni o'zlashtirish, musiqiy asarlarni tinglab tushunish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni egallah hamda hayotda qo'llay olish

---

<sup>1</sup> Musiqa madaniyati fanini o'qitish konsepsiyasi. Toshkent. 2021-yil.-B.8.

layoqatini shakllantirish ko'zda tutilgan. Musiqa o'qitish metodikasi umumiy pedagogikaga, uning asoslariga tayanadi. O'quvchilar ijodiy va musiqiy qobiliyatlarining rivojlanishi, musiqiy did, qiziqish, ehtiyoj, hotira va ovoz, musiqani idrok etishda yosh va individual xususiyatlarni inobatga olish, o'quvchilar rivojlanishidagi turli musiqiy faoliyatlarning imkoniyatlari va boshqalar.

Musiqa bilan shug'ullanish, faoliyatda ishtirok etish murakkab psixologik- fiziologik jarayon hisoblangani bois, darslarida vokal-xor ishlari, o'quvchilarni musiqiy-estetik tarbiyalashda ta'limning eng faol shakli sanaladi. Musiqani tinglashda o'quvchilarning diqqat-e'tibori kuchayadi, xotirasi, nutqi rivojlanib, dunyoqarashi kengayib boradi, faolligi oshib qiziqish va ehtiyojlari rivojlanadi.

Musiqa madaniyati fani bo'yicha o'quvchilarga sinflar kesimida qo'yiladigan talablarda estetik madaniyat va ijodkorlik kompetensiyasi, o'zini-o'zi rivojlanirish va asrash kompetensiyasi hamda amaliy faoliyatni rivojlanirish kompetensiyalarini shakllantirishga e'tibor qaratiladi.

O'quvchini musiqa san'ati bilan izchil va bosqichma-bosqich tanishtirishdan iborat bo'lib, bunda o'quvchi musiqani diqqat va qiziqish bilan tinglay olish, uni badiiy tahlil qilish mahoratini egallaydi.

Musiqa bolaga zavq-shavq baxsh etishi, unda muayyan tuyg'u va kechinmalarning hosil qilish jarayon o'zidan o'zi sodir bo'lmaydi. Buni amalga oshirish uchun musiqa o'qituvchisi o'quvchilarda musiqani tinglash ko'nikmalarini tarbiyalashi, musiqaga qiziqishi va didni shakllantirish bo'yicha tizimli, muntazam maqsadga yo'naltirilgan chora-tadbirlarni olib borishi talab qilinadi.

Psixoglarning ta'kidlashicha, bolaning jismoniy baquvvat bo'lishi, musiqiy qobiliyatining erta namoyon bo'lish va rivojlanishiga daxldor, ya'ni ilk bolalik davridan boshlangan musiqiy tarbiya samarali natijalarni beradi.

Darsning emotsional tuzilmasini o'ylab o'qituvchi bir asardan boshqasiga o'tish jarayoniga o'quvchilardagi muhim hissiy holatni saqlab qolishi va ularning diqqatini jalb etish usullarini tadbiq etishi lozim. Shuningdek, dars tuzilmasini tuzishda bolalar jismoniy, aqliy va emotsional holatlarini, sinfning o'ziga xosligini inobatga olish maqsadga muvofiq bo'lib hisoblanadi. Masalan, boshlang'ich sinflarda kichik yoshdagi o'quvchilar diqqatini uzoq vaqt barqaror saqlay olishmaydi, shu bois ularning faoliyatini o'z vaqtida almashtirib turish maqsadga muvofiq. Bu bolalarning qiziqishlarini so'nishidan saqlaydi. Murakkab qo'shiqni, raqsni bir necha dars davomida o'rgatish samarali kechadi; murakkab musiqiy-ritmik harakatlar o'rganilishidan so'ng qo'shiq kuylashga o'tish maqsadga muvofiq emas. Shuningdek jadvalda musiqa darsining o'rnnini ham, ya'ni o'sha kunda bu mashg'ulot nechanchi soatda o'tilishini ham hisobga olish lozim.

Musiqa madaniyati fani o'qituvchisi o'tmishdagi buyuk ajdodlarimiz musiqiy nazariy, pedagogik qarashlari, psixologik-pedagogik tajribalar, musiqaning turli janrlarida yaratilgan va davr sinovlaridan o'tgan, bugungi kunda samarali qo'llanib kelinayotgan ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalardan o'rinli va samarali foydalana bilishi shuningdek, musiqiy faoliyat turlarini bir-biri bilan uzviy bog'liq holda amalga oshirib o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishi lozim. Ta'lim jarayonida o'qituvchi o'quvchilari bilan muloqotida har bir so'zni ehtiyyotkorlik bilan ishlatishi kerak, o'qituvchi shuni unutmasligi kerakki, so'z yordamida o'quvchilarda ijobiy fikrlash, ishonch, qiziqish, o'qishga yaxshi munosabat uyg'ota olishi va aksincha, ehtiyyotsizlik bilan aytgan so'zlari orqali ta'limga katta zarar etkazishi mumkin. O'qituvchining qo'pol muomalasi o'quvchilar psihologiyasiga salbiy ta'sir etishi avvaldan ma'lum.

O'qituvchining asosiy vazifalaridan yana biri shuki, u o'quvchilar bilim olish jarayonining mustaqil kechishini ta'minlashi, zarurat tug'ilgandagina ularga yordam berishni ko'zda tutishi kerak. O'qituvchi ta'lim jarayonini tashkil etishda, har bir

o'quvchining individual o'ziga xos xususiyatlari, jismoniy rivojlanish darajasi, imkoniyat qobiliyatlarini inobatga olishi zarur.

Musiqiy asarning g'oyaviy mazmuni - tinglovchi ta'sirlanishi darajasini belgilaydi. Musiqiy-estetik tarbiyaning vazifalari xuddi shu jarayondan boshlanadi. Musiqa o'z xususiyatiga ko'ra bolaning his-tuyg'ulariga bevosita ta'sir etib, ma'naviy qiyofasini shakllantiradi. Musiqa san'atining ta'sirkuchi nihoyatda ulkan. O'quvchilarni dars va sinfdan tashqari musiqiy faoliyatlarda turli xarakterdagi, mazmun va obrazdagi musiqiy asarlar bilan tanishtirar ekanmiz, biz beixtiyor ularning his- tuyg'ulariga ta'sir ko'rsatamiz. San'at, jumladan, musiqa -estetik tarbiyaning etakchi omillaridan biri sifatida anglaniladi.

Kuyning inson ruhiyatiga ta'siri, shaxsni jamiyatning ruhiy hayotidagi o'rni muammo hisoblanadi. Bolalarning musiqiy rivojlanishi va shaxsiy ijobiy sifatlarining shakllantirishda musiqa san'atining o'rni beqiyosdir. Musiqa kishiga har tomonlama ta'sir ko'rsatar ekan kuy va uning musiqiy ifodasi kishining hissiyotiga chuqur ta'sir etadi, hissiyot uyg'otadi, turlicha kayfiyatlarni hosil qiladi. Qo'shiqning she'riy matni, mazmun-g'oyasi nafaqat his-tuyg'uga, balki tinglovchilarning aql-shuuriga ham ta'sir ko'rsatib, mantiqiy fikr-mulohaza yuritishga majbur etadi.

Estetik didni shakllantirishda muhitning ahamiyati katta. Estetik muhit deganda bolaga estetik ta'sir etuvchi predmet, narsa, hodisa, voqealar tushuniladi. Bunda albatta oila, maktab, maktabgacha ta'lim tashkiloti asosiy rol o'ynaydi. Hamisha estetik tarbiyaning asosida erkin, mustaqil fikr yuritish, eshitish, ko'rish, harakat qilish qobiliyatlarini tarbiyalash vositasi turadi.

Bola voqelikdagi, san'atdagi, insondagi go'zallik, nafosatni ko'ra olishga, go'zallik va xunuklik haqida erkin mulohaza yuritishga, o'z fikrini mustaqil, aniq so'zlay olishga, faoliyat ko'rsata olishga qodir bo'lsa, demak unda estetik did, estetik tuyg'u, estetik idrok shakllangan bo'ladi.

Estetik tarbiyaning muhim jihatishaxsda uning eng ta'sirchan vositalari va usullaridan biri san'at, jumladan musiqa orqali shaxsning estetik tomonlarini shakllantirishni amalga oshiradi. Mashhur bolalar kompozitori, pedagog D.B.Kabalevskiy musiqaning insonga katta hissiy ta'sir kuchiga ega bo'lgan san'at ekanligi va shuning uchun ham u bolalar hamda yoshlarning ma'naviy dunyosini tarbiyalashda ulkan rol o'ynashi mumkinligini alohida ta'kidlagani bejiz emas.

Estetik tarbiya umumiylar tarbiyaviy faoliyatning maqsad, usul, qositalari tizimidan shaxs estetik madaniyati shakllanishining tashqi va ichki omillari, xususiyatlaridan kelib chiqsa-gina samarali natijaga erishish mumkin. Estetik tarbiya tizimi oila va maktab, ishlab-chiqarish jamoalari, ommaviy-axborot vositalari, madaniy-ma'rifiy muassasalar kabi bo'g'lnlarda yaxlit holda amal qilsagina kutilgan natija beradi. Zero, estetik tarbiya ijtimoiy faol, har tomonlama rivojlangan komil insonni tarbiyalashga yo'naltirilgan.

Go'zallik, nafosat tarbiyasida eng muhim vositalardan biri - bu san'atdir. San'atning barcha tur va janrlari o'ziga xos ta'sir kuchiga ega. Yosh o'sa borgan sayin bolada san'atning u yoki bu turiga qiziqish shakllanib boradi. San'at - voqelikka estetik munosabatlarning eng muhim shakli bo'lib, u insonning har tomonlama qobiliyatini rivojlantiradi. San'at dunyoni yaxlit idrok etishga o'rgatadi. Estetik tarbiya vositalari tizimida estetik bilimlar asoslari hisoblangan estetik nazariya alohida mohiyatga ega. Estetik nazariya-estetik tuyg'u, estetik did, estetik orzu kabi estetik ong qismlariga ta'sir ko'rsatadi. Chunki estetik tuyg'u, estetik did, estetik orzu singari estetik ong qismlariga estetik nazariya ta'sir ko'rsatadi. Shaxs estetik qarashlari uning e'tiqodiga aylana boradi. Bilim doirasini kengaytiradi. San'atga intilib yashash, badiiy ijod mahsullarini idrok etish - zavq-shavq olish ko'p jihatdan inson madaniy saviyasiga bog'liq. Shuni ta'kidlash joizki, san'atshunoslikka oid bilimlar san'at turlarini ochib berishga yordam beradi.

Xullas, musiqa san'ati - estetik tarbiyaning muhim omili bo'lib, yosh avlodni kamolatga etishi uchun qudratli ta'sir etuvchi jarayondir. Maktabgacha ta'lim tizimidan boshlab shakllantirishga e'tiborni qaratish lozimligi beziz emas. Chunki bu davr inson hayotida fe'l-atvor, iroda, did, go'zallik tuyg'usi va hayotiy tushunchalarning paydo bo'lishi hamda shakllanishi davridir. Bolalikda aql-farosat, axloqiy ko'nikmalarni tarbiyalash bilan bir qatorda ularda chiroyli, nafis, go'zal narsalardan zavq olishni, go'zallikni dag'allikdan, qo'polikkdan ajrata olish qobiliyatini tarbiyalash muhim vazifalardandir. Estetik tarbiya inson ichki olami hissiyotli tomonlari bilan birga ma'naviy dunyosini boyitadi, uning aqliy va irodaviy qobiliyatini ham rivojlantirib. butun hayoti davomida unga hamroh bo'lib boradi.

### **3.4. Darsda o'quvchilarning musiqiy-estetik tarbiyalash usullari**

Musiqa madaniyati fanini o'qitish konsepsiyasida "Musiqa madaniyati fanining maqsadi - o'quvchilarda san'at, badiiy-estetik va ijtimoiy-emotsional ko'nikmalarni shakllantirishda shaxsiy fazilatlar, amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishda namoyon bo'ladi. Bunda, albatta o'qituvchi kasbiy professional kopetentligi o'quvchilarda nafosat tuyg'usini shakllantirib, rujni yuksaltiradi, tafakkur olamini go'zallikka doir tasavvur, bilim, malakalari bilan boyitadi. Biroq, bu albatta o'quvchi-yoshlarda birinchi navbatda, musiqiy tuyg'u bo'lishini talab etadi.

Psixologlarning musiqiy qobiliyat haqidagi fikriga ko'ra musiqaning emotSIONAL ifodalanishinida muhim bo'lgan janrlar shakl, janr, o'lchov, kuy, ritm, lad, tembr, dinamika va boshqalarni his eta olish qobiliyatini alohida e'tirof qiladi.

Musiqaning o'ziga xos jihatlari tarifidan so'ng mashg'ulotlar davomida o'quvchilarga musiqaning o'ziga xos jihat, mazmunini badiiylik, ifodaliligini anglash uchun musiqa tilining asosiy elementlari, unsurlarini, jumladan, kuy, garmoniya va ritm haqida tushunchalarni o'zlashtirib olishlari maqsadga muvofiq:

Kuy-(yunoncha melodía) – turli baland va uzunlikdagi tovushlarning ma'lum bir ritm va ladda badiiy holatda kelishi. Kuy asarning asosi hisoblanadi. Kuyning eng xarakterli o'rni uning ohangdor bo'lishidadir. Demak kuy musiqadagi asisiy ifoda vositalari bo'lgan lad, ritm, metr va tembrni o'z ichiga oladi”<sup>1</sup>.

Ritm - (yunoncha rythmos – bir tekis oqim) – muzika asaridagi tovushlarning uzun-qisqaliklari jihatidan bo'lgan munosabatlari. Har bir musiqa asarining o'ziga xos ritmi bor. Musiqa tovushi bilan ritm chambarchas bog'langan bo'ladi. Ritmsiz kuy bo'lishi mumkin emas. Ritm turlariga metr va o'lchovlar kiradi”<sup>2</sup>

Garmoniya – (yunoncha harmonia – bog'lanish, ohangdoshlik)- bir yo'la eshitilgan bir necha tovushlarning o'zaro bog'lanishda kelishi. Garmoniya faqat bir tonallikda bo'lgan tovushlar ohangdoshligini ta'minlabgina qolmay, tonalliklariaro ohangdoshlikni ham ta'minlaydi”<sup>3</sup>.

Vokal musiqa – kuylash uchun mo'ljallangan asar bo'lib, yakka ovoz yoki ovozlar ijrochiligi uchun yozilgan musiqa asaridir. Xalq qo'shiqlari – badiiy xalq musiqa boyliklarining asosiy janrlaridan biridir. Musiqa asarlarini tinglash, idrok etish hamda tahlil jarayonida “kirish so'zi” ga alohida e'tiborga loyiq. Bu suhbatlardan asosiy vazifa si tinglovchini nafaqat musiqa asari bilan tanishtirish, balki ular musiqa inson ma'naviy olami va kamoloti uchun nihoyatda muhim omil ekanligi, uning boshqa san'at turlari bilan o'zaro bog'liqlikda rivojlanganligi anglatiladi.

Cholg'u musiqasi - musiqa cholg'usi va ijro etish uchun yaratilgan. Uning o'ziga xosligi u yoki bu mazmunni ifodalagan kompozitor o'zining cholg'u asarida, ular so'z yordamisiz tovushlar orqali ifodalanadi. Faqatgina tovush obrazlari orqali ifodalanadi.

Musiqa shakli, deganda musiqa asari qanday tuzilganligi tushuniladi. Shabl mazmun bilan aniqlanadi. Ular orasidagi

<sup>1</sup> Il.Akbarov Muzika lug'ati. Toshkent. 1987. y. – B. 72.

<sup>2</sup> O'sha adabiyot. – B. 285

<sup>3</sup> O'sha adabiyot. – B. 285

mantiqiy bog'liqlik mavjud. Ushbu jihatlarni ongli idrok etilsi, o'quvchilarning cholg'u musiqa janri bilan tanishishlari va uni tushunishlari yanada osonlashtiradi.

Tahlil qilish faoliyatining birligi va bog'liqligi o'quvchilarning estetik ehtiyojini qondirishda muhim ahamiyatga ega. Maktabda musiqa darsida g'oyaviy-axloqiy va estetik tarbiya jarayonini amalga oshirishda musiqa repertuari ham alohida o'rinni tutadi. Musiqa o'quv dasturidagi tinglash va ijro etishga, o'rgatishga mo'ljallangan asarlar o'zining g'oyaviy-badiiy mazmuni va qimmati, his-tuyg'ularni jalb etishiga e'tibor berilgan. hamda o'quvchilarning muayyan yosh xususiyatiga alohida e'tibor berilgan..

Musiqi estetik idrok-atrof muhitdagi musiqiy-badiiy hodisalarining estetik mohiyatini his qilish jarayonidir. Bu unda muayyan his-tuyg'uni ma'lum bir hissiy kayfiyatni shakllantiradi, biroq bu hali asarni to'liq ravishda ongli-emotsional, estetik idrok etish uchun etarli daraja emas. Chunki, musiqa asarini o'rganishni aktiv ijodiy faoliyat sifatida qarash lozim.

Musiqi ta'lismi zimmasiga eng muhim vazifa sifatida - badiiy jihatdan bilimdon, ijodiy fikrlaydigan, olgan nazariy-badiiy bilimlarini hayotda qo'llay oladigan, musiqa san'atini ongli-emotsional anglab, idrok etib, munosib badiiy baholay oladigan faol shaxsni tarbiyalashdan iborat. Xuddi shu talabdan zamonaviy musiqiy ta'limning vazifalari kelib chiqadi. Chunki, bu jarayon bola butun musiqiy-ma'naviy hayotiy faoliyatini uyg'unlashtirishga imkon beradi. Bu esa ma'naviy rivojlanish uchun muhim tayanch, asosdir. Bola

ruhiyatida musiqa olamining badiiy va xayoliy aks etishi unga ijobiyligi kayfiyatni shakllanib rivojlanishiga yordam beradi. Zero, "Chinakam san'at asarida hissiyot chuqur g'oyaviy, akliy mazmun bilan idrok kilish birikib ketadi. Nafosat tarbiyasi aql bilan hissiyotni tarbiyalash, yanada anikroq qilib aytganda, hissiyot

vositasi bilan aqlni tarbiyalashdir. Bu ikki tomon bir-biri bilan uzviy bog'likdir".<sup>1</sup>

Musiqa - matabda umumta'lim predmeti sifatida matabning butun estetik tarbiya tizimida katta rol o'ynaydi. Estetik tarbiyalanganlikni shakllantirish uchun inson san'atga hamda borliqqa nisbatan estetik munosabatda bo'lishi lozim. O'zaro harakat (san'at va borliq) jarayonida estetik tarbiyaning barcha muhim omillarini ochiqlash muhim.

Yosh avlodga estetik tarbiya berish shaxsni har tomonlama kamol toptirishga, insonning ijodiy jihatdan shakllantirishga xizmat qiladi

Shuning uchun ham maktablarda badiiy turkum fanlari yordamida estetik tarbiya berishga katta ahamiyat beriladi. Madaniyatli tinglovchini tarbiyalash vazifasini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun o'quvchilarda musiqa san'atidagi go'zallikni his etish tuyg'usini rivojlantirish, yuqori estetik didni shakllantirish muhimdir.

Aslida shaxsning estetik rivojlanish jarayoni unda estetik idrok etish ehtiyoji va qobiliyatini shakllantirishdan boshlanadi. Bu esa estetik tarbiya nafaqat nazariy bilimlarni egallah bilan birga badiiy qiziqishlarni rivojlantirishga va san'at bilan muloqotga kirishish ehtiyojlarini shakllantirishni talab etadi. Estetik tarbiyaga nafaqat aniq maqsad va izchil pedagogik boshqaruv, o'quvchilarga ta'sir ko'rsatishning ob'ektiv sharoitlarini tashkil etish barobarida tashqi olamga hissiy-baholovchi munosabat, tabiat, jamiyat hamda san'atdagi go'zallikni idrok etish qobiliyatni rivojlantirishga ham yordam beradi.

Zamonaviy "Musiqa madaniyati" fani mazmunida musiqa asarlarini tinglash va tahlil qilish, jamoa bo'lib kuylash, musiqiy savodxonlik, bolalar cholg'u asboblarida jo'r bo'lish malakalarini egallah va musiqiy-ritmik harakatlarni bajarish, musiqiy

---

<sup>1</sup> Karimova D. A., Xonazarova R. O'quvchi-yoshlarni estetik tarbiyalashda musiqa madaniyati fani oldida turgan dolzarb masalalar. // Zamonaviy ta'lif// Sovremennoye obrazovaniye. 2018. 7.)

ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish o‘z ifodasini topgan. Bundan esa “Musiqa madaniyati” fani mazmun-mohiyatida maktab o‘quvchilariga musiqiy ta’lim - tarbiya berishning yagona estetik vazifalari ilgari surilganligini anglash mumkin. Muhimi musiqiy faoliyat turlari o‘quvchi shaxsining ma’naviy olamini, faoliyatining axloqiy va estetik xususiyatlari, motivlari, munosabatlarini faollashtiradi.

Masalan, 5-sinf darslari davomida o‘quvchilar musiqali drama janri, sahnaviy musiqa asarlari xususiyatlarini o‘rganishlari, musiqali drama tarkibidagi raqs – balet janri xususida tushunchalari bilan tanishishlari lozim. O‘zbek va rus kompozitorlaridan P.I.Chaykovskiyning “Oqqush ko‘li” baletidan parchalar, U. Musaevning “To‘maris”, T.Jalilovning “Tohir va Zuhro” musiqali dramasidan parchalar tinglash uchun texnik vositalar yordamida eshittirish yahshi samara beradi. Ushbu asarlarni tinglash bilan birga o‘quvchilarga kompozitor va bastakorlar M. Leviev, Y.Rajabiy, T.Jalilov, M.Maxmudov, S.Jalil ijodlarida musiqali dramaning o‘rnini tushunib olishlari maqsadga muvofiqdir. Musiqa tinglash jarayonida amalga oshiriladigan tahlil asarni badiiy-estetik va tarbiyaviy jihatdan munosib baholay olish malakalarini rivojlantirib borish o‘quvchilarning musiqali drama janri haqidagi tasavvurlarini yanada boyitishga, estetik mohiyatini anglashga samarali yordam beradi.

“O‘zbek xalq qo‘srig‘i” “Mumtoz musiqa va xalq musiqasining mahalliy uslublar”ni o‘zlashtirish uchun 6-sinf dasturida 7 soat ajratilgan. Unda Xorazm vohasining mumtoz musiqasi, Xorazm maqomlari, Xorazm ashulachilik san’ati, suvoralar, “Surxondaryo-Qashqadaryo” musiqiy uslubi kabi mavzular qiziqarli ma’lumotlar o‘qituvchi tomonidan tushuntirib o‘tiladi. Ushbu nazariy-tarixiy musiqiy tushunchalar “Aliqambar” kuyi, “Feruz 1”, Xorazm suvoralaridan namunalar, “Alpomish” dostonidan parchalar, “Surxondaryo-Qashqadaryo” musiqa uslubidagi kuy va qo‘sriqlardan tinglash va ularni tahlil qilish bilan amaliy jihatdan mustahkamlanadi.

“Sharq xalqlari mumtoz musiqasi” deb nomlangan bobda esa Sharq taronalari juda boy an’ana va tarixga ega. Mashg’ulotlar davomida Turk va Ozarbayjon musiqasining o’xshash va o’ziga xos xususiyatlari, turkman xalqlari mumtoz musiqasi, eron va arab xalq mumtoz musiqasi, xitoy va uyg’ur mumtoz musiqasi, yapon va hind mumtoz musiqasi, qozoq va qirg’iz xalq mumtoz musiqasi xususida ma’lumotlar beriladi. Shuningdek, har bir xalqning mumtoz musiqa janri haqida ma’lumot berilganda tinglash faoliyatini amalga oshirish uchun o’sha xalq kuy va qo’shiqlarining ayrim namunalaridan ham foydalaniladi.

Mavzu yuzasidan o’quvchilar bilimlarini boyitish maqsadida o’qituvchi O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Sharq taronalari” xalqaro musiqa festivalini o’tkazish to’g’risida” gi (1997 yil 11-mart, 132-son) qaroriga asosan ushbu anjuman har ikki yilda bir marta Samarqand shahrida o’tkazilishi belgilab qo’ylganligini aytib o’tishi maqsadga muvofiq. Xalqaro miqyosidagi san’at va madaniyat tadbirining o’tkazishdan maqsal-milliy musiqa san’ati namunalarini keng targ’ib qilish, san’atdagi sharqona nafosatni, milliy musiqiy an’analarni asrab-avaylash va yoshlarda san’atga bo’lgan muhabbat hamda estetik tuyg’ularni kamol toptirish, o’zaro madaniy-ma’naviy hamkorlikni mustahkamlash maqsadida ta’sis etilganligi ta’kidlab o’tiladi. Masalan, oltinchi sinfga kelib o’quvchilar mumtoz musiqa, mumtoz kuylar, mumtoz ashula, maqom va bu janrlarning estetik mohiyati haqida umumiyl tushuncha, “Shashmaqom” - mumtoz musiqamiz asosi, “Buxoro – Samarqand” musiqa ijrochilik uslubi, sozandachilik san’ati, “Farg’ona-Toshkent” mumtoz musiqasi, katta ashula, “Farg’ona-Toshkent” musiqa uslubi, yallachilik san’ati kabi mavzularni o’zlashtiradilar. O’qituvchi avvalo “mumtoz” (klassika) tushunchasi haqida qisqacha to’xtalib o’tadi:

“Klassik, mumtoz - lotincha - “namunaviy” so’zidan olingan bo’lib, o’z ijodi bilan milliy madaniyat kamolotiga yoki jahon madaniyati rivojiga sezilarli ta’sir ko’rsatgan kishilar shunday nomlanadi. San’atda, adabiyotda eng yaxshi va yuksak asarlar esa - mumtozlik darajasiga ko’tariladi. O’zbek mumtoz musiqasi ham

mumtozlik xususiyatiga egadir.

Musiqa madaniyati darslari davomida ta'limiy-tarbiyaviy maqsadga erishish uchun o'qituvchi tomonidan qo'llaniladigan musiqiy film, tarqatma materiallar, turli musiqiy adabiyotlar, to'plamlar, axborot texnologiyasining o'rni va ahamiyati katta. Masalan, 6-sinfda "Mumtoz musiqa haqida tushuncha", deb nomlangan 1-bobning "Shashmaqom – mumtoz musiqamiz asosi" mavzusini o'tishda musiqiy videofilmdan, o'zbek milliy musiqa asboblari mavzusida esa "O'zbek cholg'u asboblari" ijrosi, uning tarixi va ijrochilik uslublari haqida ma'lumot beruvchi audio yoki SD disk yozuvlaridan foydalanish yaxshi samara beradi. Shuningdek, respublikamizning ilg'or tajribali musiqa madaniyati fani o'qituvchi-metodistlarining "Mahorat darslari", videodarslaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

O'quvchilar musiqa asarlarini tinglash barobarida O'zbekistonda mumtoz musiqa san'atining analariga xos bo'lib, ega ekanligi haqida ularning o'zaro o'xhash umumiyligi hamda o'ziga xos jihatlari haqida tushunchalarga ega bo'lishlari lozim.

Ushbu mumtoz qo'shiqlarni yaratgan, kuylagan hofizxonanda hamda sozandalarning ijro uslubi, ovoz imkoniyatlari va salohiyatlari xususida qiziqarli, tarixiy ma'lumotlarga boy tushunchalar beriladi. Ularning o'zbek musiqa, qo'shiqchilik madaniyatiga qo'shgan ulkan hissasi alohida ta'kidlab o'tiladi. Shu bilan birga mumtoz san'atkorlarning ijrochilik maktabi hozirgi kunda ham davom ettirilayotganligi, bu san'at ustozdan-shogirdga ma'naviy meros sifatida o'tib kelinayotganligi hamda ushbu an'ana kelajakda ham davom ettirilishi xususida aytib o'tiladi

Musiqa san'ati vositasida estetik tarbiyalash usulida o'quvchining musiqiy-badiiy qadriyatlarni hissiy idrok etishi, musiqiy-ijodiy faoliyati, musiqa asariga nisbatan ongli-emotsional munosabatda bo'lish uchun birgalikdagi faoliyatiga asoslanadi. Bu ishning muvaffaqiyati ko'p jihatdan o'quvchining individual xususiyatlari, musiqiy ehtiyojlari va qiziqishlari, uning umumiyligi madaniy rivojlanish darajasi qanchalik hisobga olinishi bilan

belgilanadi.

Badiiy qadriyatlarni o'zlashtirishda jamiyat a'zolarining, ayniqsa, yosh avlodning faol ishtirok etishi ularda estetik did-farosat va talab-ehtiyojlarning rivojlanishiga, ijodkorlik qobiliyatlarini o'sishiga olib keladi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, musiqa asarlarini tinglash va estetik idrok etish o'ziga xos individual xususiyat bo'lib, bu shaxsning san'at, go'zallikka hissiy munosabati darajasiga asoslanadi. O'quvchi borliqqa, san'atdagi go'zallikka, atrofdagi insonlarning ezgu-tuyg'ulari bilan doimiy munosabatda bo'ladi. Bunda o'quvchining egallayotgan hayotiy tajribasi, intilishlari, his-tuyg'u, kechinmalari katta ahamiyatga ega.

Musiqiyy-estetik tarbiya usullari juda xilma-xil bo'lib, musiqiy- badiiy ma'lumotlarning hajmi va sifati, musiqiy faoliyat shakllari va bolaning yoshi, psixologik xususiyatlari kabi shartlarga bog'liq. Shuningdek, o'quvchining yoshi, o'qituvchining kasbiy tayyorgarlik darajasi, mahorati va pedagogik qobiliyati muhim rol o'ynaydi.

Bunday musiqa darslari o'quvchilarning o'rganilayotgan musiqiy materialga qiziqishini oshirib, ularning estetik va intellektual ongini rivojlantiradi. Musiqa integratsion fan sifatida musiqa asarlarini o'rganish, tarix, musiqa nazariyasi, shuningdek, qo'shiq kuylash va bolalar musiqa cholg'ularida jo'r bo'lish sohasidagi eng oddiy ijro mahoratini o'z ichiga oladi. Musiqa san'ati amaliy o'quv predmeti sifatida san'at asarlarining o'zi, musiqiy san'at tarixi bosqichlari, musiqiy faoliyat nazariyasi, amaliy ijro va tinglash ko'nikmalarini o'zlashtirish, musiqiy savodxonlik hamda uni amaliyotga tatbiq etish haqidagi bilimlarni birlashtiradi.

"O'zbek musiqasi" iborasi keng mazmunli tushuncha bo'lib, u o'z ichiga musiqiy merosning ikki qatlami - xalq musiqasi va kasbiy (ustozona) musiqa hamda zamonaviy ijodiyot (bastakorlik, kompozitorlik) sohalarini qamrab oladi.

O'quvchilarga "Surxondaryo-Qashqadaryo" musiqa ijrochilik uslubi haqida ma'lumot berib, ushbu uslub Surxondaryo va

Qashqadaryo viloyatlari hududida shakllangan barcha musiqiy-badiiy an'analarni o'zida mujassam etganligi aytib o'tiladi. Bunda, jumladan chorvachilik va dehqonchilik bilan bog'liq mehnat aytimlari, mavsumiy-marosim qo'shiqlari, cho'ponlar hamda baxshilar san'ati mavjudligi nazarda tutiladi. Do'mbira, qo'biz, cho'pon nay, chanqovuz va doyra sozlaridan iborat ekanligi tushuntiriladi. Ayniqsa, "Surxondaryo-Qashqardaryo" musiqiy ijrochilik uslubida dostonchilik san'ati ham salmoqli o'ringa ega ekanligi, doston adabiy-musiqiy asar bo'lib, uning tarkibi nasriy va she'riy qismlardan iboratligi bayon etiladi. "Alpomish", "Avazxon", "Orzigul", "Yodgor" singari dostonlar ana shunday ko'rinishda bo'lib, doston ijrochilar el orasida baxshi, shoir yoki yuzboshi, deb atalishi ta'kidlanadi. Abdulla Nurali o'g'li, Islom Nazar o'g'li, Shernazar Beknazar o'g'li-dostonchilik mакtablarining yirik vakillaridan bo'lib, shogirdlari bilan dostonchilik san'ati va ijrochilik madaniyatini yanada takomillashtirdilar.

Mazkur mavzularni o'tish jarayonida o'qituvchi o'quvchilarga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Baxshichilik san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-4320-sonli Qarorida Xalqaro baxshichilik san'ati festivali ikki yilda bir marta o'tkazilishi, dostonchilik san'atini asrab-avaylash va keng targ'ib qilish, turli xalqlar o'rtasida do'stlik hamda ijodiy hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qilishi belgilab qo'yilganligi tushuntirib o'tish maqsadga muvofiqdir.

Tinglash faoliyatida mumtoz musiqa asarlaridan parchalar, "Cho'li Iroq, "Qo'shtor", "Rohat", "Jonon kuylaridan parchalar, "Ushshoq", "Guluzorim" ashulalarini tinglash, Shashmaqom tarkibidagi asarlardan ("Tasnifi Buzruk") tinglash, "Buxoro-Samarqand" musiqa yo'nalishidagi kuy-qo'shiqlardan tinglash, katta ashulalardan - Dugoh Husayniy taronasi xalq musiqasi), "Bayot-1", "Mushkuloti Dugoh", "Nasrulloi-1" va katta ashulalardan namunalar. yallalardan namunalar tinglash rejalahtirilgan.

O'quvchi-yoshlarni o'zbek milliy estrada san'ati va

madaniyati bilan tanishtirish ularning musiqiy savodxonligini oshirishda, musiqiy-estetik tarbiyasini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Musiqa fan darsliklarida estrada musiqasi, uning o'ziga xos xususiyatlarni milliy musiqamiz asosida janr sifatida shakllanib yillar davomida xalqning ma'naviy mulki sifqatida rivojlanib kelayotganligiga oid nazariy bilim, tarixiy ma'lumotlar bor. Mazkur yo'nalishda o'quvchilarga quyidagi tartibda nazariy bilim va malakalarni mashg'ulotlar davomida amalga oshirib borish maqsadga muvofiq.

O'quvchilarga estrada musiqasi Botir Zokirov va "Yalla" guruhi mavzusi bilan tanishtirilganda avval. o'quvchilarning bu boradagi fikr-mulohazalari tinlanadi va umumlashtirib olingach, mavzu xususida mulohazalar bildiriladi:

"Estrada - tomosha san'atining lotin tilida "tepalik" ma'nosini anglatadi. 20-asrda milliy musiqada estrada atamasi kirib keldi va san'atning kichik bir shakli sifatida qo'llanila boshlandi.

Estrada-bu engil maishiy xarakterli ommabop musiqa bo'lib, uning tashkil topish tarixi g'arb xalqlarining teatr-tomashta shakllaridan boshlandi. O'zbekistonda milliy estrada musiqasi asoslari 20-asrning 50 yillarida shakllana boshladi. Unga Botir Zokirov asos soldi. Botir Zokirov-milliy estrada musiqasining asoschisi, o'zbek estradasining yirik namoyandası, shoir, rassom, dramaturg, rejissor va mohir xonanda sifatida musiqa madaniyati tarixida tanilgan. Uning amalga oshirgan ishlari keyinchalik o'zbek estradasining mumtoz andozasi bo'lib qoldi. Masalan: "Arab tangosi", "Habiba", "Ra'no", "Maftun bo'ldim" kabi qo'shiqlari bilan o'zbek estradasi san'atida o'chmas iz qoldirdi. U yosh iste'dodlarni izlashda, kashf etishda, ularga yo'l ko'rsatishda mehnatini ayamadi. Uning mehnatlari samarasi o'laroq juda ham ko'p iste'dodlar, ularning san'ati yuzaga chiqdi. Estrada musiqasi tez ommalashib bordi va rivojlandi, yoshlarning turli darajadagi estrada ijrochilik guruhlari shakllandi Ayniqsa, XX asrning 80-90 yillaridan boshlab o'zbek milliy estrada musiqasi ravnaq topdi. Yoshlarga katta imkoniyatlar yaratilganligi ulkan samaralarga asos bo'ldi.

O'zbek estrada san'ati faxri bo'lgan "Yalla" guruhi 1971-yilda tashkil topdi. Jamoaning rahbari sifatida Farrux Zokirov "Yalla" ni professional guruh sifatida shuhrat qozonib, "Uchquduq", "Choyxona", "Mahbubam chiroyl", "Yallama yorim", "G'ayrag'ayra", "Qilpillama". "Shaxrisabz", "Toshkentim onam" kabi ko'plab taronalarni ijro etishdi.

O'quvchilar estrada janriga oid nazariy-tarixiy ma'lumotlar bilan tanishib bo'lgach, Botir Zokirov ijrosida muhrlangan "Ra'no" hamda "Yalla" guruhi ijrosida "Uchquduq", "Shaxrisabz" qo'shiqlaridan parchalardan tinglash faoliyati amalga oshiriladi. O'smir-o'quvchilarni milliy estrada san'ati, uning tarixi, buyuk namoyandalari haqidagi ma'lumotlar va tushunchalar asosida o'quvchilarda musiqa savodiga doir ma'lumotlar doirasini kengaytirib,musiqiy-estetik tarbiyasini rivojlantirishga erishiladi.

Hayotiy hodisalarini estetik idrok etish har doim individuallik xususiyatini taqozo etadi. Bu go'zallikka nisbatan shakllanadigan hissiy munosabatga asoslanadi. O'quvchi tabiatdagi go'zallikka, borliqqa, san'atga, insonlarning tuyg'ulari bilan doimiy munosabatda bo'ladi.

Musiqa san'ati va ta'limi vositasida o'quvchilarga musiqliy-estetik tarbiyalashda o'qituvchining kasbiy kompetentligi muhim ahamiyatga egadir. Maktab bitiruvchilarining ma'naviy olamini kengaytirish va boyitish, ularning axloqiy sifatlarini o'stirish, atrofdagi musiqiy muhit va hayotga to'g'ri yo'naltirish malakalarini shakllantirish-musiqa o'qituvchisining vazifasidir. Maktabdagagi musiqiy-estetik tarbiya o'qituvchining bu sohadagi kompetentlik darajasi, kasbiy tayyorgarligiga uzviy bog'liq bo'ladi. Mashhur kompozitor-pedagog D.B.Kabalevskiy o'qituvchi kompetensiyasi masalasida munosabat bildirib, agar o'qituvchi-tarbiyachi zamonaviy estetikaning mazmun-mohiyatini tasavvur qila olishini, o'quvchilar madaniyatining shakllanishida estetik omilning muhimligini anglab olishi juda zarurligini shundagina u maktabdagagi estetik tarbiyaning yo'llari, shakl, vosita va

metodlarini muvaffaqiyatli tatlq etishda o'z tarbiyalanuvchilariga estetik tarbiya bera olishligi ta'kidlab o'tgan.<sup>1</sup>

Musiqa madaniyati darslarida o'qituvchi o'z oldiga o'quvchilarda musiqiy - estetik madaniyatni shakllantirishni maqsad qilib qo'ysa, asosiy jihatlarni inobatga olish lozim bo'ladi.

O'quvchilarning musiqiy-estetik rivojlanishlari uchun o'qituvchi o'zining ish faoliyatida sidqidil tayyorlanib, darslarniyusak metodik darajada o'tilishini ta'minlashi lozim.

Zero, dars o'qituvchidan katta irodaviy kuch, izlanish, hozirjavoblik hamda turli pedagogik vaziyatlarga shzligini namoyon etishni talab etadi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, yuksak badiiy didni tarbiyalashda san'atning hamma turlari muhim va ularning har biri o'z xususiyati va imkoniyatiga ega. Maktabda estetik tarbiyani. amalga oshirish o'quvchilarda yuksak estetik badiiy didni shakllantirish uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratib berish va san'at asarlarining estetik mohiyatini o'quvchi-yoshlar qalbi va ongiga singdirishning muxim omilidir. Demak, maktabda musikiy-estetik tarbiyasini amalga oshirishda o'quvchilarning beriladigan musikaga doir ma'lumotlarga aloxida e'tibor berish, ularni o'quv dasturi talablariga muvofik nazariy bilim hamda amaliy malaka va ko'nikmalar bilan ta'minlash, fanga oid kompetensiyalarni shakllantirilishiga erishish eng muxim vazifalardandir. Shuningdek, o'qituvchi o'quv xonasidagi umumiyluhiy holat, kayfiyatni va o'quvchilarning musiqa madaniyati darsiga va san'atiga bo'lgan munosabatini har tomonlama o'rganib inobatga olish maqsadga muvofiq:

- har bir o'quvchining musiqiy - pedagogik va psixologik - fiziologik jihatdan chuqur o'rghanish, uning ovoz o'sishi, mutatsiya davrini hisobga olib, ovoz imkoniyatiga ko'ra imkoniyatni belgilash;

- bolalarni musiqa san'ati va ta'limiga qiziqtirish, ularning ongi va shuuriga "musiqa – inson ruhiy olamining ozug'i, hayotning

---

<sup>1</sup> Кабалевский Д. Прекрасное пробуждает доброе. –Москва. Педагогика, 1973. – Стр. 240-241.

badiiy aksi, kishi qalbining doimiy yo'ldoshi" ekanligi haqida tushunchalarini singdirish;

- musiqa mazmunini madaniy hayotimiz bilan bog'lab o'tish, uning vositasida musiqiy-estetik tarbiya berish, musiqa madaniyati dars mazmunini boshqa predmetlar bilan boglab olib borishga erishishi talab etiladi.

Shuni inobatga olish lozimki, musiqa darslarida estetik tarbiya o'quvchilarning faqatgina umumiy rivojlanishlari uchun emas, balki ularning badiiy ma'lumot, bilim, tushunchalarini o'zlashtirishlari uchun muhim vazifa o'qitish va tarbiya jarayonida o'zaro bog'liq holda amalga oshirilishi kerak.

Professor S.X.Fayzulina o'qituvchining estetik tayyorgarlik darajasini undagi mas'uliyati barcha boshqa kasbdagi xodimlarga yuklangan mas'uliyatdan ancha yuqori bo'lishini his qilishi kerak. Bu borada o'qituvchi estetik tayyorgarlik jarayonida bolalarga singdirishi zarur bo'lgan bilim, malaka va ko'nikmalarni mahorat bilan egallashi kerak. O'qituvchining kasbiy mahorati kasbiy burch ekanligini his qilishi lozim. O'qituvchining estetik tayyorlashning zarurligini xuddi mana shu bilan tushuntirish mumkin.<sup>1</sup>

Tarbiya jarayonida musiqiy-badiiy vositalar o'quvchilarga maqsadli va izchil pedagogik ta'sir ko'rsatishi, musiqiy ta'lim jarayonida ta'lim va tarbiya tizimining uzviy qismiga aylanishi lozim, chunki fanning xususiyatlarida o'quvchilarga estetik tarbiya berish uchun ob'ektiv shart-sharoitlar mavjud. Shu bois, musiqada ham, san'atning boshqa turlarida ham badiiy qiziqishlarni rivojlantirish dolzarb pedagogik ahamiyatga molik masala. Shuningdek bunda o'quvchilarning qiziqishlari rivojlantirish va ehtiyojga aylantirishda hissiy faollik o'rnini alohida ko'rsatish maqsadga muvofiq.

Musiqiylar ma'lumot va tushunchalar o'quvchilar tomonidan idrok etilib, ularda ichki qiziqish uyg'onganda-gina o'z maqsadiga erishadi va tarbiya vositasiga aylanadi. Binobarin, musiqa madaniyati ta'limidagi estetik tarbiya jarayoni o'quvchilar

---

<sup>1</sup> Fayzulina S. X. O'quvchi yoshlarning estetik tarbiyasi. Toshkent, "O'qituvchi". 1981y., - B. 24.

jamoasini faollashtirib, ularning musiqiy-badiiy qiziqishini rivojlantirish asosida amalga oshirilishi zarur.

Maktab ukuvchilariga musika fanidan sabok berishdan kuzlangan maksad, ya'ni yosh avlodni milliy musika merosimizga vorsilik kila oladigan va umumbashariy musika namunalarini anglaydigan, madaniyatli kishilar qilib tarbiyalashdan iboratdir". Demak, ushbu ta'limni olgan o'quvchi keljakda qaysi sohani egallamasin, o'z musiqiy savodxonligiga murojaat qiladi, san'at asarlaridan zavk-shavq ola biladi, ma'no va mazmunidan xulosa chiqaradi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida musika madaniyati fani 1-4, 5-7- sinflarda oddiylikdan murakkablik taomiliga muvofik o'rgatiladiki, bunda avvalo milliy musiqaning jozibadorligiga badiiy va so'nmas ruhiga, ayni paytda jahon miqyosidagi taniqli kompozitorlarning asarlariga jiddiy ahamiyat beriladi.

Musiqa darslari o'quv xonasi ham o'quvchilar badiiy-estetik qiziqishlarini jiddiy ravishda rivojlantirishga yo'naltirishi lozim. Maktablardagi musika xonalarining talab darajasida jihozlanishi hech qachon bugungidek dolzarb ahamiyat kasb etmagan edi. O'zbekiston Republikasi Prezidentining "Bolalar musiqa va san'at maktablarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini yanada yaxshilash bo'yicha Davlat dasturini tayyorlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoyishi ixtisoslashgan ta'lim dargoxdarigagina emas, balki barcha umumta'lim maskanlari zimmasiga xam katta mas'uliyat yukladi.

Ma'lumki, uch ming yillik tarixini yaratgan uzbek xalki xayotida musikanng ulmas va boy madaniy merosi vujudga kelgan bulib, mutaxassislar buni 4 ta mintakaviy yunalishga ajratishgan "Farg'ona-Toshkent", "Buxoro-Samarqand", "Surxandaryo-Qashqadaryo" va Xorazm. Boy musiqiy meros aqidagi bilim, malaka va ko'nikmani o'quvchilarda hosil qilish, avvalo etuk mutaxassis va qolaversa, did bilan jihozlangan, ko'rgazmali vositalari mavjud qilingan o'quv xonasi bo'lishi kerak.

Texnik vositalar – audio, vidiomagnitofon, televizor, nota varaqalari, taniqli o'zbek, jahon bastakor kompozitorlarning

portretlari mavjud fan xonasida musiqa mashg'ulotlarining o'tilishi ta'lif samaradorligiga sezilarli darajada ta'sir etishi, shubhasiz. Tinglash, musiqa savodiga oid plakatlar majmuasi ham nihoyatda zarur. Bundan tashqari musiqa xonasida g'ijjak, chang, nay, rubob, doyra, dutor sozlari bo'lishi kerak.

Sinfdan tashkari to'garak ishlarini jonlantirish, o'quvchilarda jamoa bo'lib kuylash mahoratini shakllantirish maqsadlari uchun Yevropa cholg'u asboblaridan 1 dona fortepyano, 1 dona akkordeon har bir matabning musiqa xonasidan joy olishi belgilab qo'yilgan. Shuningdek, gitara, skripka, balalayka, buben kabi cholg'u asboblari bilan ta'minlangan musiqa xonasida o'sha matab o'quvchilari o'zga millat musiqa asboblarini ham chalishni o'rganadilar.

Umumiy o'rta ta'lif maktabalarini mutaxassis o'qituvchilar bilan ta'minlash ham o'ta muhim ahamiyatga molik masala. Busiz fan xonalarining namunali jihozlanishi o'quvchilarda ta'lif mazmunining majburiy talab va minimumlarini hosil qilish juda murakkab.

Hozirgi vaqtida musiqa cholg'u asboblarini ishlab chiqadigan korxonalar bizda mavjud emas. Xususiy tadbirkorlar tomonidan yaratilgan 15 million so'mlik milliy musiqiy asboblardan rubob, nay, surnay, karnay, dutor, g'ijjak, afg'on rubobi, doyraning san'at va madaniyatga ixtisoslashtirilgan matab-internatlarga tarqatilishi davlat miqyosida juda katta ahamiyatga egadir. O'kuvchilar bu musiqa asboblaridan foydalanishni o'rganibgina qolmaydi, kelgusida o'zları ishlaydigan dargohda namunali fan xonasi tashkil etishga ham harakat qilishadi.

Musiqaning mo"jizali, sehrli ta'sir kuchi, tarbiyalash xususiyati haqida ko'p gapirilgan. Maktab ana shu umumbashariy va umummilliy ta'lifotning tashkilotchisi bo'lib qolar ekan, yuqorida ta'kidlaganimizdek, bu avvalo musiqa xonasining risoladagidek jihozlanishi, mutaxassislarning puxta saboq ulashishi bilan bog'lik ekanligini e'tirof etish lozim. Zero, zamonaviy musiqa madaniyati darslarini maxsus jihozlangan sharoitsiz amalga oshirish murakkab. Musiqa xonasining estetik

jihozlanishi bolalarga ruh bag'ishlab, darsga o'ziga xos qiziqish uyg'otish kerak. O'quvchilar musiqa cholg'u asboblari, texnik, ko'rgazmali vositalar juda ham muhim. Darsning muvaffaqiyatli o'tishi sifatliligidan, o'z vaqtida tayyorlanganligidan va unumli tatbiq etilishidan darsning muvaffaqiyatli o'tishi ta'minlanadi. Shunday qilib, musiqa san'atining estetik mohiyatini, ta'lim dasturi esa o'z oldiga bolaning estetik rivojlanishi vazifalarini qo'yganligini hisobga olsak, biz musiqa san'atini - estetik tarbiyaning asosiy vositasidir, - degan xulosa yanada oydinlashadi.

Xullas, musiqa o'z xususiyatiga ko'ra o'quvchiga har tomonlama ta'sir ko'rsatar ekan kuy va uning musiqiy-badiiy ifodasi uning tabiatiga turfa tuyg'ularni uyg'otadi. Musiqiy asarning mazmun-g'oyasi nafaqat his-tuyg'uga, balki tinglovchining aql-shuuriga ham nur baxsh etib, mantiqiy fikr-mulohaza yuritishga o'rgatadi. Musiqa tili tarjimonsiz, barchaga tushunarli xususiyati bilan fikr va tuyg'ularni ifoda etadi. Zero, musiqa san'atining tarbiyaviy imkoniyatlari keng, kuchi nihoyatda qudratli. Musiqiy asarning g'oyaviy mazmuni-tinglovchi ta'sirlanishi darajasini belgilaydi. Musiqiy-estetik tarbiyaning vazifalari ham xuddi shu jarayondan boshlanadi. Musiqiy - estetik tarbiya yoshlarimizda milliy madaniy merosimizga hurmat, milliy musiqiy qadriyatlarni hurmat qilishga va qadrlashga undaydi.

### ***Nazorat uchun savollar:***

1. Estetik tarbiyada musiqa san'atining o'rnini izohlang.
2. Badiiy tarbiya tushunchasining mazmunida nima ifodalananadi?
3. Estetik tarbiya va badiiy tarbiya tushunchalarining o'zaro bog'liqligi, ularning farqi va xususiyatini qanday tushunasiz?
4. Musiqa san'atining estetik tarbiya omili sifatidagi mohiyati nimada?
5. Musiqa madaniyati машғулоти tarbiyaning asosi, degan qoidani qanday tushunasiz?

### **Mustaqil ta'lim uchun topshiriqlar:**

1. Musiqiy-pedagogik adabiyotlardan estetik tarbiyada musiqa san'atining ahamiyati va o'rni masalasiga doir tushuncha hamda ma'lumotlarni to'plab o'zlashtiring.
2. Badiiy tarbiya, uning o'ziga xos xususiyati va mazmun-mohiyatining nazariy jihatlarini o'rganing.
3. Musiqa san'ati - estetik tarbiyaning muhim omili ekanligini asoslovchi tushuncha va fikrlarni o'rganing.
4. O'quvchilarning musiqiy-estetik tarbiyasini shakllantirish jarayonlarini amaliyotda kuzating va xulosalar tayyorlang.

## **SEMINAR MASHG`ULOTLARNI TASHKIL ETISH BO`YICHA KO`RSATMA VA TAVSIYALAR**

Seminar mashg`ulotlarida talabalar олинган асосиyl ма`ruza mavzulari bo`yicha bilim va ko`nikmalarini yanada boyitадилар. Shuningdek, mutaxassislik sohasiga doir darslik va o`quv qo`llanmalar асосида talabalar bilimlarini kengaytirish maqsadida mashg`ulotlarda tarqatma materiallardan foydalanish, mavzular bo`yicha taqdimotlar tayेrlash va boshqalar tavsiya etiladi.

Seminar mashg`ulotlarida talabalar estetik tarbiya metodikasining nazariy va amaliy асосларини o`рганадilar.

## **SEMINAR MASHGULOTLARNING TAXMINIY TAVSIYA ETILADIGAN MAVZULARI**

### **1-Mavzu: Ta`lim islohotlarida estetik tarbiya masalalari Reja:**

- 1.Musiqiy ta`lim-tarbiya jarayoni сифатини oshirishda me`yoriy va o`quv-uslubiy hujjatlarning ahamiyati.
- 2.Musiqa va san`at bilan shug`ullanish- o`quvchilarni intellektual hamda ma`naviy rivojlanishning omili sifatida.
- 3.Estetik tarbiya masalalarini hal etishda musiqa ta`limi tizimi oldiga qo`yilgan vazifalar.

### **Adabiyotlar:**

1. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 17 noyabrdagi “O`zbekiston milliy maqom san`atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to`g`risida” PQ - 3391-sonli qarori // “Xalq so`zi” gazetasi. 2017. - 18 noyabr.
2. Prezident Shavkat Mirziyoevning “Xalqaro maqom san`ati anjumanining ochilish marosimidagi nutqi”. // “Xalq so`zi” gazetasi. 2018 y. - 7 sentabr.
3. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 2 fevraldagи “Madaniyat va san`at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida” PQ - 112-sonli qarori // “Xalq so`zi gazetasi. 2022. – 4 fevral.

## **2- Mavzu: Estetik tarbiya – o'quvchi ma'naviy rivojlanishining muhim omili sifatida**

### **Reja:**

- 1.Estetik tarbiya tushunchasi xususida.
- 2.Sharq donishmandlarining musiqiy-estetik masalalarga oid qarashlari.
- 3.Pedagogika va psixologiya fanlarida estetik tarbiya muammolari.
- 4.Musiqa vositasida estetik tarbiya va badiiy ta'larning maqsadi, vazifalari

### **Adabiyotlar:**

1. Irzayev B. O'zbek musiqa madaniyati tarixi sahifalaridan. – Toshkent. "Akademnashr". -2017.
- 2.Savin N. V. Pedagogika. (o'quv qo'llanma). – Toshkent. 1983. –B. 285.
- 3.Fayzulina S.X. O'quvchi yoshlarning estetik tarbiyasi. – Toshkent. "O'qituvchi".- 1981.

## **3- Mavzu: Musiqa darslarida o'quvchilarni estetik tarbiyalash metodikasi va usullari.**

### **Reja:**

- 1.Maktabda estetik tarbiya muammosi
2. Musiqiy tuyg'uni tarbiyalash
- 3.Musiqa san'ati- estetik tarbiya omili sifatida
- 4.Musiqa madaniyati darslari-musiqiy-estetik tarbiyaning asosi sifatida

### **Adabiyotlar:**

